

O'zbek Adabiyoti tarixi: Eng qadimgi adabiy yodgorliklar

O'zbek adabiyoti tarixi.

Eng qadimgi adabiy yodgorliklar.

Dastlabki yozma manbalar VI – VII asrlarga tegishlidir. Ular O'rxun – Enasoy obidalarini nomi bilan mashhur bo'lib, sug'd, turkiy run, arab va uyg'ur yozuvlaridagi bitiklardir. M. Koshg'ariy uyg'ur yozuvi haqida : ... barcha xoqonlar va sultonlarning kitoblari, yozuvlari qadimgi zamonlardan shu kungacha Qashqardan Chingacha hamma turk shaharlarida shu yozuv bilan yuritiladi", - deb yozgan edi. Bu yozuv hatto arab yozuvi bilan yonma – yon holda XV asrgacha, Xitoydagi uyg'urlar orasida esa keyingi asrlarda ham iste'molda edi. U so'g'd yozuvi asosida shakllangan bo'lib, unda 18 ta harf bor. Uyg'ur yozuvi o'ngdan chapga qarab yozilgan. Mazkur yozuvda buddaviy, moniy, xristian dinlariga oid axloqiy – ta'limiy asarlar, yuridik – huquqiy va moliyaviy hujjatlar saqlanib qolgan. X asrda Beshbaliq (Sharqiy Turkiston) shahrida yashagan Singku Seli Tutung "Oltin yorug'" asarini xitoy tilidan tarjima qilgan. Bu asar tarjimasi ham uyg'ur yozuvida bitilgan. Shuningdek, "O'g'uznoma", "Muhabbatnoma (Xorazmiy), "Ltofatnoma" (Xo'jandiy), "Mahzanul-asror" (Mir Haydar) va boshqa ko'pgina asarlarning uyg'ur yozuvdagi nusxalari ham mashhurdir.

O'rxun – Enasoy yodgorliklarining topilishi va o'rganilishi XVIII asrdan boshlanadi. Rus xizmatchisi Remezov, shved zobiti Ioann Strallenberg, olim Messerschmidt yodgorliklarni Yevropa ilm ahliga taqdim qilgan edilar. Daniyalik olim Vilgelm Tomson va rus olimi V. Radlovlar yodgorliklaridagi barcha harflarini o'qidilar. Yodgorliklarni butun dunyo turkiyshunoslari ilmiy jihatdan o'rganmoqda. V. Tomson va Radlovlarda keyin S. Y. Malov, S. Y. Klyashtorning I. V. Stebleva, X. O'rxun, T. Tekin, Najip Osin, G. Aydarov o'zbek olimlaridan A. Ruastamov, R. Abdurahmonov, N. Rahmonovlar o'rganishgan. Runiy yozuvdagi yodgorliklar faqat toshga bitilgan emas. Bu yodgorliklar o'zbek tiliga bir necha marotaba o'girilgan. A. P. Qayumov "Qadimiyat obidalarini" kitobida, G' Abdurahmonov va A. Rustamovlar "Qadimgi turkiy til" kitoblarida o'sha yodgorliklardan namunalar keltirishgan. Ularning qog'ozga turli buyumlarga yozilgan namunalari ham bor. Run yozuvlari Talas vodiysidan ham topilgan. U hozirgi Avliyoota va Tarozi shahri yaqinida bo'lgan qoyalardagi yozuvlardir. Shuningdek, kumush ko'zalarga yozilgan runiy yozuvlar Sibir o'lkasidan ham topilgan. Ermitaj (Sankt – Peterburg) da saqlanayotgan 2 ta ko'zacha shu haqida ma'lumot beradi. Minusinsk muzeyida esa teriga yozilgan runiy bitiklar mavjud. Oyna, qayish to'qasi, qog'ozga yozilgan boshqa runiy yozuvlar ham ko'pdir. Turfon (Sharqiy Turkiston) dan Le Kok tomonidan topilgan runiy yozuvlar orasida eski fors tilidagi bitiklar ham mavjud. Vena (Avstriya) muzeyida saqlanayotgan oltin idish-tovoqlarda ham runiy yozuvdagi yodgorliklar bo'lib, ular bajnoq (pecheneg) tilida yozilgan. Yog'ochga yozilgan run bitiklari Ermitajda saqlanadi. O'rxun – Enasoy obidalarida nasr usuli yetakchilik qilib, ular syujetning o'ziga xos shakliga ega, tasvirdan ko'ra bayonchilik yetakchilik qiladi. Bitiktoshlarning asosiy mavzusi vatanparvarlik va qahramonlikdir. Qahramonlar ichki olami

ularning ruhiy dunyosi tasviri hali ancha sodda tarzda namoyon bo'ladi. Bu mavjud an'analar hamda ijodiy tajribalarning o'sha davralardagi holati bilan izohlanadi. Qadimgi turkiy she'riyat asosida barmoq vaznida bitilgan. She'rlarda so'zlar takrori asosiy o'rin turib, bandlarning rang – barangligi ko'zga tashlanadi. Qofiyalarda fe'l so'z turkumiga oid so'zlar ko'proq uchraydi, bu turkiy tilining gap qurilishiga bog'liq. Keyingi asrlarda qadimgi an'analarning yangicha shakl va usullarda namoyon bo'lishini kuzatish mumkin.

Eramizdan oldingi V asr oxiri va VI asr boshlarida yashagan Ktesiy (430 – 354 yillar) ham bir rivoyatni yozib qoldirgan. Uning ma'lumotlari tarixchi Apellodor (er. Avv. I asr) ning "Tarixiy kutubxona" asari orqali yetib kelgan. Bayondan ko'rinishicha, "Zarina va Stryaingiya" rivoyatining mazmuni "To'maris" rivoyatiga yaqin keladi. Eramizdan avvalgi IV asrda yashagan tarixchi Xores Mitilienskiy orqali "Zariadr va Odatida" afsonasi yetib kelgan. O'z tarjimalari bilan turkiy adabiyotga hissa qo'shgan adib Singku Seli Tutung bo'lib, u "Oltin yorug'" asarini nasriy usulda xitoy tilidan tarjima qilgan. Bu asar X asrda Beshbaliqda yaratilgan. Bizgacha Aprinchur Tegin, Kul Tarxon, Singku Seli Tutung, Pratyia – Shiri, Asig Tutung, Chusuya Tutung, Kalim Keysi, Chuchu, Yo'llug' Tegin kabi qadimgi ijodkorlarning nomlari yetib kelgan. Bulardan Aprinchur Teginning she'rlari Turfon matnlari orasida mavjud bo'lib, u moniylik dini g'oyalarini ifodalaydi. Uning "Bizning tengrimiz..." deb boshlanuvchi she'ri 12 misradan iborat bo'lib, to'rtliklar shaklidir. Eng qadimgi she'riy asarlar muayyan urf – odatlar, marosim va e'tiqodlarga bog'liq holda yaratilgan. Masalan, "Tong tangrisiga madhiya" deb nomlanuvchi she'r qadimgi she'riyatning o'ziga xos namunasi bo'lib, unda so'zlar takrori yetakchi mavqe tutadi.

"Avesto"

"Avesto" O'rta Osiyo xalqlarining mushtarak yodgorligidir. Avestoda ham turkey, ham eroniy xalqlar dunyoqarashi, urf-odatlari, yashash tarzlariga oid ma'lumotlar uchraydi. U zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lib, undagi ma'lumotlarning qadimgi qismlari miloddan avvalgi 2000-1000 yillarga taalluqlidir. Ular "Gotlar" va "Yasht"lar deb nomlangan. Beruniy (973-1048 y) "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida: "Podshoh Doro ibn Doro xazinasida "Avesto"ning 12 ming qoramol terisiga tilla bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarni vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtda uni yondirib yubordi. Shuning uchun o'sha vaqtdan buyon "Avesto"ning beshdan uch qismi yo'qolib ketdi. "Avesto" o'ttiz "nask" edi. Majusiylar qo'lida o'n ikki nask chamasi qoldi. Biz Qur'on bo'laklarini haftiyaklar deganimizdek, nask "Avesto" bo'laklaridan har bir bo'lakning nomidir" deb ma'lumot bergan. "Avesto" o'sha davrlar tarixi, fan, madaniyati haqida ma'lumot beruvchi qomusiy asar bo'lib, pahlaviy tiliga tarjima qilingan va unga sharhlar yozilgan. Uning qisqartirilgan nusxasi "Zand Avesto" nomi bilan mashhur. "Avesto"da olam ikki

asos, ya'ni yorug'lik va zulmat, yaxshilik va yomonlikning kurashidan iborat, deb izohlanadi. Yaxshilik va ezgulik xudosi Axuramazda (Hurmuzd) bo'lib, u yomonlik xudosi yovuzlik ramzi Ahriman bilan kurashadi. "Avesto"da yozilishicha, zardushtiylikda qo'riq yer ochib, bog-roq qilgan odam ilohiyot rahmatiga erishadi. Yaxshilik va yovuzlik o'rtasidagi kurash 3-4 ming yillardan so'ng adolat, ezgulik g'alabasi bilan tugaydi. Yerga osmondan uch soshyanta farishta tushadi va insoniyatni yomonliklardan qutqaradi. Uchinchi farishta tushganda qiyomat – qoyim bo'lib, barcha o'lganlar tiriladi. Xurmuzd va uning farishtasi yovuz ruh – Ahrimanni qaynab turgan ma'fanga tashlaydilar. "Avesto"da ifodalangan zardushtiylik diniga ko'ra, odam vafot etgach, to'rtinchi kuni Tangri farishtasi Surush (farishta Jabroyilning boshqacha nomi) uning ruhini Chinvod qil ko'prigiga olib keladi. Yaxshiliklari ko'p bo'lgan odam qil ko'prikdan o'tib, jannat bog'lariga kiradi. Gunohkorlar do'zaxga boshlovchi dev Vizrash ixtiyoriga topshiriladi. "Avesto" ta'limotiga ko'ra, yaxshilik qiluvchi odam pokizalik urug'larini ekadi, bu yaxshilik urug'lari iymonni oziqlantiradi. Yaxshilik qilmay, jabr-zulm qiluvchilar iymonsiz, do'zaxiy odamlardir. Yaxshilik va yomonlik kuchlari o'rtasidagi kurash Mitra, Anahita, Qayumars, Yima (Jamshid), Gershaps, Elibek va boshqa obrazlarda mujassamlashtirilgan. "Avesto"ni o'zbek tiliga birinchi bo'lib tarjima qilgan shoir Asqar Mahkamovning xizmatlari tahsinga sazovordir.

O'rxun – Enasoy yodgorliklari

Tunyuquq bitigtoshi. Bu bitigtosh 2 ta ustunga yozilgan bo'lib, ulardan biri 170? Ikkinchisi 160 smdan iborat. Bu yodgorlikni 1897 yilda Yelizaveta va Dmitriy Klementslar tomonidan Shimoliy Mo'g'ulistondan topilgan. Bitigtosh Ulan – Batordan 66 km janubi-sharqdagi Bain Sokto manzilida bo'lgan va hozir ham shu yerda saqlanadi. Ushbu asar 712-716 yillarda toshga o'yib yozilgan.

Tunyuquq shaxs nomi. U ikkinchi turk xoqonligiga asos slogan Eltarish xoqonning maslahatchisi va sarkardasi bo'lgan. Tunyuquq Ashida urug'idan bo'lib, farovonligi, yurt osoyishtaligi va chegaralar daxlsizligi uchun tinimsiz kurash olib borgan. Uning ana shu kurashlari maxus toshlarga o'yib yozilgan. Bu bitiktoshda voqealar Tunyuquqning tilidan hikoya qilingan. Tunyuquq "Turk Bilga xoqon davlatida bu bitigin yozdirdim" deydi. Bilga xoqon Eltarish xoqonning o'g'li edi. Mustamlaka azobi, o'zga xalq tahqiri yodgorlikda qisqa va lo'nda, ammo nihoyatda ta'sirchan tarzda ifodalanadi: " ... Tabg'achga taslim bo'lganligi uchun tangri, o'l degan shekilli, turk xalqi o'ldi, yo'q bo'ldi, tugadi. Turk Sir xalqi yerida birorta urug' qolmadi. Yodgorlikda Tunyuquq xalq yetakchisi, dono maslahatchi, kuchli va botir sarkarda sifatida namoyon bo'ladi. U 700 kishini birlashtirib, "shad" degan unvon oladi. Tunyuquq shaxsiyatida tavakkalchilik, dovyuraklik, jasorat, jur'at, ba'zan nihoyatda keskinlik, cho'rtkesarlik, ayni vaqtda bosiqlik, vazminlik xislatlari aniq ko'rinib turadi. U vatanparvar shaxs timsolidir. Tunyuquqning o'z vatani, xoqoni, qo'shini, xalqi bilan faxrlanishi, ularning borligidan o'zini baxtiyor sezishi yodgorlik matniga puxta singdirilgan. Hatto

dushmanning “Xoqoni bahodir emas ekan, maslahatchisi alloma ekan” degan bahosida ham shu ruh mavjud. Tunyuquqning xotirjamligi esa “Xalqning tomog’I to’q edi” jumlasini orqali ifodalangan. Dushmanning turkiylar ustiga hujum uyushtirish haqidagi yovuz niyatini eshitgan Tunyuquqning “O’sha gapni eshitib, tun uxlagim kelmadi, kunduz o’tirgim kelmadi”, deyishi uning taqdirini xalq va yurt taqdiri bilan naqadar yaxlit holda tasavvur qilishini ko’rsatib turibdi. Tunyuquq iftixoridagi eng asosiy nuqta shunday ifodalanadi: “Bu turk xalqiga qurolli dushmanni keltirmadim, yalovli otni yugurtirmadim”. Bu obida vatan haqidagi madhiyadir. Unda murojaat, undov, chaqiriq yetakchilik qilib, o’ziga xos boshlanma, voqealar rivoji, xotima mavjud. Asarda oltinga “sariq”, kumushga “oq”, tuyaga “egri” singari epitetlar – sifatlashlar qo’llangan. Undagi eng ko’p qo’llangan badiiy tasvir vositasi alliteratsiyadir.

Kul Tigin bitigtoshi. Bu bitigtosh Eltarish xoqonning o’g’li Bilga xoqonning inisi Kul Tigin sharafiga qo’yilgan. “Kul Tigin” bitigtoshi marmardan ishlangan, balandligi 3 m, 15 sm, qalinligi 41 sm, tub qismi 1 m, 24 sm bo’lib, yuqoriga tomon torayib brogan. Yozuvlar o’ngdan chapga va yuqoridan pastga qarab bitilgan. Boshqa barcha bitigtoshlardan faqatli ravishda uni yozgan muallif nomi bizgacha yetib kelgan. Bu Yo’llug’tegindir. Yo’llug’tegin turk xalqlarining nomi saqlanib qolgan eng qadimiy yozuvchilardan biri bo’lgan. Bu bitigtosh 732 yil marmardan ishlangan bo’lib, 1889 yil N.M.Yadrinstev tomonidan Mo’g’ulistonning Kosho Saydam vodiysidagi Ko’kshin O’rxun daryosi qirg’og’idan topilgan. U Ulan-Batordan 400 km janubda Qora Bolasog’un shahri xarobalaridan 40 km shimolda joylashgan. Bitiktosh Kul Tigin qahramonliklarini, uning vatan, ona yurt oldidagi buyuk xizmatlarini sharaflashga qaratilgan.

Bitikdagi parchalar: “... Tarbiyat qilgan xoqonning so’zini olmayin har yerga ketding. U yerlarda butunlay g’oyib bo’lding, nom-nishonsiz ketding....

Bilga xoqon bitiktoshi. Bu bitiktoshni ham N.M.Yadrinstev topgan. U Kul tigin bitiktoshidan 1 km janubi-g’arbga o’rnatilgan. Uning bo’yi 3 m 45 sm, eni 1 m 72 sm, qalinligi 72 sm. Bu bitiktosh 80 satrdan iborat. Unda “Kultigin” bitigtoshidagi 41 satr takrorlangan. “Bilga xoqon” bitigi ham Yo’llug’tegin qalamiga mansub bo’lib, unda ham qahramonlik va vatanparvarlik g’oyasini ulug’lash asosiy o’rin tutadi. Bitikdagi voqealar Bilga xoqonning yoshiga bog’liq holda davriy izchillikda ifodalangan. Qahramon 17, 18, 22, 26, 27, 30, 31, 33, 34, 40 yoshidagi voqealarni eslatadi. Voqealar Bilga xoqonning 17 yoshida Tang’ut taraflarga lashkar tortishi bilan boshlanadi. Mana g’alaba ifodasi: “Tang’ut xalqini yengdim, o’g’lini, bor narsasini, yilqisini, mol-mulkini oldim”. Bu Bilga xoqonning dastlabki g’alabasi edi. Matn mavzusi harbiy sohaga aloqador. Ushbu obidada parallelizm, qiyoslashlar, so’zlar takrori asosiy o’rin tutadi. Bitiktoshdagi voqealar tizimini shunday

	guruhlash	mumkin:
1. Qahramonning	muayyan	yoshi;

2.Voqea	sodir	bo'lgan	joy;
3.Voqeaning			mohiyati;
4.Natija.			

Irq bitigi ("Ta'birnoma"). Bu bitik she'riy usulda bo'lib runiy yozuvda qog'ozga yozilgan. Uni vengr olimi A. Steyn Sharqiy Turkistondagi Dunxua manzilidan 1907 yilda topgan.

Bitikda		parchalar:		
Quzg'unni		daraxtga		bog'ladi.
"Qattiq	bog'la,	yaxshiroq	bog'la",	deyishadi.
Bilib	qo'ying:	bu	—	yomon.
"Yigit	lochin	patina	qo'lga	kiritdi,
Patli	qalpog'ing	qutlug'	bo'lsin",	deyishdi.
Bilib	qo'ying:	bu	—	yaxshi.
"Men	—	kiyik		o'g'liman,
O'tsiz,	suvsiz	qanday		yashayman?
Qanday		yuraman?",		deydi.
Bilib	qo'ying:	bu	—	yomon.
Yuqorida		osmon		eshitdi,
Pastda	inson	xabar		topdi.
Men	shunday	kuchliman,		deydi.
Bilib qo'ying:	bu — yaxshi.			

Ongin bitigi. Mo'g'ulistonning Kosho Saydan vodiysidan topilgan. Kimga atalganligi aniq ma'lum emas. Ba'zi fikrlarga qaraganda, Eltarish xoqon va uning xotini Elbiyga xotun sharafiga qo'yilgan (735 yil); boshqa fikrga ko'ra Qopag'on xoqonga (691-716), yana boshqa bir ma'lumotga (J.Klonson) qaraganda Bilga xoqonning harbiy boshliqlaridan Alp Eletmish (taxminan 731 yilda o'lgan) sharafiga qo'yilgan. Obida 1892 yilda V.V. Radlov va 1957 yil J.Klonson tomonidan (inglizcha tarjimai va tadqiqot bilan) nashr qilingan.

To'maris afsonasi.

To'maris O'rta Osiyo aholisining chet el bosqinchilari tajovuziga qarshi olib borgan mardona kurashining badiiy ifodasidir. Eposning bu janri tarixiy afsona deb ataladi. To'maris afsonasidagi voqealar O'kuz (hozirgi Amudaryo) daryosi

qirg'oqlarida ro'y bergan. Eramizdan avvalgi VI asrda bir necha mamlakatlarni istilo qilgan ahamoniylar (Eron) shohi Kir (Kirovush) O'rta Osiyoga bostirib kiradi. O'rta Osiyo aholisi, ayniqsa, To'maris boshchiligidagi massaget qabilalari Kirga qarshi mardona kurash olib boradilar. Kir qo'shini yengiladi va uning o'zi 529 yilda jang maydonida o'ldiriladi. Shu voqealar tarixiy afsona "To'maris" eposining mazmunini tashkil etadi. Afsuski, bu asarning asli bizgacha yetib kelmagan; uning mazmuni yunon tarixchisi Gerodotning "Taqix" kitobi orqali yetib kelgan. To'maris bizgacha yetib kelgan afsonalar orasidagi eng qadimgi ayollar tasviridir. Atoqli olim Fozila Sulaymonova yunonlar To'maris deb atagan bu qahramonni Tumor deb nomladi. Mirkarim Osim qadimgi afsonani qayta ishlash asosida shu nomli hikoyasini yaratgan. Uning shu nomli hikoyasi to'y tasviridan boshlanadi. Afsonada Kirning Krez ismli maslahatchisi dono bo'lib, shohga: "Xotin kishidan yengilsang, chidab bo'lmas nomusga qolasan" degan gaplarni aytadi va hiyla ishlatishga chaqiradi. Bu hiyla natijasida To'aris farzandidan ayrilsa ham, Kir qo's'inini yengadi.

O'zbek xalq og'zaki ijodiga mansub "Oysuluv" dostonida "To'maris"ning o'ziga xos aks – sadolari mavjud.

Afsona qahramonlari: To'maris (M.Osimning shu nomli hikoyasida To'maris "Agar elchi bo'lmaganingizda, shul gapni aytgan og'zingizni qum bilan to'ldirar edim. Boshimizdan zar sochganlaringda ham biz erkinlikni qullikka alishtirmaymiz" deydi. Elchi malikani Eron shohining hayoti bilan solishtiradi: "Shuyam malika bo'ldi-yu, o'z fuqarolari bilan yonma – yon o'tirib ovqat yeydi, sochlari o'sib yelkasiga tushgan, yilqichilar qo'l cho'zib, uning oldidan yog'liq go'shtni olib yeydilar, na ostida oltin taxta bor va na boshda toji"), uning o'g'li Sparganis (Sparangiz), Kir (Kayxisrav), Kirning maslahatchisi Krez, Kirning o'g'li Kambiz, eronlik asir chol va boshqalar.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 20 Fevral 2008, 11:40:38**

Shiroq

"Shiroq" ham tarixiy voqelik zaminida vujudga kelgan qadimgi afsonadir. Shiroq – Vatan uchun jonini bergan qahramonlarning eng dastlabkisidir. Eron shohi Doro I (522-486) O'rta Osiyoga bostirib kiradi va bu yerdagi qabilalarni talashni davom ettiradi. O'rta osiyoda yashagan qabilalar o'z mustaqilliklarini tiklash uchun Doroga qarshi qattiq kurash olib boradilar. Masalan, 513 yilda Sak (shak) qabilalari katta qo'zg'olon ko'targan. Shu kurash "Shiroq" afsonasiga asos bo'ldi. Bu asarning asli saqlanib qolmagan, uning mazmuni yunon tarixchisi Polienning (er. Avv. II asr) "Harbiy hiylalar" kitobida bayon qilinadi. Afsonada cho'pon yigit Shiroq hiyla ishlatib Doro (Daryavush) qo'shinini halok qiladi va o'zi ham qurbon bo'ladi. Hikoya bosh qahramoni Shiroq timsolida o'z vataniga sadoqat, yuksak vatanparvarlik tarannum etilgan. Mirkarim Osim Shiroq obrazini badiiy ta'sirchan qilib tasvirlashga erishgan, Shiroq haqidagi yana Yavdot Ilyosov "Xolxol o'lim"

qissasini, Mirmuhsin “Shiroq” dostonini, Sparetri haqida Mahkam Mahmud “Shaklar malikasi” hikoyasini yozgan.

Afsona qahramonlari: cho’pon yigit Shiroq, yurt oqsoqollari: Rustak (uning nomi Sug’diyada ham, Eronda ham mashhur edi), Omarg, Saksfar, To’maris, Eron shohi Doro, uning sarkardasi Ranosbat va boshqalar.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo’natildi: **Robiya dan 27 Fevral 2008, 10:01:41**

"Alpomish"

Mashhur Go’ro’g’li turkumidagi 40 dan ortiq dostonlardan biri “Alpomish”dostonidir. Bu dostoning Fozil Yo’ldosh o’g’li ijrosidagi nusxasini 1927-28 yillarda Mahmud Zaripov Xodi Zaripov rahbarligida yozib olgan. Mazkur doston tuzilishiga ko’ra yirik xajmli ikki qismdan iborat. Olimlarning tasdiqlashiga, “Alpomish”dostoni X-XI asrlarda yaratilgan.

Doston Qo’ng’irot urug’i boshliqlari, Alpinbiyning o’g’illari aka-uka Bo’yo’ri va Boysarilarning farzandsizligi bilan boshlanadi. Unda aka-ukalarning Shoximardon pir maqbarasida 40 kun chilla saqlashi, pirning “Bo’yo’ri senga xudoim bir o’g’il, bir qiz berdi, yolg’iz emas, egiz berdi; Boysari, senga xudoim bir qiz berdi... Bundan borsang, farzandlarni ko’rsang, xaloyiqlarni yig’sang, to’y-tomoshalar bersang, to’yda qalandar bo’lib borib, bolalarning otini o’zim qo’yib kelaman “ –deya xabar berishi, bo’lajak qahramonlar Alpomish (Hakimbek) va Barchinlarning ajoyib-g’aroyib holatlarda tug’ilishi, Alpomishning bahodirona yoshligi (7 yoshida bobosidan qolgan o’n to’rt botmon birichdan bo’lgan yoyini olib otganda Asqar tog’ining cho’qqilarini yulib o’tishi), Boysarini Boybo’ridan arazlab qalmoq eliga ko’chishi (zakot talab qilingan uchun), Qalmoq shoxi Toychihon Bosarini dehqonchilik qilinadigan yerlarning payhon qilingan uchun jazolamoqchi bo’lgani, Alpomishni Barchinni olib kelish uchun qalmoq eliga borishi va Murottepada Qorajon bilan tanishib, do’st tutinishi, Surhail kampirning yetti alp o’g’lonlari bo’lgan Ko’kaldosh (kattasi, Alpomishning Boychibor otini ko’rib, o’zidan g’olib kelishini bilib, vahm bosib, yemini yemay qo’ygan Ko’kdo’pan tulpor uniki edi. Ko’kaldosh “o’zbekning otini maqtading” deb qalmoq sinchining ko’zini o’yib olgan), Ko’kaman, Ko’kqashqa, Boyqashqa, Toyqashqa, Qo’shquloq (“Shomurta shohalab, har yoqqa ketgan, Ichida sichqonlar bolalab yotgan, Izdan tushgan pishak oltoyda yetgan” polvon), Qorajonlar bilan yonma-yon turib, Barchinning poyga, yoy tortish, merganlik va kurash kabi shartlarini bajarishi va yorini o’z eliga olib kelishi, qaynotasi Boysarini qutqarish uchun ikkinchi marta qalmoq eliga borganda, yetti yil zindonda qolishi, asirlikdan oti Boychibor yordamida qutulib, zindondan chiqqanda “Yigit piri Shoximardon, Madad bersa sheri Yazdon. Tilarmon qodir xudodan, Bu maydonda bergin omon...” –deya niyat qilib o’z eliga kelishi va dushmanlarini yengishi voqealari tasvirlanadi.

“Alpomish”dostonining 1000 yilligi 1999 yil noyabrda Termizda nishonlanadi.

Shoir va dramaturg Sobir Abdulla xalq og'zaki ijodi materiallari asosida "Alpomish peyisasini yaratgan".

Dostonning boshqa qahramonlari: Alpomish singlisi –Qaldirg'och (Alpomishga qarata "Bir qulga kuching yetmadimi?"deya uyaltirib,Alpomishni Barchinni qutqarishga undagan),Qultoy (Alpomish Boysunga qaytganda, uning tanasidagi panja izlariga qarab tanib olgan),Qayqubot (Alpomishga yordam bergan),Yartiboy (Yortiboy ,"Maslahat bermaymiz Boysariboyga,Osilmaymiz Boybo'ring doriga ",deb aytgan),qalmoq shoxi Toychahon (Boychiborning oyog'iga temir parchin urib, bo'yniga cho'yandan gul solib,yetti yil azobda saqlagan),uning qizi Tovka oyim (Alpomishga qarata "Sizga qurbon bu mening shirin jonim ,Zindon ichida g'arib bo'lgan mehmonim ,CH oh ichida ko'rib turaman, Zindondan chiqarsam nimam bo'lasan? "-degan,Alpomish bergan isiriq –nishonni tutatib, Boychiborning ozod bo'lishiga ko'maklashgan), Qoranor tuya, g'oz va boshqalar.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 05 Mart 2008, 10:43:53**

"Ravshan" dostoni

"Ravshan" g'oyaviy-badiiy pishiq ishqiy –sarguzasht dostonidir. U 1927 yilda birinchi bo'lib, Hodi Zarif tomonidan Ergash Jumanbulbul o'g'lidan yozib olingan va 1941 yilda nashr ettirilgan. Ergash shoir "Ravshan"ni otasi Jumanbulbuldan, u esa ustoz Kichik Bo'rondan o'rgangan. Bu doston ham "Go'ro'g'li" turkumiga mansub. "Ravshan" pok va samimiy muhabbatni kuylovchi maqsadga erishish yo'lida mardlik va botirlikni ulug'lovchi, zulm va adolatsizlikni qoralovchi asardir. Uning qisqacha mazmuni quyidagichadir: "Go'ro'g'libek Chambil yurtida Yunus bilan Misqol parinmi Ko'hi Qofdan, Eram bogidan keltirib, umr o'tkazar edi. Unga Xudo farzand bermaydi, shuning uchun Hasanxonni Vayangandan, Avazxonni Xunxordan olib kelib o'g'il qiladi. Hasanxon Arzirumdan xon Dallini olib kelib uylanadi va o'g'il ko'radi. Unga Ravshan deb ism qo'yadilar. Avazxonga Gulqiz degan suluvni olib berishadi va qizli bo'ladi, ismini Gulnor qo'yadi. Ikki asrandi o'g'ilni tarbiyalab olgan Go'ro'g'li Avazxon bilan Hasanxonni quda qilmoqchi bo'ladi, lekin Avazxon rad etadi. Bu so'zlarni eshik ortida eshitib turgan Ravshan qattiq xafa bo'lib, buvisi Yunus pari oldiga borganda ovunsin deb buvisi qo'llidagi uzukni beradi. Ravshan uzukdagi go'zal bir qizning suratini va "Zulxumor" degan yozuvni ko'rib, bu qizga oshiq bo'lib qoladi. Jiyronqush degan tulpor otini minib, Shirvon yurtiga yo'l oladi. Shirvon bozorini aylanib, "telpak bozori qaydadir" deb yuradi. Bozordagi ko'shkning ustida yuzini ochib o'tiradigan Zulxumorning husni jamolini ko'rish uchun yigitlar bir la'li tillani ko'rmana berishadi. Ravshanning gul tagida pisib o'tirganidan qo'rqib ketgan qizlar qiy-chuv qilishib, Zulxumorning yoniga

borishadi. Zulxumor Oqqiz degan kanizini yigit kim, qayerlik ekani, nimaga kelganini so'rab, ko'rmanasini olib kelishga yuboradi. Ravshan tillasi yo'qligi uchun Yunus pari bergan sehrli uzukni berib yuboradi. Zulxumor unda o'zining ismi va suratini ko'radi. Bir necha kunni Ravshanbek Zulxumor bilan shod-xurram o'tkazadi. Ravshanga ko'p iltifot qilsa-da, uning e'tiborini qozona olmagan Oqqiz alamidan Zulxumorning bog'ida bolayotgan voqealarni onasiga aytib beradi. Onasi hamma gapni Qozonxonga yetkazadi. Yosh va tajribasizligi, oqko'ngilligi tufayli band etilib, zindonga tashlangan Ravshandan Zulxumor yashirincha xabar olib turadi. Ravshanga 40 kun muhlat beriladi. Zulxumor mayna qushi orqali maktub yo'llaydi. Mayna Chambilga yetadi, avval Hasanxonning tomiga tushadi, nola-afg'on qilib yurgan Dallini ko'rib, ayolning Ravshanni onasi ekanligini fahmlab, qattiq sayraydi-da, uning qo'liga kelib qo'nadi. Hamma voqeadan xabar topgan Go'ro'g'li tarbiyasini olgan dongdor polvon, sherday haybatli, g'ayratli Hasanxon Go'ro'g'lining G'irko'k (G'irot) otida ikki oylik yo'lni yigirma kunda bosib o'tib, Ravshan osiladigan kun Shirvonga yetib keladi. Uni birinchi bo'lib Jaynoq kal taniydi. Hasanxon zolim Qoraxon lashkariga qarshi jang qilib, shirvonlik og'a-ini botirlar – Aynoq (polvon, “ot, tuya, arava ko'tarolmas edi. Doim bir yoqqa ko'chirmoqchi bo'lsa, piyoda ketar edi..”), Jaynoq (masxaraboz, “har tusli bo'la berar edi. Agar birovni aldamoqchi bo'lsa, har tusli bo'lganida o'zining jo'ralari ham tanimas edi”), Tersak kal (sinchi, “yilqining tulporini suyagidan tanir edi, qilichning o'tkirini qinidan bilar edi”), Ersak (mergan, “oqshomlari kamonni qo'liga olsa, qushni ko'zidan urar edi”)lar ko'magida Qoraxonni yengadi, o'g'lini o'limdan qutqaradi. Hasanxon Zulxumorni Ravshanga nikoh qilib beradi, Shirvon shahriga Aynoqni podsho, ukalarini vazir, mahram qilib qaytadi”.

Dostondagi Ravshan, Zulxumor, Hasanxonlar bosh obrazlar bo'lsa, shirvonlik kampir-ena, aka-uka kallar, Oqqiz, uning Maston onasi epizodik obrazlardir.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 12 Mart 2008, 10:41:21**

Kuntug'mish

dostoni.

Kuntug'mish dostoni ham ishqiy-qahramonlik dostonlaridan biridir. Dostonning qisqacha mazmuni quyidagicha:

“Do'rman viloyatining Kuntug'mish degan polvoni bo'lib, uning Oltinoy degan singlisi bor edi.

Zangar degan shahar podshosi Buvraxonning ikkita vaziri bor edi: Shoir vazir va Toir vazir. Kunlardan bir kuni Shoir vazir qizli bo'ladi, ismini Xolbeka deb qo'yadi, Toir vazir o'g'illi bo'lib, ismini Xolmo'min deb qo'yadi. Xolmo'minning onasi o'lib, ikkala farzandni Xolbekaoning onasi emizib, katta qiladi, ular emikdosh (ko'kaldosh) bo'lib qoladilar. Xolbeka o'n to'rt yoshdan o'tgandan so'ng uning husnu zeboligini eshitgan podshohlar va xonzodalar sovchi qo'yadilar. Xolbeka shart qo'yadi: “Har kimki meni olaman deb kelsa, nard o'yinini qo'yaman, yutsa tegaman”. Hech kim uni yengolmaydi. Podsho Buvraxon ham sovchi yuboradi,

Xolbeka o'z gapida turib oladi. Buvraxon a'yonlarining maslahatiga ko'ra, qizning baxtini bog'lab, Xolbeka degan ismni aytishni ta'qiqlab qo'yadi.

Bir kuni Xolbeka tushida Kuntug'mishni, Kuntug'mish Xolbekani ko'rib, bir-birlarini sevib qoladilar. Xolbeka dardini Bahragul degan kaniziga aytadi. Kanizi suratkash olib kelgach, Xolbeka o'z suratini chizdiradi. Sirti tilla bilan qoplangan sandiqqa suratini, bir tola sochini, arzi yozilgan qog'ozni solib, uni qulflab, kalitini sandiqqa bog'lab, daryoga oqizadi. Kuntug'mish qirq yigiti bilan daryoning yoqasida ov qilib yurganda, sandiqni ko'rib qoladi. Yigitlari sandiqning "tashini", Kuntug'mish ichidagini oladi. Kuntug'mish sandiq ichidagini ko'rib, bir ishqiga yuz ishq qo'shiladi. Xolbekaoning ishqida Zangar sari otlanadi. Zangarda Kuntug'mish Xolbekaoning nomini aytib baqirib yurganda bir kampirga duch keladi. Bu kampir podshoning o'g'liga katta qizini bergan edi. U qizi Zamongul (Gulzamon) ni Kuntug'mishga ro'para qiladi. Sevgilisining suratini ko'rgan yigit soxta Xolbekani qabul qilmaydi. Zamongul Kuntug'mishni asl Xolbekaoning yoniga olib borishga majbur bo'ladi. Kuntug'mish savdogar qiyofasida borib, Xolbekani nard o'yinida yengadi. Xolbeka "mening shartimni bajo keltirding, men seniki bo'ldim" deya ziyofat qilaveribdi. Podsho Xolbekaga "Har kun tong vaqtdan kichik choshkaga dovur ko'shkiga chiqsin, yuzidan niqobini olsin, olamni tomosha qilsin" – deb aytgan edi. Xolbeka uch kun ko'shkiga chiqmagach, podsho 200 jallod, 400 mirg'azabiga Xolbekadan xabar olishni buyuradi. Qirq ko'shk ichkima-ichki bo'lib, bir tarafi Xolbekaoning ko'shki edi. Podshoning mirg'azablari kelayotganidan xabar topgan Kuntug'mish va Xolbeka o'zlarini ko'shkdan tashlab qochadilar va dastlab kampirnikiga, keyin esa podsho somonxonasiga bekinadilar. Lekin Zamonqulning axmoqligi, podsho miroxo'ring chaquvi natijasida qo'lga tushadilar. Podsho buyurib, bir tuyani so'yib, tulup (so'yilgan jonliqning terisini buzmay shilib olish) qilib, ikkovini zich qilib, xom teriga tiqib, bir asov baytalning dumiga bog'lab, bir cho'l jaziramaga haydab yuboradilar. Olti oy deganda ular otdan uzilib, bir quzg'un bahona balodan qutulib, Mug'oltoqqa kelishadi va birga hayot kechirib, egiz o'g'illi bo'ladilar. Zangarlik bir savdogar Azbarxo'ja non beraman deb, Kuntug'mishni ajdarga qarshi yo'llaydi. Kuntug'mish ajdarni o'ldirgach, ular do'st tutinadilar. Azbarxo'ja do'stining xotini Xolbeka ekanligini bilib, do'stiga xiyonat qilib, uni mast qiladi va kigizga o'rab, ustidan tosh bostirib qo'yadi, Xolbekani Buvraxonga berish uchun bir o'g'lini baliq yutadi, birini bo'ri olib qochadi. Kuntug'mish nima qilarini bilmay yurganda, bir cho'ponga duch kelib, bor kechmishini aytib beradi. Cho'ponlar bo'ridan qutqarib olgan bolaga Gurkiboy, Olim sayyod baliq ichidan topgan bolaga Mohiboy deb nom beribdilar. Azbarxo'ja (Aldarxo'ja) Xolbekani Buvraxonga olib borgach, podsho uni zindonga tashlab, Xolbekani Xolmo'minga beradi. Bolalar esa bir-birini topadilar va taqdir taqozosi bilan Xolmo'minga ishlash uchun yollanadilar. Gurkiboy o'zining Kuntug'mish farzandi ekanligini cho'ponlar qo'shxonasida bilib olgan edi. Buvraxon vafot etgach, davlatqush uch marta kelib Kuntug'mishning boshiga qo'nadi, shuning uchun uni podsho qilib ko'taradilar. Ona va o'g'illar Xolmo'minning uyida topishadilar. Farzandlar onasining gapiga kirib, shahardan chiqib ketadilar. Yo'lda Mohiboy Gurkiboyning gapiga quloq solmay, yilqilarni quvib soladi, amaldorlarni kaltaklagani uchun dorga osishga buyuriladi.

Kuntug'mish ham bolalarni tanib, ota-ona va farzandlar topishadilar. Xolmo'minni Zangarga podsho qilib, Kuntug'mish ikki bolasi, qoshida Xolbeka yori bilan, qancha xizmatkor, kanizaklari bilan Do'rman eliga boradi, to'y-tomosha qilib, murod-maqsadiga yetadi.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 12 Mart 2008, 10:47:19**

Malika ayyor dostoni

Malika ayyor Go'ro'g'li turkumiga kiradigan ko'plab dostonlardan biridir. Asar baxshi Fozil Yo'ldosh tomonidan kuylangan. Doston an'anaviy ravishda muhabbat hangomalari, ishqiy sarguzashtlar bilan boshlangan va butun asar davomida sevgiga doir kechinmalar tasvirlangan bo'lsa-da, aslida unda imon-e'tiqod, or-nomus, insoniy iroda, topqirlik, chidam singari ezgu ma'naviy sifatlar hamda bunday fazilatlariga ega bo'lish uchun odam o'tishi zarur sinovlar tasvirlanadi. Bu dostonda qiyinchiliklarni yengib o'tishda Go'ro'g'li ko'proq yukni zimmasiga olgan bo'lsa-da, eng tahlikali sharoitlarda ham Shozargar va Avaz bilan birgalikda faoliyat ko'rsatganligi tasvirlanadi.

Doston qahramonlari: Go'ro'g'li (Shoqalandar), Avaz, Hasan (Shozargar), Malika ayyor, Qosimshoh, Tillaqiz, Gulqiz, Gulzamon, Shodmon va Asad mergan, Yaproqdev, Qizildev, Baymoqdev, Oqshoqdev va boshqalar.

Keyingi mavzu: VIII – XIV asr adabiyoti namoyondalari. VIII – XV asrning birinchi yarmi adabiyoti haqida.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 18 Mart 2008, 12:10:32**

10-Mavzu.	VIII-XIV	asr	adabiyoti	namoyondalari.
VIII-XV	asrning	birinchi	yarmi	adabiyoti haqida.

O'zbeklarning millat sifatida shakllanishi uzoq tarixga ega. O'zbeklar qadimgi turkiylarning avlodlaridir. Gerodot (mil.oldingi 490/480-430/424) Sharq qabilalari orasida turg'itoylar yoki Iskit yurtidagi turkiy (yurkey)lar haqida yozib qoldirgan. "Tavrot"da to'lxarmalar nomi zikr etilgan. Manbalarda xunlar deb nom olgan xalqlar ham turkiylarning qadim ajdodlaridir. Qadimgi Xitoy manbalarida tik, di, tukyu qabilalarining nomi qayd etilgan. Aslida bularning barchasi "turk" so'zining turlicha nomlaridir. "Turk" so'zi "qalpoq", "dubulg'a", "tark etgan", "yetuklik chog'i", "dengiz qirg'og'ida o'tirgan odam", "jazzb etmoq", "tarqalmoq",

“yoyilmoq”, “kuch-quvvat”, “bo’ri” ma’nolarini beradi.

Birinchi Ko’k turk hokimligi VI-VII asrlarda hukmronlik qilgan. Xoqonlik 535 yilda paydo bo’lgan. 630-680 yillarda Ko’k turklar davlatni qo’ldan berib qo’ygan. Buning bir qator sabablari O’rxun-Enasoy obidalarida qayd etilgan. Bular: 1) Keyingi davrlardagi hukmdor va boshliqlarning layoqatsizligi 2) Turkiy qavmlarning o’zaro noahilligi. 3) Tabg’och davlatining siyosati va ichdan yemiruvchi targ’ibot-tashviqot.

VI-VIII asrlar umumturkiy adabiyot degan atama mavjud. Bu davrlarda turkiylar yagona, mushtarak etnik qatlam sifatida

yashadilar. Savdo aloqalarining kengayishi turli tillar va yozuvlarning ham keng tarqalishiga sabab bo’ldi. Oromiy va yunon yozuvlari iste’molda bo’lib, keyinchalik oromiy yozuvi asosida shakllangan so’g’d va xorazmiy yozuvlari ham keng qo’llanila boshladi. Xorazmiy yozuvining eng qadimgi namunasi Qo’y qirilgan qal’adan topilgan bo’lib, eramizdan oldingi III asrga oiddir. So’g’d yozuvining yodgorligi esa Tali Barzu (So’g’d)dan topilgan sopol idish sinig’ida o’yib yozilgan bo’lib, eramizdan oldingi I asrga tegishli. Bu yozuv namunalarining II-III asrlarga oid obidaları Dunxuan (Sharqiy Turkiston)dan topilgan. Ularda Samarqandda yashagan ona va Dunxuanda turadigan qiz o’rtasidagi oilaviy turmush haqidagi yozishmalari ifodalangan.

X asr o’rtalarida Qoraxoniylar davlati tashkil topdi. Bu davrda madaniyat, ilm-fan va adabiyot rivojlandi. Turkiy adabiy til ham taraqqiy etdi. Qoraxoniylar davrida Mahmud Koshg’ariyning “Devonu lug’otit-turk”, Yusuf xos Hojibning “Qutadg’u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul-haqoyiq” asarlari yaratildi. Arablar bosqinidan so’ng Movarounnahrda ham islom qabul qilindi. Islomning asosiy aqida va g’oyalari muqaddas Qur’onda o’z ifodasini topgan. Qur’on 114 suradan iborat. Har sura oyatlariga bo’lingan. Har bir suraning alohida nomi bor. VIII-XII asrlarda madaniyat, ilm-fan o’ziga xos rivojlanish yo’liga o’tdi. O’rta Osiyo olimlari arab tili orqali dunyo ilm-faniga o’ziga xos rivojlanish yo’lini ochdilar. Abu Nasr Utbiy arab tilida “Tarixi Yaminii” asarini yozdi. Unda Sabuktagin hamda Mahmud G’aznaviy hukmronligi davriga oid ko’plab tarixchilaridan yana biri Abu Said Gardiziydir. Uning fors-tojik tilidagi “Zaynul-axbor” (“Xabarlar chiroyi”) kitobi mashhur. Shu davrda yashagan Abdul Fazl Bayhaqiy (996-1077) 30 jildidan iborat “Tarixi Mas’udiy” yoki “Tarixi Bayhaqiy” deb nomlangan asarni yaratadi. Bu asarda sulton Mahmud va uning o’g’li Mas’ud davri (1000-1050)da bo’lgan voqealar, Bag’dod xalifaligi, Misrdagi fotimiylar xalifaligi bilan bo’lgan munosabatlar, ijtimoiy va madaniy hayot, hokimiyat uchun kurashlar bayon qilingan. Mashhur qomusiy olimlarimizning ilmiy ijodlari, asosan arab tilida yozilgan. Ammo badiiy ijod uch tilda: turkiy, forsiy va arab tillarida davom etdi. Arab tilida ijod qilgan adiblar haqidagi to’liq ma’lumot Abu Mansur as-Saolobiyning “Yatimat ad-daxr fi mahosin ahl al-asr” (“Asr ahlining fozillari haqida zamonasining durdonasi”) asari orqali yetib kelgan.

Abu Mansur Abdumalik ibn Muhammad ibn Ismoil as-Saolibiy 350 (961) yili Nishopurda tug’ilgan va 429 (1038) yil shu yerda vafot etgan. U yirik olim (50dan ortiq asarlar muallifi), shoir va tarixchi edi. Uning yuqorida qayd etilgan asarining 4 qismida X-XI asrlarda yashagan 451 ta arab tilida ijod qilgan adib va yozuvchilar

haqida ma'lumotlar va ijodlaridan namunalar keltirilgan. 4-qismga esa 124 ta xurosonlik va movarounnahrlik shoir kiritilgan va ularning nasriy hamda nazmiy asarlaridan namunalar berilgan. Bu qismga 4160 baytga yaqin she'r kiritilgan. Ular qasida, vashf, hajv, marsiya, masnaviy, g'azal, urjuza janrlariga mansubdir.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 19 Mart 2008, 09:11:29**

Abu Nasr Asadi Tusiy (vafoti 1070 yil) Firdavsiy "Shohnoma"si izidan borib, "Gershapsnoma" dostonini yaratgan. U fors-tojik adabiyotidagi ilk yozma munozaralar muallifidir. Bular "Yer va osmon", "Kecha va kunduz", "Nayza va kamon", "Musulmon va kofir", "Arab va ajam"dir. Shuningdek, u fors tilining eng qadimgi izohli lug'atini ham yaratgan. Lug'atda 80ga yaqin o'sha davr shoirlarining she'rlaridan namunalar berilgan.

Adib Sobir Termiziy (taxminan, 1078-1148yy) yirik shoir bo'lgan. Uning otasi Ismoil Termiziy ham shoir bo'lgan. U Sulton Sanjar Saljuqi saroyida xizmat qilgan. Sulton uni Xorazm shohi Otsiz huzuriga yuboradi. Xorazmshoh uni josuslikda ayblab, 1148 yil Amudaryoga cho'ktirib yuboradi. "Devon"i qasida va g'azallardan iborat.

XI asr sharoitida Yusuf xos Hojib shoirlarni "so'z teruvchilar" deb ta'riflaydi. XIV asrda esa Sayfi Saroyi shoirlarni "so'z bulbuli" deydi. Navoiy shoirlarni "ruh chamanining xushxon bulbullari" deydi. Zero, so'z adiblarning o'z nazarlarida ham mo'tabar mavqega ega. XI asrda Yusuf xos Hojib boshlab bergan dostonchilik an'nasi keyinchalik Ahmad Yugnakiy, Sayfi Saroyi, Qutb, Haydar Xorazmiy kabi shoirlar ijodida davom ettirildi. Shu davrdan boshlab adabiyotda pand-nasihat, didaktik usuli yetakchilik qiladi.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 19 Mart 2008, 09:15:19**

"Hadis" arabcha so'z bo'lib, uning bir qator ma'nolari bor. Bular: 1) Yangi, yangi narsa, voqea; 2) So'z, hikoya, naql, rivoyat; 3) Muhammad payg'ambar yoki uning sahobalari haqida hikoya qiluvchi xabar yoki rivoyat. Hadislarni to'plab ularning haqiqiyliklarini aniqlash bilan shug'ullanuvchi olimlar muhaddis deyilgan. Imom Buxoriy, Muslim ibn Hajjoj, Imom Termiziy, Abu Dovud, Nasoiy, Ibn Mojja, Dorimiy, Bayhaqiy, Tabaroniy, Ibn Hibbon, Xatib, Hokim, Abu A'lo, Daylamiy, Doriqutniy, Jamoliddin Suyutiy kabi ko'pgina muhaddislarning nomi mashhur. Turkiy jumladan o'zbek adabiyotida ham hadislardan ilhomlanib yaratilgan bir qator badiiy namunalar yuzaga keldi. Bu silsiladagi dastlabki tajriba Yusuf Xos Hojib nomi bilan bog'liq. Uning quyidagi to'rtligida hadislar bilan ma'naviy uyg'unlikni sezish qiyin emas:

Atang pandini sen qatiq tut, qatiq,

Qutadg'a	kunung	bo'lga	kundin	tatig'
Atangni,	anangni		sevindur	tushi,
Yanut	berg'a	tapg'ing	tuman	ming
				asig'.

Ahmad Yugnakiy ham “Hubatul-haqoyiq” asarida hadislardan ta’sirlanib, Yusuf Xos Hojib izidan borgan va Payg’ambar sha’niga alohida maqtovlar bag’ishlaydi:

Aning	madhi	birla	tatir	bu	tilim,
Aning	yadi	birla	shakar	shahd	anga.
(Uning	madhi	bilan		tilim	shirindir,
Uning	yodi	tilimga	shakar	va	asal
					bag’ishlaydi.)

Hatto asardagi bir bobga “Tangrining mo’jizalari, johillikdan tiyilish, xudoning rasuliga sodiq bo’lish haqida payg’ambar alayhissalomning aytgan so’zlari” deb nom qo’yilgan. Hadislardan ijodiy foydalanish keyingi asrlarda ham davom etdi. Bu yo’nalishda **Jomiyning “Chil hadis”** va **Alisher Navoiyning “Arba’in” (“Qirq hadis”)** asarini eslash lozim. Zamondoshlarimizdan **A. Oripovning “Haj daftari”** kitobi ham asosan hadisi shariflarga ijodiy yondashuv oqibatidir. XIII – XIV asrlar adabiyotida dunyoviy mavzuning asosiy o’rin tuta borishini, janrlar xilma-xilligini ko’ramiz. Bu davrda g’azal, qasida, ruboiy, tuyuq, doston, masnaviy va soqiynoma kabi janrlar asosiy o’rin egallaydi. XIII-XIV asrlarda **Fazlulloh Rashiddinning “Jome ut-tavorix”, Atomalik Juvayniyning “Tarixi jahongo’sha”, Faxriddin Banokatiyning “Ravzatul ahbob fi tavorixul akobir val ansob”, Hamdulloh Mustavfiy Qazviniyning “Numat al-qulub” (Qalblar rohati), Husam Kotibning “Kitobi Jumjuma” (1369-1370), Ali ibn Mahmudning “Nahjul farodis” (1360), Qul Alining “Qissai Yusuf” (1239)** kabi asarlari dunyoga keldi. **Haydar Xorazmiyning “Gul va navro’z”, Durbekning “Yusuf va Zulayho”** dostonlari XIV-XV asrlarning original dostoni bo’lsa, **Haydar Xorazmiyning “Gulshanul-asror”, Qutb Xorazmiyning “Xusrav va Shirin”** dostonlari Nizomiy dostonlarining ijodiy qayta ishlanganidir. Abushqa lug’ati XVI asrda usmonli turk tilida tuzilgan bo’lib, unda Navoiy va boshqa o’zbek shoirlari asarlaridan misol tariqasida parchalar olingan. XV asrning yarmi yozma adabiyoti janrlar xilma-xilligi bilan ham ajralib turadi. Bu davrda ham epik, ham lirik asarlar (qasida, noma, g’azal, doston, qit’a, tuyuq kabilar) ko’plab ijod etildi.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
 Jo'natildi: **Robiya dan 28 Mart 2008, 11:48:41**

Sayyohlik asarlari.

O’rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy hayotiga dunyo xalqlari juda qadimdan qiziqib kelishgan.

Abu Is'hoq Istaxriy (850-934) tarixchi va geograf bo'lib, Hindiston, Arab va G'arb mamlakatlari hamda O'rta Osiyo xalqlari haqida ma'lumotlar bergan.

Gerodot (mil.avv 490-480 – 430-424 yillarda yashagan yunon tarixchisi)ning “Tarix” asari 9 kitobdan iborat bo'lib, har bir kitobi yunonlar e'zozlaydigan 9 muzadan biriga bag'ishlangan (Klio, Evderna, Galia, Menpanena, Terpsixora, Erato, Poligimniya, Urganiya, Kalliopa). Bu kitoblarda fors (Eron) podshohlari, iskif qabilalari, Midiya va Yunoniston (Ellada) kabi davlatlar o'rtasida kelib chiqqan urushlarning sabablarini aniqlashga intiladi. Gerodot fikricha, yaxshilikka yomonlik, yovuz, axloqsiz, adolatsiz ishlar xalqaro urushlarni keltirib chiqaradi.

Strabon (mil. avv. 64\63 – mil. 23\24 yillar) qadimgi yunon tarixchisi va sayyohidir. U 17 jildidan iborat “Geografiya” kitobida Qora dengiz mamlakatlari va Kichik Osiyo haqida noyob ma'lumotlarni jamlagan.

Arrian Flaviy II asrda yashagan yunon tarixchisi va yozuvchisidir. “Iskandar yurishi” va boshqa asarlarida makedoniyalik Iskandarning Sug'diyonaga qanday bostirib kelgani, Spitamen kabi milliy qahramonlarimizning jasoratlari tasvirlangan.

Xitoy sayyohi **Sima-Syan** o'z yurtidan chiqib ketib, ko'p yillar davomida 120 dan ortiq mamlakat va o'lkalarda bo'ladi, Qashqar va Issiqko'l orqali Sayram, Toshkent, Samarqandga borgani haqida ma'lumotlar bergan.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 28 Mart 2008, 11:51:39**

Marko Polo (1254-1324) genuyalik sayyoh va yozuvchi bo'lib, “Marko Polo kitobi” asarida Old Osiyo, Markaziy Osiyo va Xitoydagi xalqlarning urf-odatlarini, madaniyatini, san'atini, jumladan badiiy ijodlari haqida ham ayrim ma'lumotlarni bergan.

Rui Gonsales Klavixo (1412 yil vafot etgan) kastiliyalik sayyoh bo'lib, 1403 – 1406 yillar davomida Samarqandda bo'lgan. U temuriylarning adabiyoti va san'ati haqida ko'pgina ma'lumotlar to'plagan.

Arab sayyohi **Ibn Battuta** O'rta osiyo xalqlarining geografiyasi, tarixi, etnografiyasiga oid ko'p qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Bu mashhur sayyoh o'zining 28 yillik sayohatlari davomida Shimoliy va G'arbiy Afrika, Xitoy va O'rta Osiyoda bo'lgan, O'rta Osiyoda mo'g'ul istilosi asoratlarini o'z ko'zi bilan ko'rgan. Ibn Battutaning to'liq ismi Shamsiddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Ibrohim ibn Yusuf al Lavati at-Tanjiydir. U O'rta Osiyoning ko'plab shaharlari, xususan Xorazm, Urganch, Samarqand, Buxoro haqida nodir ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Jumladan, u “dunyoda xorazmliklar singari olijanob, mehmondo'st xalqni uchratmadim” deydi. Yoki Saroydan Xorazmgacha uni kuzatib borgan savdogar Ali ibn Mansur kiyim-kechak uchun 10 dinordan sarflab boradi. Ammo ibn Battutaga 8 dinorga oldim deydi. Sayyoh buni tasodifan boshqa bir hamsuhbatidan bilib qoladi va hayratga tushadi. Asarda bunday urf-odatlar haqida anchagina qaydlar bor.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 01 Aprel 2008, 15:46:32**

Imom Ismoyil Al-Buxoriy

Buxoriyning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoyil ibn Ibrohim ibn al-Mug'ira ibn bardazbax al-Juafiy al-Buxoriydir. U Buxoroda katta olim oilasida 810 yil 20 iyulda tug'ilgan. U yoshligidanoq o'zining o'tkir zehni va kuchli iqtidorini namoyon qiladi. Muhammad Buxoriy go'dakligidayoq otasi dunyodan o'tadi va onasining qo'lida qoladi. 16 yoshlarida onalari va akasi Ahmad bilan birga hajga borib, 4 yil Makkada yashaganlar. Yo'l-yo'lakay Balx, Kufa, Bag'dod, Xums, Damashq, Misr, Makka va Madina singari ko'plab shaharlardagi hadisshunos olimlardan saboq oladi. Bu paytda u mashhur muhaddislar Abdulloh ibn Muborak va boshqalarning hadis to'plamlarini to'lig'icha yod olib ulgurgan edi. Buxoriy 18 yoshga kirganda bir qator yirik ilmiy asarlar muallifi edi. Uning ustozlaridan Shayx Doxiliy shogirdining quvvai hofizasiga, bahslashish mahoratiga, dalillarni keltirishdagi izchil mantig'iga ko'p marta qoyil qolgan, tan bergan va uni olqishlagan edi. Buxoriy islom mamlakatlarini kezib, jami 600 ming hadis yozib olgan. Al-Buxoriy umrining so'nggi kunlarini Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog'ida o'kazadi va hijriy 256 (milofiy 871) yilda vafot etadi.

Asarlari: *“Al-Jomi’ as-sahih”*(*“Ishonarli to’plam”*), *“Al-adab al-mufrad”* (*“Adab durdonalari”*), *“Kitob asmo’ is-sahoba”*, *“Kitob afhol al-ibod”*, *“Kitob ul-farzand”*, *“At-tarix al-kabir”*, *“Tarixi us-siqot vazzuafomin ruvotil-hadis”*, *“Qazoyi as-sahobat vat-tobe’in”*, *“Tarixi kabir”*, *“Tarixi Buxoro”* va boshqalar.

Hadislaridan namuna: 32-hadis. Abu Hurayra aytdilar: Rasululloh: “Uch toifa kishilarning duosi hech shubhasiz Alloh Taolo qoshida maqbuldir: mazlum kishining duosi, musofirning duosi va ota-onaning duosi”, - deganlar.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 01 Aprel 2008, 15:53:02**

Abu Mansur al-Moturudiy

Al-Moturidiy 870 yilda tavallud topgan. Uning to'liq ismi Abu Mansur Muhammad ibn Mahmud al-Hanafiy al-Moturidiy as-Samarqandiydir. U Samarqand shahrida podshoh Nasr saroyida ilohiy bilimlar bilan shug'ullanib, to'rt unsur haqida to'rtta ilohiy risola yozgan. Samarqandning Ismoyil Somoniy tomonidan bosib olinishi allomaning ijodiga xalaqit beradi, u saroydan ketib, Moturid qishlog'ida yashaydi. Ismoyil Somoniy al-Moturidiyi saroyga taklif qiladi, lekin alloma bu taklifni rad etadi. U Samarqanddagi katta Jome' masjidida imom-xatib bo'ladi, o'z bog'ida ishlaydi. Moturidiy juda ko'p shogirdlar yetishtirgan, bir qancha asarlar yaratgan. U 964 yilda (hijriy 335 yilda) vafot etgan.

Uning qabri Samarqanddagi Chokardiza qabristonidadir. Alloma tavalludining 1130 yilligi keng nishonlandi.

Asarlari: *“Kitob al-usul” (Diniy ta’limot usuli kitobi)*, *“Kitob tavhid”*, *“Shariat asoslari sarasi”*, *“Dialektika haqida kitob”*, *“Risola jonvor doriy” (Jonvorlarga oid risola)* va boshqalar.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 01 Aprel 2008, 15:58:24**

Mahmud Koshg'ariy

Mahmud Koshg'ariy asl ismi Mahmud Ibnulhusayn ibn Muhammad Koshg'ariy bo'lib, uning bobosi Qashqarda tug'ilgan bo'lsa ham, ammo u asosan Bolosog'unda yashagan. Ba'zi manbalarda Koshg'ariyning to'liq ismi Shamsiddin Mahmud ibn Husayn tariqasida keltirilgan. Mahmud Koshg'ariy taxminan 1028-1037 yillar o'rtasida Qashg'ar sharining janubi-g'arbidagi O'pol qishlog'ining Ozig' mahallasida tug'iladi. U qoraxoniylar hukmdorlaridan Yusuf Qodirxonning evarasi. Otasi Husayn ibn Muhammad (Qodirxonning nevarasi) “Arslon elig” nomi bilan 1056-1057 yillarda Barsxon amiri bo'lgan. Mahmudning ona tomonidan buvasi Xo'ja Sayfiddin buzrukvor ham o'qimishli kishi bo'lgan. Mahmud Koshg'ariy arab, fors, rumoniy kabi 8-9 tilni mukammal egallagan. U qandaydir bir qirg'in paytida ota yurtini tashlab chiqib ketadi, ko'p o'lkalarni kezadi va 1118 yilda Qashqarga qaytib kelib madrasada dars beradi. 97 yoshida (milodiy 1126 yil) vafot etadi va O'poldagi ajdodlari maqbarasiga dafn etiladi. Maqbara hozirgacha “Hazrati Mullom mozori” nomi bilan mashhur. M.Koshg'ariy ilk geograf, botanik, zoolog, turkiy til grammatikasini ishlab chiqqan birinchi tilshunos olim, fol'klorshunos, elshunos, adabiyotshunos, shoir, tarixchi va qomusiy olimdir. Uning *“Javohir un-nahv fi lug'otit turk” (“Turk tili sintaksisi qoidalari”)* asari topilmagan.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 07 Aprel 2008, 15:28:10**

“Devonu lug'otit”turk asari haqida

“Devonu lug'otit turk”(“Turkiy so'zlar devoni”)hijriy 469 , milodiy 1076-1077 yillarda yozilgan bo'lib, Abulqosim Abdullloh binni Muhammad al muqtatoga bag'ishlangan. Bu vaqtda muallif 50 yoshda bo'lgan. Yangi manbalarga ko'ra bu asar 1072 yilda yozila boshlangan va 1074 yilda tugatilgan. Muallif bu haqda shunday degan: “kitob 464 yilda (hijriy) jumadul avval boshlarida boshlandi va to'rt karra yozilgandan va tuzatilgandan so'ng 466 yil jumadul oxirning 12-kuni bitirildi”. Umuman olganda bu asar XI asrda yozilgan bo'lib, turkiy so'zlar lug'ati

hisoblanadi. Bu kitobda O'rta Osiyoda yashagan turkiy xalqlarning XI asrgacha bo'lgan badiiy ijodi to'g'risida juda qimmatli ma'lumotlar jamlangan bo'lib, unda qadimgi qabilaviy hayot, ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik bilan bog'lanib ketadigan lavhalar ko'p uchraydi. Muallif unda so'zlarning ma'nosini arab tilida izohlab beradi. Misol sifatida ko'plab xalq maqollari, hikmatlari, qo'shiqlaridan keltiradi. Bu haqda Mahmud Koshg'ariyning o'zi yozadi: "Men bu kitobni mahsus alifbe tartibida hikmatli so'zlar, saj'lar, maqollar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim... Bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qo'llanib kelgan she'rlaridan shodlik va motam kunlarida qo'llaniladigan hikmatli so'zlaridan maqollaridan keltirdim". "Devonu lug'otit turk" asarining asl qo'lyozmasi bizgacha yetib kelgan emas. Uning yozilgan sanadan 200 yuz yil o'tgach ko'chirilgan bir-bir nusxasi Istanbul kutubxonasida saqlanmoqda. Uch jildidan iborat bu kitob 1939-1941 yillarda hozirga turk tiliga tarjima qilinib nashr etilgan. O'zbekistonda "Devon"ning birinchi tadqiqotchisi va qisman noshiri professor Fitratdir. Bu asarni filologiya fanlari doktori, taniqli tilshunos olim S. Mutallibov hozirgi o'zbek tiliga ag'dargan. "Qo'shiq", "she'r", "qasida", "marsiya", "afsona", "maqol" kabi atamalar ilk bor shu asarda qo'llangan va uyg'ur yozuvi haqida ham ilk ma'lumotlar keltirilgan. Asarda mehnat va marosim qo'shiqlari, lirik qo'shiqlar va o'gitnomalar, "Qish va yoz" munozarasi, "Alp Er To'nga" marsiyasi, savlar (afsonalar), maqollar, "Oltin qon" afsonasi (unda qadimgi turkiy ajdodlarimizning Iskandar Zulqarnaynga qarshi mardliklari hikoya qilinadi) va shu kabilar keltirilgan. "Devon"da turkiy xalqlar turmush manzaralari bilan bog'liq bo'lgan she'riy parchalar katta o'rin tutadi. Ularda xalqning urf-odati, yashash tarzi, mashg'uloti, ishonch e'tiqodlari ifodasi ochiq ko'rinadi. Yigitlarni ishga safarbar qilish, meva terish, ovchilikka da'vat kabi qadimgi turmush tarzidan olingan qo'shiqlar maxsus berilgan.

Lirik qo'shiqlarda insonning qalb kechinmalari, nozik his-tuyg'ulari ifodasi, tabiat va ona yurt manzaralari tasviri yetakchilik qiladi. Kishilarni qurshagan olam haqidagi qo'shiqlarda turkiy xalqlarning doimiy yo'ldoshi-otlar ham alohida mavqe tutadi. Asarda ko'pgina qo'shiqlar ovchilik, chorvachilik bilan – turkiy xalqlarning yashash tarzi bilan chambarchas bog'liq holda yuzaga kelgan. Mahmud Koshg'ariy "qo'shiq" atamasiga "she'r, qasida" deb izoh bergan. "Devon"ga kirgan adabiy shakllarning asosiy qismini to'rtliklar tashkil qiladi. Ular a-a-a-b va a-a-a-a yoki a-b-v-b shaklidagi qofiyadoshlikka ega. To'rtliklarda Vatan va yurt muhabbati, xalq uchun jang qilgan bahodirlar bilan faxrlanish, tabiat manzaralari go'zalligi, mehnat shavqi turli insoniy kechinmalar talqini mavzusi yetakchilik qiladi.

"Devonu lug'otit turk" dagi she'riy parchalar shakliga ko'ra ikkilik, to'rtlik va murabba'lardan tashkil topgan bo'lib, ularning ko'p qismi pand-nasihat, o'gitlardan iborat. Asardagi xalq qo'shiqlarining tasvir usullari ham nihoyatda xilma-xil. "Qaqlar qamug' ko'lardi" to'rtligi, "Qish bilan yoz" munozarasida jonlantirish, "Bulnar meni ular ko'z" to'rtligida esa sifatlash asosiy o'rin tutadi.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 07 Aprel 2008, 15:29:20**

“Alp Er To'nga” marsiyasi haqida

Alp Er To'nga – turklarning qadimiy qahramoni. Yusuf Xos Xojib tojiklar uni Afrosiyob deb atashlarini yozgan. Mahmud Koshg'ariy Afrosiyobni Qashqarda – O'rdukan shaxrida turar edi, deb ko'rsatadi. To'nga Alp Er – yo'lbars kabi kuchli bahodir odam, demakdir. Shuningdek, uning barman, Barsg'an degan o'g'illari hamda Qaz ismli qizi haqida ham ma'lumotlar saqlanib qolgan. Qaz haqida asarda quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: “Qaz Afrosiyob qizining nomidir. Qazvin shaxrini shu qurgandir. Bu so'zning asli qaz o'yini – g'oz o'ynaladigan joy demakdir...Qazining otasi To'nga Alp Er – Afrosiyobdir. U Tahmurasidan 300 yil keyin Marsiya bino qilgan. Ba'zilar butun Movorounnahrni turklar o'lkalaridan deb bilganlar. U Yaikanddan boshlanadi. Uning bir oti Dizro'iyndir. U sariqligiga ko'ra mis shaxri demakdir. Buxoroga yaqindir. Bu yerda Afrosiyobning qizi Qazning eri – Siyovush o'ldirilgan. Majusiy- otashparastlar har yilui bir kun bu yerga kelib, Siyovush o'lgan joyda atrofida yig'laydilar. Mollar so'yib qurbonlik qiladilar...”

Mahmud Koshg'ariy Afrosiyobning bolalari xoqon, xon deb atalganini eslatadi. Marsiyada Afrosiyob – Alp Er To'nganing o'limi achchiq qismat, dahshatli fojia, o'rmini to'ldirib bo'lmaydigan yo'qotish sifatida baholanadi. Bu marsiya murabba' shaklida bo'lib, misralar asosan a-a-a-b qofiyalanish tartibiga ega. Alp Er To'nga marsiyasi barmoq vaznidadir. Uning har bir misrasi yetti bo'g'indan tuzilgan. Turoqlar asosan 4+3 shaklida.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 07 Aprel 2008, 15:30:10**

Maqollardan namunalar:

- 1.“Tulku o'z iniga ursa, ujuz bo'lur” (“Tulki o'z uyasiga qarab ulisa qo'tir bo'ladi”). Mahmud Koshg'ariy izohlashicha, “bu maqol o'z elini, urug'ini va mamlakatini yomonlovchilarga qarata aytilgan”.
- 2.“Erik erni yag'lig, ermagu bashi qanlig” (“Tirishqoqning labi yog'liq, erinchoqning boshi qonlik”). Bu maqol yalqovlikni tashlashga, g'ayrat bilan ishlashga undab aytilgan.
- 3.“Suv ichirmasga sut ber”. U senga yomonlik qilganga ham yaxshilik qil, degan ma'noda ishlatiladi.
- 4.“O'kuz azaqi bo'lg'uncha, buzag'i bashi bo'lsa yik” (“Ho'kizning oyog'i bo'lg'uncha, buzoqning boshi bo'lgan yaxshiroq”). U “mustaqillik bo'ysunishdan yaxshi ” degan ma'noda qo'llanadi.

- 5.“Tavg’och xonning to’rquasi telim, tenglamazib bichmas” (“(Qoraxitoy) xoqonining ipak gazmoli ko’p, lekin o’lchamay kesilmaydi”). Bu maqol ishni boshida puxta o’ylab qilishga undab, isrofgarchilikka qarshi aytilgan.
- 6.“Uma kelsa, qut kelar” (“Mehmon kelsa, qut kelar”). Bunda “senga mehmon kelsa, u bilan birga baraka, qut-baxt keladi, qo’noqni yaxshi qarshi oladilar, malol olmaydilar” degan fikr ilgari surilgan.
- 7.“Qiz kishi savi yo’rig’li bo’lmas” (“Baxil odam obro’ topmaydi”). Bu maqol odamlarni yaxshi nom chiqarish, saxiy bo’lish uchun undab aytilgan.
- 8.“Erdam bashi til”. Odob boshi til.
- 9.“Tilin tugmishin tishin yazmas” (“Til bilan tugilganni, tish bilan yechib bo’lmas”).

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 07 Aprel 2008, 15:30:46**

She’rlaridan

namunalar:

Eshitib		ota-onangni,
So’zlarini		qadrla.
Molu	mulking	ko’paysa,
Mag’rurlanib quturma.		

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 16 Aprel 2008, 14:49:49**

Yusuf Xos Hojib

Yusuf Xos Hojib turkiy tilda ilk yirik hajmli adabiy – ma’rifiy asar yaratgan iste’dodli shoir, davlat arbobi, donishmand adibdir. U Quz O’rdu (Bolasog’un) shahrida taxminan XI asrning 20-yillarida tug’ilgan. Quz O’rdu turkiylar istiqomat qiladigan qadimiy shaharlardan biridir. U Bolasog’un nomi bilan ham mashhur bo’lgan. Bu shahr XI asrda yozilgan yana bir muhtasham obida – Mahmud Koshg’ariyning “Devonu lug’otit - turk” asarida bir necha marta tilga olingan. Jumladan, bu shahrning arg’un lahjasida Quz ulus, o’g’uz lahjasida esa Quz O’rdu deb yuritilishini Mahmud Koshg’ariy qayd etadi. Yusuf Xos Hojib zamonasining eng muhim fanlari: tarix, badiiy adabiyot, astronomiya, geometriya, matematika, tabiiyot, geografiya va boshqalarni, fors-tojik va arab tillarini chuqur o’rgangan. Adib hayoti va ijodiy faoliyati haqida ma’lumot beruvchi manba uning “QUTADG’U BILIG” asaridir.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 16 Aprel 2008, 14:55:48**

“Qutadg’u bilig” asari haqida.

Yusuf Xos Hojib o’z asarini yozish uchun juda katta tayyorgarlik ko’radi: Chin (Xitoy), Mochin (Sharqiy Turkiston), Eron va Turon bo’ylab safar qiladi. U yerdagi turli madaniy-adabiy, tarixiy yodgorliklarni o’rganadi. Shuning uchun ham asarga o’z davrining nihoyatda ahamiyatli bo’lgan rang-barang mavzularini qamrab oladi. “Qutadg’u bilig” (*“Baxt – saodatga eltuvchi bilim”*) asari hijriy 462-yilda, milodiy 1069-1070 yillarda yozilgan. Asarni yozish uchun muallif 18 oy (bir yarim yil) vaqt sarflaydi. Kitob Qashg’ar hukmdori Tamg’ach ulug’ **Bug’ro Qoraxon Abo Ali Hasan binni Arslonxonga** tortiq qilingan va buning evaziga muallif Xos Hojib (muqarram, eshik og’asi) lavozimi bilan taqdirlangan. Shundan keyin u Yusuf Xos Hojib nomi bilan shuhrat qozongan. Turkiy adabiyotda aruz vaznidagi dastlabki yirik tajribani Yusuf Xos Hojib boshlab bergan. U o’z asarini mutaqorib bahrida yozgan, tajnisli qofiyalarni ishlatgan. Adib so’z qudratini, ona tilining ichki imkoniyatlarini nozik darajada his etadi. U tilni “bilim va aql-idrok tarjimoni” deb ataydi va “men turkcha so’zlarni yovvoyi shoh kiyigi singari deb bildim, shunga qaramay ularni avaylab-asrab qo’lga o’rgatdim”, deb yozadi. “Qutadg’u bilig” pandnoma asar bo’lib, unda to’rtliklar, bahor madhi, tilning fazilati, foyda va zararlari, bilim, o’quv-idrok farqi, bir yigitga qirq hunar ozligi haqida fikrlar keltirilgan. Asarda keltirilgan quyidagi to’rtlikni turkiy yozma adabiyotda yaratilgan dastlabki tuyuqlardan biri deb dadil aytish mumkin:

Qayu	yerda	bo’lsa	o’qush	bila	o’g,	(aql)
Ani	er	atag’il,	necha	o’gsa,	o’g	(maqta)
Uqush,	o’g,	bilig	kimda	bo’lsa	tugal,	
Yavuz	ersa	kaz	te,	kichik	ersa	– o’q (ulug’la)
Mazmuni:	Qaysi	bir	kishida	aql	va	zakovat bo’lsa,
Uni	(haqiqiy)	kishi	deb	atagin,	qancha	maqtasang maqta.
Zakovat,	aql,	bilim	kimda	yetuk	bo’lsa,	
Yomon bo’lsa	(ham)	yaxshi de,	kichik bo’lsa	(ham)	katta deb bil	(ya’ni ulug’la)

Adibning bu asarini vatan, el-yurt madhiyasi deb atash mumkin. Yusuf Xos Hojib hukmdor va saroy ahlini oqil bo’lsihga, adolat bilan ish yuritib, mamlakatni obod va elni shod-xurram qilishga da’vat etadi. Asarda muallif o’xshatish (tashbeh) san’atini juda o’rinli qo’llagan. *Qadni dolga (yoyga), yuzni oyga, tiriklik (hayot)ni rabotga, yigitlikni arg’umoqqa, bilimni kimyoga, mash’alga, so’zni zaharga, shakarga, ko’ngilni dengizga, shishaga, zolim amaldorlarni bo’riga, xalqni qo’yga va bekni qo’ychivonga* o’xshatish yozma adabiyotda an’anaga aylangan. Yusuf Xos Hojib yilqi (hayvon) obrazini nodon, bilimsiz, zakovatsiz, ochko’z va umuman yomon xulqli kishiga nisbatan, bo’ri obrazini lashkarboshi, yov-dushman, mard, er, o’lim kabilarga nisbatan qo’llagan. Lahskarboshining kuchliligi, yovga dahshat solishi arslonga, doimiy hushyorligi zag’izg’onga, baquvvatligi qoplonga, hujumkorligi va dushmanga hamlasi to’ng’izga, mardonavorligi bo’riga, jangda mohirligi, hiylakor va tadbirkorligi tulkiga, shiddati ayiqqa, qasoskorligi qo’tos va tuya erkagiga o’xshatilgan. “Qutadg’u bilig” istioralari ham o’ziga xos. Tun bir o’rinda “qora yuz bog’i” istiorasi bilan ifodalansa,, boshqa o’rinda “zangi yuzi”,

“sevuglar qoshi”, “qora soch bo’dug’i”, “qora ko’ylak”, “zog’ rangi”, “habash qirtishi”, “tul to’ni”

, “qunduz terisi” istioralari bilan ifodalangan. Shoir yigitlikni kezuvchi bulutga, yoshlikdagi yuzni arg’uvonga, sochni ipakka, qomatni qayin va o’qqa tashbeh qiladi. Yigitlikni “tiriklik tatg’i”, “qamug’ ko’rk”, “sevug jon sevunchi” deb ataydi. Asarda keltirilgan “Bahor madhi”ni turkiy adabiyotdagi ilk qasida sifatida baholash mumkin. Bu qasida **59 banddan 6500 bayt, 73 fasl (bob)**dan iborat. “Qutadg’u bilig”ni *chinliklar “Abadul-mulk”, mochinliklar “Oyinul mamlakat”, Sharqda “Ziynatul umaro”, eronliklar “Shohnomai turkiy” yoki “Pandnomai muluk”, turonliklar “Qutadg’u bilig”* deb atashgan. Yusuf Xos Hojib esa o’z asarini “Turkiy shohnoma” deb atagan.

Bu asarning **uch qo’lyozma** nusxasi ma’lum. Bu nusxalar “Vena” (yoki “Hiro’”), “Qohira” va “Namangan” (Namangan nusxasi namanganlik Muhammadhoji Eshon Lolarish shaxsiy kutubxonasidan olingan) nusxalari deb yuritiladi. Uning XV asrda Hirotda ko’chirilgan nusxasi uyg’ur yozuvida bo’lib, qolgan ikki nusxasi arab yozuvidadir. “Qutadg’u bilig” XII-XIV asrlarda Yevropada “*zersal*” deb nomlangan janrning paydo bo’lishiga sabab bo’lgan. BU dostonida to’rtta asosiy masala qo’yilgan va bu masalada to’rt majoziy obraz qiyofasida ifodalangan.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo’natildi: **Robiya dan 16 Aprel 2008, 15:35:02**

“Qutadg’u bilig” siymolari

Asarda to’rtta yetakchi qahramon bor. Bular quyidagilar: **ADOLAT – Kuntug’di (chiqqan kun), davlat – vazir Oyto’ldi (to’lgan oy), aql – vazir o’g’li O’g’dulmish (aqlga to’lgan) va qanoat (ofiyat) – O’zg’urmish (uyg’ongan, xushyor qiluvchi, sergaklantiruvchi)**. Muallif o’z fikr-mulohazasini obrazlarning o’zaro savol-javobi va munozaralari yo’li bilan ifoda etadi. Asar qahramonlarning o’zaro suhbatlari asosiga qurilgan. Unda Kuntug’di va Oyto’ldi dunyo hodisalari haqida suhbatlashadi.

Yusuf Xos Hojib tasvirida **Kuntug’di** “qilmishlari to’g’ri, fe’lu tabiati rost, tili chin, yetuk, ko’zi va ko’ngli boy, bilimli, zakovatli, hushyor, yomonlarga misli bir olov edi”. Kuntug’di bir kuni uch oyoqli kumush kursi ustida, qo’lida pichoq, so’l tomonida urog’un (bir xil dori) va o’ng tomonida shakar qo’yilgan holda turadi. Oyto’ldi buning sababini so’raydi. Kuntug’di quyidagicha javob beradi: “Men ustida o’tirgan kursining oyog’i uchta. Barcha uch oyoqli narsa siljimas, mustahkam bo’ladi. Agar poyalardan birortasi siljisa, u kursi yiqiladi. Qo’limdagi pichoq esa qirquvchi va kesuvchi narsadir. Kim adolatimdan bahra olsa, shakardek chuchuk bo’lib ketadi-sevinadi. Zo’ravon, zolimlar esa urog’un ichgandek yuzi burishadi”.

Oyto’ldi – vazir, ayni paytda davlat ramzi. Bir kuni Elig – hukmdor uni chaqirtirganda Oyto’ldi ko’zini yumib, yuzini o’girib, koptokning ustiga o’tirib

oladi. Buning sababini Oyto'ldi quyidagicha tushuntiradi: "Sen o'rin berding, men esa avvaliga o'tirmadim, chunki mening o'rnim yo'q, buni bilib ol, demoqchi bo'ldim. Koptok menga o'xshaydi. U o'rinsiz dumalab yurgan kabi Davlat ham beqarordir. Iltifot qilganingda ko'zimni yumganligim va yuzimni o'g'irganligim mening qilmishlarim jaf, menga ishonma, deganim edi". Asarda Oyto'ldining vafot etishi ham bejiz emas.

O'gdulmish – asardagi eng faol qahramon. O'gdulmish "aql bilan ziynatlangan deganidir. Undagi bosh fazilat har qanday hodisaga aql ko'zi bilan qarashdir. O'gdulmish bilimdon, donishmand kishi. U hayotning hamma sohalaridan puxta xabardor. O'gdulmish va O'zg'urmishning savol-javoblari ba'zan keskin munozara darajasiga yetadi. Shunda ham O'gdulmish bosiqlik qiladi, aql bilan ish yuritadi, natijada O'zg'urmishni o'z g'oyalariga ishontiradi.

O'zg'urmish "hushyor qiluvchi", "sergaklantiruvchi" demakdir. Boshqalardan o'zib ketuvchi ma'nosi ham bor. Uning zohid qiyofasida ko'rinishida shu ma'noga uyg'unlik bor. U behuda ishlar bilan band bo'lish, har xil mayda-chuyda orzu-havaslarga ovunib qolishdan ogohlantiradi. Mudrab borayotgan tuyg'ularni sergaklantiradi. O'zg'urmish qat'iy fikrli inson. U Eligning shaharga saroyga taklifini rad etadi. Garchi bu taklif uch marta takrorlansa-da, u fikrni o'zgartirmaydi. Faqat O'gdulmishning oqilona tushuntirishlaridan so'ng, ziyorat maqsadidagina Elig huzuriga boradi. O'zg'urmish Eligga so'ngsiz tiriklik, ko'rmas yigitlik, doimiy sog'lik, tuganmas boylik kabi to'rt shart qo'yadi. ("Saddi Iskandariy"da shahzoda Iskandarga shunday shartlar qo'yilgan.) So'ngra o'z manziliga – tog' etagidagi g'orga qaytadi va shu yerda vafot etadi. O'zg'urmish – taqvodor inson. U din va diyonatni hamma narsadan ustun qo'yadi. U O'gdulmishga quyidagi fikrlarni aytadi: "Sen tansiq taomlarni, men esa oddiy arpa oshini yeyman. Uxlab tursak ikkimiz ham och qolamiz. Shunday ekan, bunday ovqatlarga ruju qo'yishning nafi yo'q. Sen duxobalarga o'ranib yurasan. Men esa qopdan tikilgan to'n bilan kifoyalanaman. Ertaga o'lim kelsa, ikkimiz ham yalang'och ketamiz-ku! Demak, tanni emas, ruhni boyitish lozim".

Umuman, Yusuf Xos Hojib bu obrzlar timsolida Davlat, Adolat bva Aql bilan boshqarilmog'i kerak, degan fikrni ilgari surgan.

Asardan

parchalar:

- 1.Senga kim qilarkan odamgarchilik,
Javob ber unga sen qilib yaxshilik.
Vafoga vafodir kishilik haqi,
Vafo qil, odil bo'l, nom ol mangulik.
- 2.Uquvli tirikdir, uquvsiz – o'lik,
Kelu, ey uquvsiz, uquv ol ulig (ulush, hissa)

3. Biliglik uqushlug' kishi ul kishi,
 Aningda naru barcha yilqi tushi.

Ma'nosi: Bilimli, zakovatli odam odamdir,
 Undan boshqa barcha (kishi) yilqi tengdir.

4. Biliglig' uqushlug' bilar bilsa ish,
 Biliglig' uqushlug' qilur qilsa ish.

(Bu baytda takrir, qofiya, radif kabi she'riy san'atlar qo'llangan)

Ma'nosi: Ishni bilsa, bilimli, zakovatli bo'ladi,
 Ish qilsa, bilimli, zakovatli qiladi.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
 Jo'natildi: **Robiya dan 27 Aprel 2008, 14:53:14**

Abulqosim Mahmud az-Zamaxshariy (1075-1144)

Abulqosim Mahmud ibn Umar ibn Ahmad Jarulloh Zamaxshariy 1075 yilning 19 martida Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida qassob oilasida tug'ilgan. Otasi Umar ibn Ahmad machitda imomlik qilgan, onasi taqvodor va dindor ayollardan biri bo'lgan. Zamaxshariy dastlabki ta'limni otasidan olgan, so'ngra Xiva va Buxoro, Xuroson va Isfahon, Bag'dod va Makka madrasalarida tahsil olgan. O'qishni tugatgach, bir qancha vaqt shoh xizmatida kotiblik bilan shug'ullangan. Olim tilshunoslik, adabiyotshunoslik, geografiya, tafsir, hadis, huquq, lug'atshunoslik va boshqa shu kabi sohalarga oid 56 ta asar yozgan. Umrining so'nggi yillarida Xorazmga qaytib kelgan va 1144 yilning 1 aprelida vafot etgan. Zamaxshariyning **“Arablar va g'ayri arablar ustozlari”, “Jarulloh” (Ollohning qo'shnisi), “Xorazm faxri”, “Adablar peshvosi” va “Butun dunyo ustozlari”** kabi nomlar bilan atashgan.

Zamaxshariy arab tili gramatikasiga oid **“Al-Muffasal”** asarini makka shahrida 1121 yilda yozgan. Bu kitob arab tili gramatikasini o'rganishda muhim qo'llanma sifatida azalda sharqda ham, G'arbda ham shuxrat topgan asarlardan hisoblanadi. Olimning xorazmshoh Alouddavla Abdulmuzzafarga bag'ishlab 1137 yilda yozgan **“Muqqadamat –ul- adab”** asari besh qismdan iborat bo'lib, otlar, fe'lklar, bog'lovchilar, otlarning turlanishi, fe'llarning tuslanishi haqida bahs yuritilgan, unda adabiyot nazariyasiga, ayniqsa, badiiy tasvir vositalariga alohida e'tibor berilgan. Ushbu asar fors, chig'atoy (o'zbek), mo'g'ul, turk va boshqa tillarga tarjima qilingan. Manbalarda ko'rsatilishicha, **“Muqaddimat-ul-adab”** ning chig'atoy (o'zbek) tiliga tarjimasi Zamaxshariyning o'zi tomonidan amalga oshirilgan.

Asarlari: “Al-Mufasssal” (1121), “Muqaddimat-ul-adab” (1137, “Adabiyotga kirish”), “Al-Kashshof”, “Asos al-balog’a” (“Notiqlik asoslari”, lug’atshunoslikka oid), “Tog’lar, manzillar va suvlar”, “Hadislardagi notanish so’zlarni o’zlashtiruvchi”, “Qofiya” va boshqalar

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo’natildi: **Robiya dan 27 Aprel 2008, 14:59:12**

Ahmad Yassaviy (1166 yilda vafot etgan)

Ahmad Yassaviy mutasavvuf shoir, shayxul mashoyix, sultonul orifin laqablariga musharraf bo’lgan zot, Yassaviya (Jahriya) nomli tariqatning asoschisidir. U Sayram shahrida Shayx Ibrohim ota va Oysha ona (Qorasoch momo) oilalarida dunyoga keladi. Uning Latif ota va Mustafuq ota kabi aka-ukasi bo’lgan. Ahmad 7 yoshida otasidan yetim qoladi. Dastlab Arslonbobdan, keyinchalik buxorolik yirik mutasavvuf Yusuf Hamadoniydan tahsil oladi. So’ngra Turkistonga qaytib shayxlik qiladi, ovozi ortadi. Ahmad Yassaviy Muhammad payg’ambardan ortiq umr ko’rishini istamagan va 63 yoshida yerto’laga tushib, umrining oxirigacha ana shu yerto’lada yashagan. Amir Temur 1395-1397 yillarda Ahmad Yassaviy dafn etilgan joyga maqbara qurdirgan. Ahmad Yassaviy she’rlarini to’rtlik shaklida yaratib, ularga “hikmat” deb nom bergan. Hikmatlarga “Qul Xoja Ahmad”, “Xoja Ahmad Yassaviy”, “Ahmad ibn Ibrohim”, “Sulton Xoja Ahmad Yassaviy”, “Yassaviy Miskin Ahmad”, “Ahmadiy”, “Qul Ahmad”, “Miskin Ahmad” kabi taxalluslar qo’yilgan. Yassaviy hikmatlarida jaholat va nodonlik qoralangan. Shoir ijodi uchun Qur’on, hadis va umuman diniy ma’rifat yetakchi xususiyat hisoblanadi. Yassaviyning asarlarida hayotning barcha bosqichlari “shariat”, “tariqat”, “ma’rifat”, “haqiqat”dan iborat degan tasavvufona g’oya o’z ifodasini topgan. Yassaviy hikmatlarining tili xalqning jonli so’zlashuv va xalq qo’shiqlari tiliga yaqin turadi.

Asarlari: “Devoni hikmat” (Daftari soniy (Ikkinchi daftar)), “Tariqat odobi to’g’risidagi risola”, “Me’roj hikoyasi”, “Munojotnoma”, “Faqrnoma” va boshqalar.

Hikmatlaridan

namunalar:

Nafsdin	kechib,	qanoatni	pesha	qilg’on,
Har kim	tepsa,	rozi bo’lib	bo’yin	sung’on,
Yaxshilarga	xizmat	qilib,	duo	olg’on,
Andog’	oshiq	mahshar	kuni	armoni
				yo’q.

Ahli	dunyo	xalqimizda	saxovat	yo’q,
Podsholarda,		vazirlarda	adolat	yo’q,

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 27 Aprel 2008, 15:07:44**

Adib Ahmad Yugnakiy (XII asr oxiri – XIII asrning I yarmi)

Adib Ahmad Yugnakiy turk mashoyixi va iste'dodli shoiridir. Uning “Hibat ul-haqoyiq” (“Haqiqatlar tuhfası” yoki “Sevimli haqiqatlar”) nomli yagona ta’limiy-ma’rifiy dostoni yetib kelgan. A. Navoiy o’zining “Nasoyim ul-muhabbat” (“Muhabbat shabbodalari”) asarida Ahmad Yugnakiyning turk elidan chiqqan “ziyrak va zakiy” kishi ekanligi, Bag’dod yaqinida maskan tutib, mashhur Imom A’zam saboqlariga piyoda kelib ketishi, ko’pchilik elning unga e’tiqod qo’ygani, hikmatli va nozik mazmunli misralari turk ulusida keng yoyilgani xususida xabar beradi. Shoirning oti Adib Ahmad, otasining ismi Mahmud Yugnakiydir. Adib tug’ilgan joy Yugnak deb atalgan. Adib Ahmadning tug’ma ko’rligi haqida dostonidagi ma’lumotni A. Navoiy yanada aniqlashtirib, shoirning “ko’zlari butov (yopiq, bitgan) ermishki, aslo zohir ermas emish. Basir (ko’rmaydigan) bo’lib, o’zga basirlardek andoq emas ermishki, ko’z bo’lg’ay. Ammo bag’oyat ziyrak va zakiy va zohid va muttaqiy (taqvodor, parhezkor) kishi ermish... Haq subhanohu taolo agarchi zohir ko’zin yopiq yaratqondur, ammo ko’ngil ko’zin bag’oyat yorug’ qilg’ondur”, deydi. “Hibat ul-haqoyiq” asari pandnoma asar bo’lib, Dod Sipohsolarbekka bag’ishlangan. U 14 bob, 256 baytdan iborat. Bu asar ham “Qutadg’u bilig” ga o’xshab aruzning mutaqorib bahrida yozilgan. Adib uning “koshg’archa” til bilan yozilganligini alohida ta’kidlaydi. Shoir to’g’rilik va egrilik, odob bilan odobsizlik kabi mavzular ustida to’xtalar ekan, turli badiiy tasvir vositalari – o’xshatish, tazod, jonlantirish, takrir kabilardan ustalik bilan foydalangan.

Adib “o’q yarasi, aqldan ozish, til jarohati va uni tiyish” haqida quyidagi fikrlarni bayon etadi:

Nekim		kelsa	erga	tilidin	kelur,
Bu	tildan	kim	edgu,	kim	aqir
					bo’lur...

(Ma’nosi: Kishi boshiga nima yomonlik kelsa, tili tufayli keladi, Tili tufayli birovlar ezgu, baxtli, birovlar haqir, xoru zor bo’ladi.)

Asarda “Qutadg’u bilig” dagi tasvir usullariga uyg’un namunalar anchagina. Adib Yusuf Xos Hojib qo’llagan “ko’ngilik (to’g’rilik) to’ni”, “muruvvat yo’li”, “ati (nomi) o’lik” singari istioralardan unumli foydalangan. “Hibat ul-haqoyiq”da barcha o’gitlar faqat muallif tilidan bayon qilingan. Ushbu asar 1951 yilda Arat

Rahmatiy tomonidan birinchi marta Istanbulda, 1971 yilda O'zbekistonda Qozoqboy Mahmudov tomonidan nashr qilingan.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 03 May 2008, 13:29:01**

Nosiriddin Burhoniddin o'g'li Rabg'uziy

(XIII-XIV asrlar oralig'i)

Rabg'uziyning asl ismi Nosiriddin bo'lib, Xorazmning Raboti O'g'uz degan joyida yashab ijod etgan. U o'zbek nasriy adabiyotining birinchi yirik namunasi "Qissasi Rabg'uziy" nomli asar muallifi, atoqli shoir va olimdir. Otasi Burhoniddin O'g'uz Rabotining qozisi bo'lgan. "Qissasi Rabg'uziy" asari hijriy 710, milodiy 1310 yilda yozib tugallangan bo'lib, jami 72 qissadan iborat. Rabg'uziy anbiyolar – payg'ambarlar hayotidan hikoya qiluvchi qadimiy Sharq qissa va afsonalarini qayta ishlab, manzarali lavhalar, jonli tasvirlar, hiyla pishiq, his-hayajon va kechinmalarga boy obrazlar hosil qilgan, kerakli o'rinlarda she'riy parchalar qo'llagan. Asarda e'tiqod va imonga sodiqlik, pok insoniy axloqning badnafslilik, hirsu hasad, qonxo'rlik va nohaqliklar ustidan g'alabasi tasvirlanadi. Rabg'uziy o'zining "Qissasul anbiyo" (yoki "Qissasi Rabg'uziy") asari bilan XIII-XIV asrlarda o'zbek nasrini o'z davrida yuqori cho'qqiga olib chiqdi. Undagi qissalarda Shish, Muso, Iso, Sulaymon, Nuh, Dovud, Muhammad kabi payg'ambarlar : Horut va Morut kabi farishtalar, Qobil va Hobil kabi shaxslar haqida turli-tuman sarguzasht voqealar hikoya qilingan. Masalan: "Namrud hikoyati"da Namrud makru-hiyla bilan to'rtta karkas bolasi yordamida osmonga chiqib tushgani, "Nuh payg'ambarning kema safari hikoyati" da esa qanday qilib qaldirg'och odamlarni ilonlarga yem bo'lishidan saqlab qolganligi hikoya qilinsa, "Uzum hikoyatida" Nuh alayhissalom va Shayton orasidagi voqea tasvirlanadi (unda Shayton uzumni tulki, sher va to'ng'iz qoni bilan sug'oradi). "Uchar otlar hikoyati"da Sulaymonning qanday qilib uchar otlarni qo'lga kiritgani haqida ("Ey Samandun, Sulaymon o'ldi, devlar qutuldi" degan so'zlar ham shu hikoyatdan olingan), "Bilqis hikoyati"da Sulaymon va Bilqis orasidagi mojarolar haqida gap boradi (Bilqisning otasi Ahmad podsho, onasi farishta edi. Bilqis Sabo shahrida hokim edi, Hudhud uning husni jamoli, shonu shavkatlarini ta'rif va tavsif qiladi. Bilqis Rafi degan vazirni, Tab' degan kanizini Sulaymon huzuriga yuboradi va hok.).

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 03 May 2008, 13:33:07**

Pahlavon Mahmud (1247-1326)

Mashhur faylasf olim, insonparvar shoir, Xorazmda Najmiddin Kubrodan boshlangan javonmardlik tariqatining davomchisi, Sharqda nomi chiqqan pahlavon va pahlavonlarga ustozlik qilib, “Puryoyi vali” (aziz va mukarram) laqabini olgan. Mahmud 1247 yili Xiva yaqinida po’stindo’z oilasida tug’ilgan. U hayotda mardlik va jasurlikni, muhtojlarga beminnat saxovat ko’rsatish, o’zi uchun esa hech narsa tama’ qilmaslikni targ’ib etgan. Ko’hna Urganch va Xiva madrasalarida ta’lim olgan, kuragi yerga tegmagan bahodir sifatida shuhrat qozongan. Adib fors-tojik tilida ijod qilib, “Qitoliy” va “Puryoyi vali” taxalluslarini qo’llagan, po’stindo’zlik va telpakdo’zlik bilan shug’ullangan. U fors tilida “Qanzul-haqoyiq ” nomli masnaviy va ko’plab ruboiylar yozib, so’fiyona g’oyalarni bayon etgan. Shoir 1326 yilda ona shahrida vafot etadi. Hamshaharlari uning qabri ustida muhtasham maqbara tikladilar (maqbara devorlari peshtoqlariga uning ruboiylari badiiy naqsh sifatida tushirilgan). XIX asr boshlarida Muhammad Rahimxon II (Feruz) bu joyni ziyoratgohga aylantirgan. Pahlavon Mahmud ruboiylarini Imomiddin Qosimov (Ulfat), Omonulla Valixonov (Bokir), Muinzoda, Shoislom Shomuhamedov, To’xtasin Jalilov, Vasfiy, Matnazar Abdulhakim, Ergash Ochilovlar tarjima qilishgan.

Ruboiylaridan

namunalar:

Tuproq		to’shagida		yotgan		ko’p		ko’rdim,
Yer	qaro		bag’riga		botgan		ko’p	ko’rdim.
Yo’qlik			olamiga			ko’z		tashlaganda,
Kelmagan		ko’p		ko’rdim,	ketgan		ko’p	ko’rdim.

Ko’nglim		oppoq,		na		kek		va		na		kinam		bor,
Dushmanim			ko’p,		valekin			men				hammaga		yor.
Mevali			daraxtman,			har				bir				o’tkinchi,
Tosh	otib		o’tsa		ham			menga				bo’lmas		or.

Podsholik			istasang,			bo’l				el				gadosi,
O’zingni			unutu,			bo’l				el				oshnosi,
El	toj		kabi			boshga				ko’tarsin				desang,
El		qo’lin				tutginu				bo’l				xokiposi.

Oh	tortgan		chog’ingda		yo’lga		ko’z		tutgil,
Yo’lda		quduq		bordur,			ehtiyoting		qil,
Do’st	uyida		mahram			bo’lgan			vaqtingda,
Qo’lingni,		ko’zingni		dilni			til		bil.

Ul	qodirki	arzu	aflok	yaratdi,
Ko'ngilda	do'g,	dilni	g'amnok	yaratdi.
Mushkin	zulflarniyu		yoqut	lablarni,
Yerda	qorib	oxirda	xok	yaratdi.

Necha	yil	ilm-hunar	payida	bo'ldik,
Necha	yil	zar-zevar	payida	bo'ldik.
Olam	sirlaridan		bo'lganda	ogoh,
Bari ishni tashlab qalandar bo'ldik.				

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
 Jo'natildi: **Robiya dan 03 May 2008, 13:36:27**

Sayfi Saroyi (1321-1396)

Sayfi Saroyi g'azalnavis shoir, tarjimonidir. U 1321yilda Xorazmning "Qamishli" degan qishlog'ida hunarmand-qurolsoz oilasida tug'ilgan. Dastlabki bilimni o'z yurtida olgan Sayfi (bu so'zning ma'nosi "qilich" demakdir) o'qishni davom ettirish uchun Oltin O'rdaning markazi Saroyga boradi. Bu yerda u qunt bilan o'qib, shoir sifatida taniladi. Bu haqda uning o'zi quyidagilarni yozadi:

Qamishli	yurt	mening	tuvg'on	elimdi,
Biling,	g'urbatga		kelturg'on	bilimdi.
Kelib	bo'ldim	saroyda	she'r	fidoyi,
Saroyning	shoiri,		elning	gadoyi.

Urushlar tufayli Sayfi Saroyi dastlab Eronga, keyin Turkiyaga boradi. U umrining oxirlarida Misrga borib, o'sha joyda taxminan 1396 yilda vafot etgan. Shoirning bizgacha bir qancha g'azal, qasida, ruboiy, masnaviylari, "Suhayl va Guldursun" dostoni (hijriy 796(1394), 82 bayt (164 misra), hazaji musaddasi maqsur vaznida yozilgan), "Guliston bit-turkiy" ("Turkiy guliston", Sa'diy asarining erkin tarjimasini) asari (1391) yetib kelgan. Shoirning o'zbek adabiyotiga qo'shgan hissasi bebahodir. O'zidan oldingi yashab ijod etgan shoirlar ijodini o'rganib, Sayfi Saroyi quyidagi misralarda ijod maydonini bog' gulshaniga, shoirlarni esa shu bog'dagi qushlarga qiyos qilib, ikki guruhga ajratgan:

Jahon	shoirlari,	ey	gulshani	bog',
Kimi	bulbuldurur	so'zda,	kimi	zog'.

Shoirning "Iso mo'jizasi" hikoyatida qo'lidan kelmaydigan ish bilan shug'ullanmaslik g'oyasi ilgari suriladi. Hikoya qahramoni Iso (Iusus Xristos, laqablari: Ruhulloh, Masih (Masiho))dir. Iso mo'jizasi: o'likni tiriltirishdir. Masih – tiriltiruvchi, jon bag'ishlovchi degan ma'nolarni bildiradi.

Uning	“Gulistoni	bit-turkiy”	asari	8	bobdan	iborat:
1.“Sultonlar		haqidagi				hikoyatlar”
2.“Faqirlar	axloqi		haqidagi			hikoyatlar”
3.“Qanoatning	foydasi		haqidagi			hikoyatlar”
4.Sukutning	foydasi		haqidagi			hikoyatlar
5.“Ishqdagi	yigitlik	sifati	haqidagi			hikoyatlar”
6.“Qarilikdagi	zaiflik		sifatlari			haqida”
7.“Tarbiyaning		ta’siri				haqida”
8.“Suhbat		odoblari				haqida”.

Bu asardagi Saboni Voil haqidagi hikoya nutq odobi mavzusiga bag’ishlanadi.

She’rlari: “Topilmas husn mulkinda...”, “Ko’rinur”, “Bahor tasviri”, “Meningdek nechalar hayron”, “Ul yuzi oy”, “Qamar yuzingdan” kabi g’azallari, “Vasful shuaro” (Shoirlar vasfi) masnaviysi va boshqalar.

Keyingi mavzu: “XIV-XV asr adabiyoti namoyondalari”

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo’natildi: **Robiya dan 12 May 2008, 13:51:00**

Xorazmiy (XIV asr)

Shoir Xorazmiy hayoti haqida juda kam ma’lumotlar saqlangan. “Muhabbatnoma” degan yagona asari yetib kelgan bu adibning taxallusi o’z asarida qayd etilgan. Asar 754 (1353) yilda yozilgan bo’lib, 10 bobdan iborat bo’lib, u to’lig’icha hazaji musaddasi mahzuf vaznida yozilgan. Shoir bu asarda Muhammad Xo’jabekni madh etgan, g’azal, soqiynoma, munojot, qit’a, masnaviy, fard kabi janrlarni jamlagan. Xorazmiy “zullisonayn” (ikki tilli) shoirdir. Adib asarning ikki bobini forsiy tilda yaratgan. Mavjud 946 misraning 634 misrasi o’zbek, 312 misrasi fors – tojik tilida yaratilgan. “Muhabbatnoma” asari noma janri rivojida katta yutuq bo’lib, Xorazmiy ushbu asari bilan noma janriga asos solgan. “Muhabbatnoma” ta’sirida Yusuf Amiriyning “Dahnoma”, Xo’jandiyning “Latofatnoma”, Said Ahmad ibn Mironshohning “Taashshuqnoma” asarlari yuzaga kelgan. “Shakardek til bilan olamni tutgan” shoir muhabbatni zavq-shavq bilan kuylagan. “Muhabbatnoma” asarining 2 ta qo’lyozma nusxasi (uyg’ur va arab yozuvlarida) ma’lum bo’lib, ular Britaniya muzeyida saqlanadi.

Asardan parchalar:

Saodat `ma’dabi, iqbol ganji,

Muhammad	Xo'jabek	–	olam	gunji!
Agar Qiliching	desam birla	seni	Rustam, saflarni	yararsen, yorarsen.
Bo'yung Vafo qilg'on kishilarga vafo qil.	sarvu	sanubartek,	beling	qil,

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
 Jo'natildi: **Robiya dan 12 May 2008, 13:56:18**

Lutfiy (1366-1465)

Lutfiy o'z zamonasida boshqa shoirlar orasida yuksak mahorat va zukko iste'dodi bilan ajralib turgan. U taxminan 1366 yilda Hirot shahri yaqinidagi Dehikanor degan joyda oddiy oilada tug'ilgan. Shoirning o'z asl ismi Lutfulla bo'lib, Lutfiy uning adabiy taxallusidir. Bu nom bilan u mashhur shoir, ulkan so'z san'atkori sifatida Sharqda tanilgan. Lutfiy Navoiyning shoirlik istiqboliga zo'r umid va ishonch bilan qaragan. Navoiy "Majolis un-nafois" asarida "Mavlono Lutfiy ... o'z zamonasining malikul-kalomi erdi, forsiy va turkiyda naziri (ya'ni tengi) yo'q erdi, ammo turkiyda shuhrati ko'prak erdi va turkcha devoni ham mashhurdir..." deb shoirga yuksak baho bergan edi. Bundan tashqari bu tazkirada shoirning umri so'nggida "oftob" radifli she'r bitgani, barcha zamondosh shoirlar unga tatabbu' qilganliklari aytilgan. Oddiy, kamtarona umr kechirgan Lutfiy 1465 yil 99 yoshida vafot etgan va o'zi tug'ilgan Dehikanordagi bog'ga dafn etilgan.

Lutfiy fors va o'zbek tillarida 10-12 ming bayt ijod qilgan. Hozirgi kunda Lutfiy devonining 29 dan ortiq qo'lyozma nusxasi fanga ma'lum. Shoirning turkiy devonidan o'rin olgan lirikaning qasida, g'azal, ruboiy, tuyuq, qit'a, fard kabi janrlardagi she'rlaridan 49 dan ortiq, ya'ni 4560 misradan ko'proq qismi bizgacha yetib kelgan. Uning she'rlari ko'proq ishqiy bo'lib, uning har bir baytida bittadan xalq maqoli uchraydi. Lutfiy g'azalchilik an'anasiga ko'plab yangiliklar kiritgan adibdir. Uning "Sanga ne" g'azalida ilk marta suhbat – dialog usulini g'azalning boshidan oxirigacha davom ettirgan. Lutfiy Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarining o'zbek tiliga she'riy yo'l bilan ijodiy tarjima qilgan va doston yaratgan. "Gul va Navro'z" dostoni ham Lutfiyga nisbat berilar edi, lekin ma'lum bo'ldiki, bu dostonni Haydar Xorazmiy yozgan ekan.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
 Jo'natildi: **Robiya dan 12 May 2008, 14:01:36**

Qutb (XIV asr)

Qutb haqida juda kam ma'lumot yetib kelgan. U Xorazmda yashab ijod etgan. Shuning uchun Qutb Xorazmiy deb ham aytiladi. Qutb "Xusrav va Shirin" dostonini Sig'noq shahrida yozgan (1330-1340yy). Bu doston Oltin O'rda xoni O'zbekxon (1312-1342) ning o'g'li Tinibek va uning xotiniga bag'ishlangan bo'lib, Nizomiy Ganjaviyning shu nomli dostoni erkin tarjimai hisoblanadi. "Xusrav va Shirin" dostoni 4740 bayt, 91 bobdan iborat bo'lib, aruzning hazaji musaddasi maxbun bahrida yozilgan. Bu dostonning yagona qo'lyozmasi Parij Milliy kutubxonasida saqlanadi.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 12 May 2008, 14:06:06**

Atoiy (XIV asr oxiri – XV asr I yarmi)

Atoiy shirin kalom lirik shoir., majoziy ishq vasfidan ilohiy ishq lazzatini topolgan kishi. Xo'ja Ahmad Yassaviyning jiyani. A.Navoiy o'zining "Majolis un-nafois" asariuda shunday yozadi: "Mavlono Atoiy Balxda bo'lur erdi, Ismoil ota farzandlaridandur, darveshvasht va xushxulq, munosibat (ochiq ko'ngil) kishi erdi..."

Atoiy Mirzo Ulug'bek saroyida xizmat qilgan. Hozirgi Qozog'istonning Turbat qishlo'gida unga nisbat berilgan qabr bor. Chamasi uning hayoti Sayram, Balx, Samarqand, Hirot shaharlarida kechgan. Taxallusini mashhur shayx ota-bobolariga ishora qilib, "Ato" (ota) deb olgan. Uning bizgacha bir devoni yetib kelgan bo'lib, 260 g'azalni o'z ichiga olgan. Atoiy g'azallari 1958 yilda nashr etilgan.

G'azallari: "Jamolin vasfini", "Hosili umrim...", "Qon bo'ldi ko'ngil...", "Manga", "Ey do'st", "Qora ko'zlar", "Ul sanamkim" va boshqalar.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 28 May 2008, 10:32:32**

HAYDAR XORAZMIY (XIV asrning II yarmi – XV asrning boshlari)

Haydar Xorazmiy Xorazmda yashagan, og'ir vaziyatda hayot kechirgan. Hirotida birmuncha vaqt Umarshayxning o'g'li Sulton Iskandar huzurida falsafiy bilimlarni yaxshi bilgan. 1409-1414-yillari "Mahzan ul-asror" ("Gulshan ul – asror" deb ham ataladi) deb nomlangan falsafiy-didaktik dostonini yozgan va shahzoda Sulton Iskandarga bag'ishlagan. Doston hajmi 539 bayt bo'lib, asar 23 bob, 623 baytdan iborat. Dastlabki 7 bobi xudo, payg'ambarlar va xalifalar haqidagi a'anaviy

gaplardan, Sulton Iskandar madhidan iborat. Qolgan 16 bobi maqolat, ma'viza va hikoyatlardan tashkil topgan. Unda "Pulini yo'qotgan kishi hikoyati", "Bo'z to'quvchi kampir va bazzoz hikoyati", "Hotami Toyi hikoyati", "Mahmud G'aznaviy haqida hikoyat", "Xorun bilan Bahlul hikoyati", "Temurbek hikoyati" kabilar keltirilgan. BU doston asosan manba bo'lgan asar Nizomiy Ganjaviyning "Mahzanul-asror"idir. Asarning yaratilishi haqida shoir shunday deydi:

Menki	pishurdim	bu	laziz	oshni,
Shayx	Nizomiddin		olib	choshni.

"Bo'z to'quvchi kampir va bazzoz hikoyati"da qalloblik va ta'nmagirlik qoralanadi. Bu hikoyatda Xoja haqqparast darvishning istehzoli, kinoyali gaplaridan keyin haq yo'liga kiradi va tarkidunyo qiladi. Yangi ma'lumotlarga ko'ra "Gul va Navro'z" dostoni ham Haydar Xorazmiy qalamiga mansub.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 28 May 2008, 10:34:48**

"Gul va Navro'z " dostoni

Navshodning kekxa podshosi Farrux o'g'il ko'radi. Bola Navro'zda tug'ilgani uchun unga Navro'z deb ism beradilar. Navro'z aqlli, baquvat bo'lib yetishadi. U Farxor o'lkasining shohi Mushkinning qizi Gulni tushida ko'rib, sevib qoladi. Gul ham Navro'zni tushida ko'rib, uning ishqiga giriftor bo'ladi. Navro'z ko'p sarguzashtlarni boshidan kechirib, Farxorga yetib keladi. Biroq Mushkin Gulni Xitoy xoqoniga tortiq qilmoqchi bo'ladi. O'zaro ahdlashgan Gul bilan Navro'z Xitoy chegarasiga yaqinlashganda qochib ketadilar va sarguzashtlarni boshdan kechirib, bir daryoga keladilar. Dahshatli to'liqin sevishganlarni birbiridan ajratadi: Gul Adanga, Navro'z Yamanga tushib qoladi. Ikkalasi ham askar boshlig'i etib tayinlanadilar. Adam bilan Yaman o'rtasida urush boshlanadi. Yakkama-yakka jangda Gul Yamanlik pahlavon Bahromni yengadi. Jang maydoniga Navro'z chiqadi. U g'olib qahramon – Gul bilan olishishi kerak edi. Biroq Navro'z bilan Gul bir-birlarini tanib qoladilar, urush yarashga aylanadi. Navshod, Farxor, Adan va Yaman shohlari kengashadilar, to'rt davlatni birlashtirib, yagona davlat qilishga va Navro'zni shoh qilib ko'tarishga qaror qiladilar. Navro'z adolatli va ma'rifatparvar podsho bo'ladi.

(Obrazlar: Yaldo (qish mavsumidagi eng sovuq, uzun bva qorong'u kecha), Farrux (go'zal, baxtli muborak, qutlug' yuzli), Najd (yerning baland qismi, to'siq), Navro'z (yangi kun), Navjoz (xalqi go'zallik va chiroyi bilan mashhur bo'lgan shahar nomi), Farxor (orasta, chiroyli va shinam joy), Bahman (qishning eng ayoqli kunlari)).

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 28 May 2008, 10:35:38**

HUSAYN BOYQARO (1438-1506)

Husayn Boyqaro ham shoh, ham shoirdir. U Alisher Navoiy bilan zamondosh bo'lib, Navoiyga homiylik qilgan. Husayn Boyqaro 1438 yil Hirotida tug'ilgan. Otasi Mirzo Mansur ham, onasi Firuzabegim ham Temur avlodidan edilar. Shu sababli Z.M.Bobur uni "Karim ut-tarafayn" (ikki tomonlama ulug') deb atagan edi. U 1457 yil Abulqosim Bobur Mirzo vafot etgach, taxt uchun kurashga kirishdi va 1469 yil Hirotni egallaydi hamda temuriylar saltanatini 1506 yilgacha boshqaradi. 1490 yilda Husayn Boyqaro Moskvaga elchi yuborib, do's'lik va inoqlik haqida shartnoma tuzishni taklif etgan. Husayn Boyqaro shaxs sifatida mard, shijoatli, adolatli bo'lib, qilichbozlikda temuriylar orasida unga teng keladigani bo'lmagan, adabiyotni, san'atni sevgan. Kamchiligi esa maishatparast edi. U "Husayniy" taxallusi bilan she'rlar yozgan va undan bizga bir "Devon'i va "Risola" meros bo'lib qolgan. Devondagi she'rlarning ko'pchiligi ishq va may mavzusida bo'lib, g'azallarning hammasi bir vaznda – ramali musammani maqsur (foilotun foilotun foilotun foilun)da yozilgan.

Misol: Qilmagay erdim, yuzin ko'rmak tamanno,koshki,
 Solmag'ay erdim ko'ngil mulkiga g'avg'o koshki.

Husayniyning "Risola"si 1485 yilda yozilgan bo'lib, Olloh inoyat etgan podshohlik shukronasi bilan boshlanadi, unda muallif A.Jomiyni, A.Navoiyni hurmat bilan tilga olgan, ko'klarga ko'targan. Uning "Risola"sida ma'lumot berilishicha, Hirot va uning atrofida mingga yaqin kishi she'r bilan mashg'ul bo'lgan. U turkiy tilda asarlar yozish haqida maxsus farmon chiqargan. A.Navoiy Husayn Boyqaro she'riyatiga yuksak baho beradi. "Majolsi un-nafois" tazkirasida unga maxsus bir fasl ajratadi.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 28 May 2008, 10:36:13**

Muhammad Shayboniy (1451-1510)

Asl ismi Shohbaxt bo'lgan Muhammad Shayboniyxon Shayboniy sulolasining asoschisidir. U turkiy va forsiyda she'rlar yozgan, surat chizgan, musiqa bilan shug'ullangan, xushovoz qiroatxona bo'lgan. Yoshligida otasi Shoh Budog' vafot etib, ukasi Mahmud Sulton bilan birga bobosi Abulxayrxon qo'lida tarbiya topdi. Buxoroda ikki yil madrasada o'qidi. 1499-1504 yillarida Movarounnahrni Abusaid avlodlari qo'lidan tortib oldi. 1505 yilda Xorazmni, 1507 yilda Xurosonni egallab,

temuriylar hokimiyatga barham berdi. 1510 yil 10 sentabrda Murg'ob daryosi bo'yidagi Ismoil Safaviy qo'shini bilan bo'lgan jangda halok bo'ldi.

Sahyboniyxondan bizga bir "Devon" va "Bahr ul-hido" ("Hidoyat dengizi") nomli dostoni yetib kelgan. Uning devoni Istambulda To'pqori saroy muzeyida, 1508 yilda yozilgan dostoni esa Britaniya muzeyida saqlanadi. Shayboniyxonning she'rlaridan namunalar Muhammad Solihning "Shayboniynoma" asarida keltirilgan. Sahyboniyxon Najmiddin Kubroga bag'ishlab "Shahi shuhado" ("Sahidlar shohi") degan tarix-she'r ham yozgan. Shoir she'rlarida Samarqand va Buxoroning baland, ko'tarinki ta'rif beriladi.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 28 May 2008, 10:38:41**

Majlisiy (XIV asr oxiri – XV asr I yarmi)

Majlisiy asli Xorazmlik bo'lib, keyinroq Buxoroga ko'chib borgan. Ubaydullaxon va uning o'g'li Abdulazizxonov saroyida xizmat qilgan. "Mavlono Majlisiy – nadim va majlisaro kishi edi, - deydi Hasanxo'ja Nisoriy, - yaxshi ash'ori va marg'ub so'zlari bor. Qasidaları ko'p, yaxshi va lapar g'azallari bor." Shoirning she'rlari Boburga ham manzur bo'lgan. Uning 4 ming misralik "Qissai Sayfulmulk" nomli ishqiy-sarguzasht asari bizgacha yetib kelgan. Bu dostonning yetakchi mavzusi sevgi, vafo va sadoqat, do'stlik va ahillik, mardlik va qahramonlik kabi fazilatlarni madh etishdir. Asarni yaratishda shoir xalq og'zaki ijodidan keng foydalangan. Dostonning qahramonlari: Sayfulmulk, Misr shohi Osim, Yaman shohi Badeulasr, Sarondin shohi, Rabialmulk, Badeul jamol va boshqalar.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 28 May 2008, 10:39:24**

Gadoiy

"Xuloguxon zamonidin, sultoni sohibqiron temur Ko'ragon zamonidin farzandi xalafi Shohruh Sulton zamonining oxirigacha turk tili bilan shuaro paydo bo'ldilar. Va ul hazratning avlod va ahfodidan ham xushtab' salotine zuhurga keldi: shuaro Sakkokiy va Haydar Xorazmiy va Atoiy va Muqimiy va Yaqiniy va Amiriy va Gadoiylardek".

Alisher Navoiy.

Gadoiy XV asrda yashab ijod etgan. Shoir haqida ma'lumot Navoiyning "Majolis

un-nafosi” tazkirasidagina mavjuddir. Bundagi ma’lumotlarga asoslanib Gadoiyni taxminan 806 (1403-1404) yilda tug’ilgan deyish mumkin. Gadoiyning yagona devoni Parij milliy kutubxonasida saqlanadi. Shoirning g’azallari asosan Surud vazni (ramali musammani maqsur) da bitilgan bo’lib, ularda sof muhabbat, vafo, visoldan g’oyat sevinish kabi insoniy tuyg’ular ifodalangan.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 28 May 2008, 10:40:21**

Sakkokiy

Atoqli lirik shoir Sakkokiyning hayoti va faoliyati haqida juda oz ma’lumot saqlanib qolgan. Sakkokiyning o’z devonida, Navoiyning “Majolis un-nafois” , “Muhokamat ul-lug’atayn”, “Xutbai devon” kabi asarlarida uning XV asrda yashab ijod qilganligi ma’lum bo’ldi. Shoir Yaqiniy o’zining “O’q va yoy” munozarasida Sakkokiyni “Turk shoirlarining mujtahidi(g’ayratlisi)” deb ta’riflaydi. Sakkokiy shoirning taxallusi bo’lib, “Sakkok” (pichoq) so’zidan olingan. Shoir ijodi Ulug’bek hukmronligi davrida kamol topdi. Sakkokiy Ulug’bekka bag’ishlab yozgan qasidasida shunday yozadi:

Salotin	dunyoda	ko’p	keldiyu	ketdi,	seningtek	bir,
Falakning	gar	tili	bo’lsa,	aytsunkim,	qachon	keldi?

Sakkokiy Muhammad Porsoga, Xalil Sultonga, Mirzo Ulug’bekka, Arslonxo’ja Tarxonga bag’ishlab qasidalar, oshiq yor va raqib obrazlari yaratilgan go’zal ishqiy g’azallar yozgan. Sakkokiy devonining bir necha qo’lyozma nusxalari ma’lum bo’lib, ular Londonda, Britaniya muzeyida, Toshkent Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda.

Keyingi mavzu: Sharq uyg'onish davri qomusiy olimlari (IX-XII asr)

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 02 Iyun 2008, 20:32:51**

Abu Nasr Forobiy (873-950)

Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn O’zlug’ Tarxon Forobiy 873 yilda Forobda tug’ilgan. Dunyo ahli Arastuni birinchi muallim deb bilishsa, Forobiyni «Muallimus-soniy», ya’ni «Ikkinchi muallim» deb atashgan. Boshlang’ich ma’lumotni ona yurtida olgan, keyin Toshkent, Buxoro, Samarqandda o’qigan, Bag’dod, Isfahon, Hamadon, Ray shaharlarida bo’lgan.

Forobiy 70 dan ortiq tilni bilgan, falsafa, arifmetika, geometriya, astronomiya, musiqa, tabiat, fizika, kimyo, optika, tibbiyot, biologiya va boshqa fanlar sohasidagi kashfiyotlari bilan katta shuhrat qozonib, 160 dan ortiq asar yozgan. Bizgacha 40 ga yaqin asari yetib kelgan. Forobiy 950 yilda Damashqda vafot etgan.

Asarlari: «Arastu qonunlarining mohiyati haqida», «She'r san'ati haqida» (Arastuning «Poetika» asariga sharh sifatida yozilgan risola), «Fozillar shahri aholisining fikrlari», «Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi», «Baxt-saodatga erishuv haqida risola» va boshq.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 02 Iyun 2008, 20:34:27**

Al-Xorazmiy (780-850)

Abu Abdulla Muhammad ibn Muso 780 yilda Xivada tug'ilgan. Xorazmiy dunyoga mashhur matematik va astronom sifatida tanilgan. Uning nomini tarixda qoldirgan buyuk asar «Al jabr val-muqobala» risolasidir. Olim 850 yilda Bag'dod shahrida vafot etgan. Al-Xorazmiy Ma'mun akademiyasining ilk tashkilotchilaridan va eng faol a'zolaridan biri edi.

U al-Farg'oniy bilan Bag'dodda rasadhona qurishga boshchilik qildi. Rasadhonadagi asboblarni yordamida koinot sirlarini va Yer kurrasini o'rgandi. Al-Xorazmiy va Al-Farg'oniy boshchiligidagi olimlar 1000 dan ortiq yulduzlarni tekshirdilar hamda ularning joylanish xaritasini tuzdilar. Yer kurrasining aylana uzunligini aniqladilar.

Xorazmiy "Surat al-arz" ("Yer suvrati") nomli kitobida Afrika, Osiyo va Yevropa qit'alarini aniq tavsiflagan. Koinot sirlarini o'rganishga oid ijodlari uning "Ziji" ("Astronomiya") kitobida bayin etilgan.

Asarlari: «Yerning surati», «Astronomik jadvallar», «Tarix risolasi», «Musiqa risolasi», «Mafotixul-ulum» («Ilmlarning kalitlari», 9 kitobdan iborat), «Kuyosh soatlari to'g'risida», «Hind arifmetikasi haqida kitob», «Sinus zijlari», «Yer sathini o'lchash» va boshq.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 02 Iyun 2008, 20:35:58**

Ahmad Al-Farg'oniy (797-865)

Buyuk alloma Ahmad Farg'oniy Farg'onada tug'ilgan. IX asrda yashab ijod etgan. Uning asl ismi Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oniydir.

Allomaning ijodiy faoliyati Bag'dod bilan, Al-Xorazmiy rahbarligida faoliyat ko'rsatgan «Baytul hikma» bilan bog'liq. Farg'oniy Bag'dod va Damashqtsagi rasadxonalar qurilishiga qatnashgan, Ptolomey «Yudduzlar jadvali» dagi ma'lumotlarni tekshirgan, 812 yilda quyosh tutilishini oldindan bashorat qilgan, Yerning dumaloq ekanligini ochgan, Misrda Nil daryosi suvini o'lchaydigan asbob yasagan, falakiyot ilmiga munosib hissa qo'shgan. Yevropaliklar allomani «Al Fraganus» deb atashgan. Uning 7 ta asari saqlanib qolgan. 1998 yilda Farg'oniyning 1200 yilligi xalqaro miqyosda nishonlandi. Kuva shahrida unga haykal o'rnatildi va istirohat bog'i barpo etildi.

Asarlari: «Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi» («Astronomiya asoslari»), «Falakiyot ilmining usullari haqida kitob», «Usturlob yasash haqida kitob», «Yetti iqlim hisobi» boshq.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 02 Iyun 2008, 20:37:49**

Abu Rayhon Beruniy (973-1048)

Beruniy 973 yil 4 sentyabrda Xorazmning Qiyot (Kat) shahrida dunyoga kelgan. Dastlabki ta'limni ona shahrida olgan, mashhur olim Abu Nasr ibn Ali Iroqdan ilmi nujum, riyozat kabi fanlardan dars oladi. U 17 yoshida ilk astronomik kuzatishlarni o'tkazadi. U 150 dan ortiq ilmiy asarlar yozadi. Buyuk bobokalonimiz 1048 yil 13 dekabrda G'aznada vafot etgan. «Berun» yoki «Birun» so'zi «tashqari» degan ma'noni anglatadi.

Ma'lumotlarda yozilishicha uning 152 ta kitobining nomi na'lum. Bizgacha ulardan 27 tasigina yetib kelgan. Uning bir qancha kitobi tabiiyot ilmiga bag'ishlangan. Bu sohaning rivojlanishida Beruniyning tabiiyot va tabiat hodisalarini o'rganish usullari, harakat, tovush, issiqlik, yorug'lik, elektr, magnetizm, atmosferadagi hodisalar, modda tuzilishi haqidagi ijodiy ishlari katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Beruniyning o'sha davrda yaratgan kashfiyotlaridan biri - globus ixtiro etganligidir.

U Quyosh atrofida sayyoralar aylanishini, Yer esa ana shu sayyoralardan biri ekanligini aytadi.

Asarlari: «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» (taqvim va yil hisobi, shuningdek, sugʻdiylar, qadimgi xorazmliklar, forslar, yunonlar, yaxudiylar, xristianlar va musulmonlarning bayramlari, urf-odatlar toʻgʻrisida maʼlumot beruvchi asar), «Geodeziya», «Quyosh harakatini aniqlash yoʻli», «Mineralogiya», «Saydana», «Hindiston» va boshq.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Joʻnatildi: **Robiya dan 02 Iyun 2008, 20:41:14**

Abu Ali ibn Sino (980-1037)

Buyuk daho Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali ibn Sino hijriy 370 (milodiy 980) yilda Buxoroning Afshona, hozirgi Isfana qishlogʻida tugʻilgan. U yoshligidanoq oʻtkir zehni va ilmga qiziqishi bilan hammani lol qoldirardi. Ibn Sino An-Notiliy qoʻlida tarbiya oladi. U astronomiya, falsafa, matematika, fizika, kimyo, tibbiyot, mantiq, adabiyot, mineralogiya va boshqa fanlar bilan shugʻullangan. 10 yoshida Qurʼonni yod olgan, 16 yoshdayoq atoqli tabib boʻlgan. U Buxoro amiri Nuh ibi Mansurni davolab, saroyning boy kutubxonasidan foydalanish huquqini qoʻlga kiritgan.

Ibn Sino 1002 yilda Buxorodan chiqib ketadi, Urganch, Obivard, Naso, Nishopur, Jurjon, Ray, Isfahon, Hamadon kabi shaharlarda boʻladi. U 1037 yilda (hijriy 428) 57 yoshida Hamadon shahrida vafot etadi. Mutafakkirning turli fanlarga oid 450 dan ortiq ilmiy asarlar yaratganligi maʼlum. Biroq bizgacha Ibn Sinoning 242 ta asari yetib kelgan. Shulardan 4 tasi adabiyotga, 5 tasi musiqaga, oʻndan ortigʻya astronomiyaga oid asarlardir va hok.

Ibn Sino Sharqda «Shayxur-Rais», Gʻarbda esa «Avitsenna» nomi bilan mashhur. «Yusuf qissasi» Qurʼon syujeti asosida yozilgan birinchi asar boʻlib, ramziy-majoziy usuldadir. «Rasolat - at tayr» («Qush risolasi»), «Uygʻoq oʻgʻli Tirik» («Hayy ibn Yaqzon») kabi asarlari ham ramziy-majoziy uslubda, «Salomon yea Ibsol» esa ishqiy-sarguzasht asardir. Ibn Sino shoir sifatida doston, qasida, gʻazal, ruboiy, fardlar yaratgan. Uning sheʼrlarida ilm-maʼrifatga daʼvat, dunyo sirlarini bilishga intilish, yaxshi axloqiy xislatlarni egallashga chorlov asosiy oʻrin tutadi. Sheʼriyatning nazariy masalalari uning «Musiq ilmidan katta toʻplam» asarida ham tadqiq etilgan. «Sheʼr obrazli soʻzlardan iborat boʻlib, ritmli, bir-biriga muvofiq iboralardan tarkib topgan hamda misralari bir-biriga teng, vaznlari takrorlangan, oxirgi tovushlar bir-biriga oʻxshash boʻlib kelgan satrlarga aytiladi», - deydi Ibn Sino. U tibbiy yoʻl-yuriqlarni, koʻrsatmalarni sheʼriy yoʻl bilan bayon etgan. Bular urjuzalar deb atalgan. Bungʻa sabab ularning rajaz vaznida yozilganidir.

Asarlari: «Kitob ash-shifo», «Donishnoma», «Kitob al-qonun fi-t-tib» («Tib qonunlari kitobi»), 5 kitob, 14 jildidan iborat boʻlgan), «Salomop va Ibsol», «Yusuf qissasi», «Risolat at-tayr» («Qush risolasi»), «Uygʻoq oʻgʻli Tirik», «Tibbiy

urjuza», «Faan ash-she'r» («She'r san'ati», she'r. ilmi, yunon she'riyatining tur va shakllari haqida), «Musiqqa ilmida katta to'plam» va boshq.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 08 Iyun 2008, 17:14:08**

"Xamsa"chilik tarixidan

«Xamsa» - «beshlik» degani. U beshta mustaqil dostonidan iborat bo'lib, har bir doston ma'lum bir voqeani, mavzuni keng hamda atroflicha masnaviy yo'li bilan yoritib beradi. Har bir asar «Xamsa» atalmog'i uchun:

- a) besh dostonidan tashkil topmog'i;
- b) birinchi doston, albatta, pand-nasihat ruhidagi ta'limiy-axloqiy, falsafiy bo'lmog'i;
- v) ikkinchi doston Xusrav va Shirin mojarolariga bag'ishlanmog'i;
- g) uchinchi doston Layli va Majnun muhabbatini mavzu qilib olmog'i;
- d) to'rtinchi doston Bahrom haqida bo'lmog'i;
- e) beshinchi doston Iskandar haqida yozilmog'i shart edi.

Sharq adabiyotida Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar «Xamsa» yaratishgan.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 08 Iyun 2008, 17:21:53**

NIZOMIY GANJAVIY

(1141 - 1143 yillar orasida tug'ilgan, vafoti - 1209 yil)

Abu Muhammad Ilyos binni Yusuf Nizomiy hozirgi Ozarbayjonning Ganja shahrida tug'ilgan. Uning hayoti haqida juda kam ma'lumot qolgan. Nizomiy fors, arab, yunon, qadimgi pahlaviy, sanskrit va boshqa ko'p tillarni bilib, falsafa, mantiq, ilohiyot, adabiyotshunoslik, ximiya, astronomiya, matematika singari fanlarni puxta bilgan. Nizomiy Ofoq nomli xotinidan tug'ilgan o'g'li Muhammadni ilm-ma'rifatli qilib tarbiyalagan, dostonlarida o'z o'g'liga nasihatlar qilgan.

Nizomiy Ganjaviy Sharq adabiyotida birinchi bo'lib «Xamsa» yozgan. U yozma adabiyotda birinchi bo'lib Mehinbonu obrazini yaratgan. Nizomiy asarlari boshqa shoirlar ijodiga ta'sir qilgan. Masalan, shoir Haydar Xorazmiy «Mahzanul-asror» dan ilhomlanib, «Gulshanul-asror» asarini yozgan. Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi shoirlar «Xamsa» chilik an'anasini davom ettirganlar.

«Xusrav va Shirin» dostonini 1341 yilda Qutb, «Xaft paykar» asarini Ogahiy tarjima qilgan. Navoiydan tortib barcha o'zbek shoirlari Nizomiyni ustoz deb bilishgan.

Asarlari: «Xamsa» («Panj ganj» («Besh xazina»), 1173 - 1201 yillar orasida yozilgan. Unda quyidagi dostonlar bor: 1. «Mahzanul asror» («Sirlar xazinasini», 1173 - 1179 yillarda Arzinjon hokimi Faxriddin Bahromshohga bag'ishlab yozilgan), 2. «Xusrav va Shirin» (1180-1181, bu doston Iroq hukmdori To'g'ul II ning iltimosiga ko'ra yozilgan bo'lib, muhabbat va qahramonlikni ifodalaydi), 3. «Layli va Majnun» (1188, unga 118 ta nazira bitilgan. Bu asar Shirvonshohlardan Axsatan 1 buyrug'iga ko'ra yozilgan), 4.«Xaft paykar» («Yetti go'zal», bu asar 1196 yilda Alovuddin Ko'rpa Arslonning topshirig'i bilan yuzaga kelgan. «Haft paykar» Bahrom va Fitna sarguzashtlariga bag'ishlangan asar bo'lib, doston voqealariga bog'lanmaydigan besh hikoya berilgan. Nizomiyning bu dostonidagi daraxt shoxiga osib qo'yilgan it hikoyasida Bahromshoh xiyonatkorlikdan, adolatsizlik kuchayayotganidan ogohlantiriladi. Asar so'nggida Bahrom ov izidan g'orga kirib ketib qaytib chiqmaydi), 5. «Iskandarnoma» (1196-1201, bu doston 2 qismdan iborat: a) Sharafnoma b) Iqbolnoma).

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 08 Iyun 2008, 17:25:54**

XUSRAV DEHLAVIY
(1253 - 1325)

Yamuniddin Abulhasan Amir Xusrav ibni Amir Sayfuddin Mahmud Dehlaviy 1253 yilda Hindistonning Patyoli degan shaharchasida dunyoga keladi. Uning otasi asli shahrisabzlik bo'lib, avlodi turkiy elatlarning lochin urug'idan bo'lgan. Ammo u mo'g'ullar hujumining dastlabki yillaridayoq tarki vatan etib, Dehli hukmroni Shamsiddin Eltutmish saroyiga xizmatga kiradi va 1261 yilda mo'g'ullarga qarshi jangda halok bo'ladi.

Xusrav Dehlaviy bobosi Imodulmulk qo'lida tarbiyalandi, Qozi Sa'duddin Muhammad ta'limini oldi. 20 yoshida Xusrav iste'dodli shoir, qomusiy bilim sohibi - olim, sozanda va bastakor bo'lib yetishdi. U umri davomida 7 hukmdorning dargohida xizmat qilib, umrining oxirgi 30 yilini Dehlida o'tkazadi. Ulug' shoir 1325 yili Dehlida vafot etgan. Xusrav Dehlaviyning she'rlari 5 ta devonga jamlangan bo'lib, u 400000 dan ortiq bayt ijod qilgan. Abdurahmon Jomiyning ta'kidlashicha, Xusrav Dehlaviy 99 ta kitob muallifidir. Dehlaviy Nizomiy «Xamsa» siga hammadan yaxshiroq javob aytgan shoirdir.

Asarlari: «Xamsa» (1299-1301, uning tarkibida quyidagi 5 doston mavjud: 1. «Matla' ul-anvar» («Nurlarning boshlanmasi»), 2. «Shirin va Xusrav», 3. «Majnun

va Layli», 4. «Hasht behisht» («Sakkiz jannat», Ogahiy tarjima qilgan. Husrav Dehlaviy "Hasht behisht" dostonining Nizomiy "Haft paykar" idan farqlari shundaki, unda kanizakning nomi Dilorom deb o'zgartirilgan, yetti hikoya hind eposidan olingan), 5. «Oyinayi Iskandariy» («Iskandar oynasi»)), «Tuhfat us-sig'ar» («Yoshlik tuhfası»), «Vasat ul-hayot» («Hayot o'rtasi»), «G'urrat ul-kamol» («Kamolot ibtidosi»), «Baqiyai naqiya» («Saralarning sarasi»), «Nihoyat ul-kamol» («Kamolot cho'qqisi»), «Qiron us-sa'oayn» (Ikki saodatli sayyoraning qo'shilishi), «Miftoh ul-futuh» («G'alabalar kaliti»), «Xazoyin ul-futuh» («G'alabalar xazinalari»), «Duvalroniy va Xizrxon», «Nuh sipehr» («To'qqiz qavat osmon»), «Tug'uluqnoma», «Tarixi Dehli», «E'jozi Xusraviy («Xusrav mo'jizasi») va boshq.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 08 Iyun 2008, 17:28:25**

ABDURAHMON JOMIY
(1414-1492)

Ulug' fors-tojik shoiri va mutafakkiri Abdurahmon Jomiy 1414 yil 7 noyabrda Xurosonning Jom shahrida shayxulislom - Nizomiddin Ahmad oilasida tug'ilgan. Jomiy go'dakligida uning oilasi Hirotda ko'chib boradi.

Shoir dastlab maktabda, keyin Hirotdagi Dilkash va Samarqanddagi Ulug'bek madrasalarida ta'lim oladi. Mavlono Junayd qo'lida, keyinroq Shahobiddin Muhammad Jojarmiy va Aloiddin Ali Samarqandiylardan ta'lim olgan.

Abdurahmon Jomiy Samarqandga kelib Qozizoda Rumiy darslariga qatnashgan. U til, adabiyot, falsafa, matematika, astronomiya, huquq va boshqa fanlar bilan shug'ullangan. Din va tasavvufni sinchkovlik bilan o'rgangan. Jomiy Shayx Sa'diddin Koshg'ariydan tasavvuf bo'yicha ta'lim olgan. Abdurahmon Jomiy 1492 yil 8 noyabrda Hirotda vafot etgan.

A. Jomiy Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonining muqaddimasida filga qiyoslab madh etilgan.

Asarlari: «Xaft avrang» («Yetti taxt», dastlab «Xamsa». Unga «Silsilat uz-zahab» («Oltin zanjir», 1472), «Salomon va Absol» (1480-81), «Tuhfat ul-ahror» («Hur kishilarning tuhfası», 1481-82), «Sabhat ul-abror» («Yaxshi kishilarning tasbihi», 1482-83), «Yusuf va Zulayho» (1483), «Layli va Majnun» (1483), «Xiradnomai Iskandariy (1485) kabi dostonlar kirgan), «Bahoriston» (o'g'li Ziyovuddin Yusuf uchun yozgan), «Aruz haqida risola», «Arab tili darsligi», «Ruboiy sharhi», «Munshaot», «Qofiya haqida risola», «Naqshi fusos» («Javohirlar naqshi»), «Lujjat ul-asror» (qasida), «Nafohatul-uns («Do'stlik tarovati») va boshq.

ALISHER NAVOIY
(1441 - 1501)

Asl ismi Nizomiddin Mir Alisher. U Hirotida tug'ilib, shu yerda umrining asosiy qismini o'tkazgan. Navoiyning otasi G'iyosiddin Bahodir temuriylar xonadoniga yaqin bo'lgan. She'r zavqi va iste'dodi erta uyg'ongan. Bolalikdayoq Farididdin Attorning "Mantiqut-tayr" asarini yod olgan, Sharafiddin Ali Yazdiy nazariga tushgan, Mavlono Lutfiy yosh shoir iste'dodiga yuqori baho bergan, Kamol Turbatiy e'tirofini qozongan. Husayn Boyqaro Xuroson taxtiga o'tirgach (1469), Navoiy hayoti va ijodida yangi bosqich boshlanadi, muhrdorlik (1469) mansabiga, vazirlik (1472) va Astrobod hokimligi (1487)ga tayinlanadi. 1480-1500 yillar mobaynida o'z mablag'lari hisobidan bir necha madrasa, 40 rabot (safardagi yo'lovchilar to'xtab o'tish joyi), 17 masjid, 10 xonaqoh, 9 hammom, 9 ko'pri, 20 ta hovuz qurdiradi. Husayn Boyqaro Alisher Navoiyga "muqarrabi hazrati sultoni" ("sulton hazratlarining eng yaqin kishisi") degan unvonni beradi. Unga ko'ra Navoiy davlatning barcha ishlariga aralasha olardi.

Navoiy ijodi ixlosmandlari uning she'rlarini yig'ib, "Ilk devon" (1464-65) tuzgan edilar, so'ngra "Badoyiul-bidoya" ("Go'zallikning boshlanishi"), "Navodirun-nihoya" ("Nodirliklar nihoyasi") nomli devonlar (1470-yillar) tartib berilgan. Lirik merosi umumiy hajmi 50000 misradan ortiq "Xazoyinul-maoni" nomli to'rt devon (1491-1498)ga jamlangan. Navoiy she'riyatining mavzular doirasi keng, janrlar ko'lam (16) xilma-xil. G'azallari "oshiqona, orifona, rindona" (Shayxzoda) sifatlar bilan o'rganiladi. G'azallarida insoniy muhabbat, ilohiy ishq bilan uyg'un holda ulug'lanib, "majoz - haqiqat ko'prigi" aqidasiga amal qilingan. Alisher Navoiy she'riyatidagi zohiriy ma'no yangiliklari bilan birga botiniy sifatlarni ham o'rgangandagina ularni idrok etishga erishish mumkin.

"Nazmul-javohir" (1485) Hazrat Alining "Nasrul-laoliy" asarining turkiy nazmga solingani bo'lib, 266 ruboiydan iborat bu asarda axloqiy-ta'limiy qarashlar o'z aksini topgan.

Alisher Navoiy ijodining yuksak cho'qqisi "Xamsa" asari (1483-85)dir, shoir birinchilardan bo'lib, turkiy tilda to'liq "Xamsa" yaratdi va turkiy tilda shunday ko'lamdor asar yozish mumkinligini isbotlab berdi.

"Xamsa" tarkibiga "Hayratul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy" kabi dostonlar kiradi.

Navoiyning tasavvufiy qarashlari deyarli barcha asarlarining ruhiga singgan bo'lsa-da, maxsus "Lisonut-tayr" dostoni(1499)da, "Nasoyimul-muhabbat"

manqabasi”(1495-96)da, “Tarixi anbiyo va hukamo”(1485-8), “Arbain”, “Munojot” singari asarlarida aks etgan. (To'liqroq: www.literature.uz)

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 21 Iyun 2008, 03:49:25**

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
(1483 - 1530)

Ulug' o'zbek shoiri, mutafakkir, tarixchi va davlat arbobi; markazlashgan davlat va boburiylar saltanati asoschisi. Zahiriddin Muhammad Bobur Andijon (1483 y. 14 fevral)da tug'ildi. Amir Temurning beshinchi avlodi, Farg'ona hukmdori Umarshayxning farzandi. Bobur 12 yoshda (1494) taxtga chiqdi. 1503-1504 yillarda Afg'onistonni egalladi. 1519-1525 yillarda Hindistonga 5 marta yurish qiladi. Uch asrdan ortiq davom etgan (1526-1858 y.y.). boburiylar saltanatiga asos soldi dekabrda Agra (1530 y. 26 dekabr)da vafot etdi. Qabri keyinchalik vasiyatiga ko'ra Qobulga ko'chirilgan.

Lirik merosi “Qobul devoni” (1519)ga, 1528-29 yillarda “Hind devoni” ga jamlangan. To'liq devon tuzgani haqida ma'lumot bor. She'rlarining umumiy hajmi 400 dan ortadi. Shundan 119 g'azal, 231 ruboiy va tuyuq, qit'a, fard, masnaviy kabi janrlarda asarlar yaratgan. She'rlarini mavzu jihatidan oshiqona, ta'limiy, tasavvufiy, hasbi hol kabi turlarga ajratish mumkin. Bobur she'riyati intellektual qalb izhori sifatida arqoqlidir. Uning asarlari samimiy, ravon, usluban tugal va mushakkaldir. Bobur ruboiy janrini turk adabiyotida dunyoga olib chiqqan shoiridir.

Boburning ulug' asari “Boburnoma” bo'lib, uni “Vaqoe” deb ham nomlaydilar. Buyuk memorial asarda 1494-1529 yillari Markaziy va Kichik Osiyoda, Yaqin va O'rta sharq mamlakatlarida kechgan voqealar bayon etilgan. “Boburnoma”ning o'ndan ortiq qo'lyozma nusxalari bor. Asarni Qozonda N.I. Ilminskiy (1857), Londonda Beverij xonim nashr (1905) etgan. O'zbekistonda dastlab professor Fitrat 1928 yilda asardan parchalar e'lon qildi. “Boburnoma”ning 1948-1949 yillarda ikki jildli; 1960, 1989 yillarda tuzatilgan, 2002 yilda to'ldirilgan qayta nashri amalga oshirildi.

“Boburnoma”ni Abdurahim xoni xonon (1586) fors tiliga, Vitsen (1705) golland tiliga, J.Leyden (1826) va V.Erskin ingliz tiliga, Pavel de Kurteyl (1871) fransuz tiliga, Rashit Rahmati Arat (1940) turkchaga, Mixail Sale (1943) ruschaga tarjima qilganlar. 1826-1985 yillar davomida “Boburnoma” 4 marta ingliz (1826,1905,1921,1922), 3 marta fransuz (187, 1980, 1985), 1 marta nemis (1878) tiliga o'girilgan.

Yangi alifbo-“Xatti Boburiy”ni (1504) kashf qildi. Unda she’rlar yozdi va Qur’on ko’chirtirdi.

Boburning soliq ishlari haqida ma’lumot beruvchi “Mubayyinul-zakot” (1521), aruz vazni haqidagi "Risolai aruz" (1523-25) kabi asarlari bor. “Aruz risolasi”da turkiy aruzning tabiati, taraqqiyoti va she’riy asarlardagi ko’rinishlari; aruzning 272 vazni va 21 bahriga ilmiy sharhlar berilgan. Xoja Ahror Valining “Volidiya” asarini o’zbekchaga she’riy tarjima qilgan. Boburning “Harb ishi”, “Musiqqa ilmi” nomli asarlar yaratgani haqida ham ma’lumot bor. Ammo, ular topilgan emas.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 21 Iyun 2008, 03:54:30**

SO'FI OLLOHYOR
(1644 - 1721)

Yirik o'zbek adibi, tasavvuf adabiyotining namoyandasi. Samarqandning Minglar qishlog'ida (1644) tug'ilgan. O'n yoshlarida Buxoroga o'qishga boradi, 25 yoshida Buxoro bojxonasida bojgir bo'lib ishlaydi. Keyinroq Shayx Navro'z qo'lida 12 yil tahsil oladi. 1721 yilda Surxondaryo Vaxshivorda vafot etadi. Qabri o'sha yerda.

So'fi Ollohyorning “Maslakul-muttaqiyn” (“Taqvodorlar maslagi”), “Sabotul-
ojizin”, “Maxzanul-mute'in” (“Mute'lar xazinası”), “Murodul-orifin” asarlari
mavjud. “Bayozi alamkash”da 73 she'ri bor.

So'fi Ollohyorning mashhur asari “Sabotul-
ojizin” bo'lib, Saudiya Arabistoni, Pokiston, Turkiya kabi mamlakatlarda chop etilgan. Bir necha marta sharhlar yozilgan. Asar dastlab fors-tojik tilida yozilgan. Keyinchalik So'fi Ollohyorning o'zi uni o'zbek tiliga she'riy uslubda tarjima qilgan. Hajmi 12.000 baytdan ortiq “Sabotul-
ojizin” asarining tuzilishi ham o'ziga xos.

“Maslakul-muttaqiyn” asari naqshbandiya tariqati mujadiddiya qo'li (tarmog'i)ning nazariy manbasi hisoblanadi. Unda suluk odobi, murid va murshid munosabatlari yangicha talqinda bayon qilingan.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 27 Iyul 2008, 15:39:45**

Boborahim Mashrab
(1653 - 1711)

Ulug' o'zbek shoiri, tasavvuf adabiyotining yetuk namoyandasi Boborahim Mashrab Mulla Vali oilasida (1653) dunyoga kelgan. Mullo Bozor Oxund qo'lida

o'qiydi. 1665 yilda Qashqarga Ofoq Xo'ja huzuriga borib bilimni yanada chuqurlashtiradi. 1673 yildan boshlab umrining oxirigacha qalandarlarcha hayot kechiradi. Balx hokimi Mahmud Qatag'on tomonidan (1711) dorga osiladi.

Majzub Namangoniyni "Tazkiratul-avliyo", Ishoq Bog'istoniyni "Tazkirai qalandaron", Maleho Samarqandiyni "Muzakkiri asxob" kabi tazkiralarda, Hakimxon to'raning "Muntaxabut-tavorix", Mirzo Olimning "Ansobus-salotin" asarlarida ham shoir haqida ayrim ma'lumotlar uchraydi. Mashrab haqida mukammalroq tasavvur hosil qiluvchi manba "Qissai Mashrab" ("Shoh Mashrab", "Devonai Mashrab" nomlari bilan ham uchraydi)dir. Uning ko'pgina qo'lyozma va toshbosma nusxalari mavjud.

Mashrab asarlari bir necha marta chop etilgan (1958, 1960, 1963, 1971, 1979, 1990). Shoir merosi "Qissayi Mashrab" orqali yetib kelgan. Asarda Rindiy, Umar, Mahvash, Zinda va Mansur taxalluslari ham uchraydi.

"Mab dai nur" va "Kimyo" asarlari muallifligi borasida munozara mavjud. 1997 yilda "Mab dai Nur" (Jaloliddin Rumi "Masnaviyi ma'naviy" siga sharh) Boborahim Mashrabning asari sifatida chop etildi.

Mashrab ijodi haqida rus sharqshunoslari N.I.Veselovskiy, N.S.Likoshin, V.L.Vyatkin; o'zbek adabiyotshunoslari Izzat Sulton, V.Zohidov, I.Mo'minov, G'afur G'ulom, A.Hayitmetov, V.Abdullaev, A.Abdug'afurov, E.Shodiev, I.Abdullaev, J.Yusupovning tadqiqot va maqolalari bor.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 27 Iyul 2008, 15:44:27**

Turdi Farog'iy

Turdi Farog'iy Buxoro adabiy muhitining yirik vakillaridan biridir. U XVII asr o'rtalari-XVIII asr boshlarida yashab ijod qilgan. Turdining hayotiga oid ma'lumotlar juda kam saqlanib qolgan. Turdining hayot yo'li o'sha davr shohlarining ichki nizolari tufayli ko'plab dilxiraliklar bilan o'tdi. U Rahimbiy va Norbo'tabiy kabi hukmdorlarni ko'rdi. Ulardan o'ziga, yurtiga, xalqiga saodat tilab, ko'p bora himmat va saxovat so'radi. Ammo sarson-sargardonlikdan o'zga farog'at ko'rmadi. Shoirning she'rlarida isyonkorlik ruhi kasb etishi o'sha davr muammolari bilan bog'liqdir. U amalda janggohga aylangan jamiyatda ko'rgan-kechirganlarini o'z she'rlarida yoritdi. Turdi Farog'iyning ijtimoiy-madaniy hayotda tutgan o'rnini, adabiy mavqei va qudrati haqida uning quyidagi she'ri yaqqol tasavvur uyg'ota oladi:

Qatrayam	nochiz,	ammo	zoti	qulzum	Turdiman,
Kelturan	amvojg`a	bahri	talotum		Turdiman.
Qiriq,	yuz,	ming	aqrabolar	etdilar	mandin
Ne	balo	baxti	qarovu	tolei	shum
Rishtadek	ming	bor	ro`ze	chashmi	so`zandan
Bovujudi	e`tibori	chashmi		mardum	Turdiman.

Turdining hayotiy kechmishini aks ettiruvchi manbalardan biri uning Oqbo`tabiy hukmronligi davrida bitgan bitta turkiy muxammasidir. Bizgacha Turdi ijodidan 434 misradan iborat ja`mi 18 ta she`ri yetib kelgan. Bu merosning tarkibi 5 ta muxammas, 12 ta g`azal, 1 ta farddan iboratdir. Turdi zullusonayn shoir bo`lgan. Ya`ni, misralarining 397 tasi o`zbek tilida, 37 misrasi esa tojik tilida yozilgandir.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
 Jo`natildi: **Robiya dan 27 Iyul 2008, 15:53:56**

MUHAMMADNIYOZ NISHOTIY (XVIII asr)

Taniqli o`zbek shoiri, liro-epik she`riyat tarraqqiyotida alohida o`ringa ega. Xorazm (1701)da tug`ildi. Ijodiy merosidan lirik she`rlari va “Husnu Dil” dostoni yetib kelgan. She`rlari “G`azaliyot va muxammasoti Nishotiy”, “Bayozi mutafarriqa”, “Bayozi majmuai ash`or” kabi manbalarda jamlangan. Muhammad Yusuf Chokar tomonidan ko`chirilgan devoni (1903) O`R FA ShI da (inv.1197, 7013,1117, 1027, 7054) saqlanadi.

Yirik asari “Husnu Dil” dostoni Buxoroda (1778) yozilgan. Husn va Dil sarguzashtining syujeti Sharq adabiyotida mashhur bo`lib, Yax`yo Saboq Fattohiy, Abdurahmon Mushfiqiy tomonidan ham shu nomda asarlar yozilgan. Doston 62 bobdan 15584 misradan iborat. Dostonning qahramonlari Fuod (arabcha, ko`ngul), Husn, Aql, Ishq, Nazar, Himmat, Sabr, Vafo, Hayol, G`amza, Raqib, Nomus kabi ramziy timsollar orqali muallifning axloqiy-ta`limiy g`oyalari ifodalangan. “Qushlar munozarasi” asari ham allegorik - majoziy harakterga ega bo`lib, 300 misradan iborat. Shoir 14 qushning o`zaro bahsu-munozaralari orqali o`z qarashlarini bayon etadi.

Nishotiy adabiy merosi V.Abdullaev, B.Valixo`jaev, M.Qosimova v.b. tomonidan o`rganilgan.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 27 Iyul 2008, 15:56:43**

XO'JANAZAR HUVAYDO

(1704 - 1780)

Xo'janazar G'oyibnazar o'g'li Huvaydo sulolasi o'shlik bo'lib, uning o'zi Farg'onaning Chimyon degan qishlog'ida tug'ilgan va umrining oxnrigacha shu yerda yashab, ijod etgan. Uning tug'ilgan yili noma'lum. Huvaydo boshlang'ich ta'limni Chimyondagi maktabda oladi, Qo'qon madrasalarida o'qiydi, muallimlik bilan shug'ullanadi, to'quvchilik san'ati bilan mashg'ul bo'ladi. Shoir Noseh Huvaydoni bunday tavsif etadi:

Tutub	suhbat	davom	umrin	boricha,
Bayoron	ta'lim	erdi	fikru	yodi.
Dabistonda	sa'y	aylab	tunu	kun,
Yozilg'on	necha		tolibning	savodi.
Muningdek	olihimmat		er	anodin,
Du	bora	tug'magay	dar	hech
				bilodi

Huvaydo taxminan 1780 - 1781 yillarda vafot etgan. Uning sulolasidan Sirojii, Salohiddin Soqib, Samar Bonu kabi shoirlar yetishib chiqqan. Huvaydoning adabiy merosi «Devoni»da to'plangan. Bu devondan shoirning 100 dan ortiq g'azali, 28 ruboiysi, 41 to'rtligi, 3 muxammasi, 1 musaddasi, 1 musammani, 1 mustahzodi va 3 masnaviysi o'rin olgan. Shoirning «Rohati dil» (didaktik (o'git) hikoyatlardan tuzilgan masnaviy asar) dostoniga kirgan «Bayoni g'addoriyi dunyo» hikoyati pandnoma xarakterida bo'lib, unda aka-ukalarning fojiali qismati, mehnatsiz topilgan boylik hech kimga nasib qilmasligi bayon qilingan.

Adabiy merosi: «Na qildim sanga man...», «Hoki poyi yaxtilar bo'l...» (bu g'azal mazmun va g'oyaviy yo'nalishi hamda shakliy-badiiy xususiyatlari, hatto aynan bir so'zning radif qilib olinishiga ko'ra ham Turdi Farog'iyning «Jismi qonundin nafas tori uzulmasdan burun» misrasi bilan boshlanuvchi turkiy muxammasiga hamohangdir), «Nafsing seni qattig' balo...», «Qoshingga sajda qildim...», «Topolmasman» kabi she'rlari, «Ibrohim Adham» qissasi va boshq.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 27 Iyul 2008, 16:01:01**

Shermuhammad Munis

(1778 - 1829)

Yirik o'zbek shoiri, tarixnavis, davlat arbobi Shermuhammad Munis Xiva yaqinidagi Qiyat qishlog'ida Avazbiy mirob oilasida (1778) tug'ildi. 1800 yilda

otasi va og'a-inilari vafot etadi. Xorazmda Avazbiy inoq, va uning o'g'li Eltuzarxon davrida yashadi, saroyda bosh mirob vazifasini bajardi. Munis "Firdavsul-iqbol" nomli tarixiy asarini Eltuzarxonning taklifi bilan yozishni boshlaydi. Unda qadimiy tarixdan boshlab 1813 yilgacha bo'lgan voqealarni yozib qoldiradi. Asarni Ogahiy yakunlaydi. Munis 51 yoshida vabo kasalidan vafot etadi.

Munis "Munisul-ushshoq" ("Oshiqlar do'sti") nomli devon (1804-05) tuzadi. Bu devonning turli davrlarda ko'chirilgan, toshbosmalarda bosilgan bir necha nusxalari O'zFASHI qo'lyozmalar fondida saqlanadi(inv.¹ 1330, 1793, 7865, 940, 9556, 62, 63, 64, 9177, 10937). Munisning she'riy merosi 10000 baytga yaqin. U mumtoz adabiyotning deyarli barcha janrlarida ijod qilgan. Mirxondning "Ravzatus-safo" asarini o'zbek tiliga tarjima qiladi. 1804 yilda arab alifbosini o'rganishga bag'ishlangan "Savodi ta'lim" nomli she'riy manzumani yaratdi. Tarixiy asarlari N.Muravev, N.Veselovskiy, V.Bartold, R.Ivanov, S.Tolstov, Ya.G'ulomov, Q.Munirov tomonidan, adabiy merosi V.Abdullaev, S.Dolimov, R.Majidiy, N.Jumaev v.b. olimlar tomonidan o'rganilgan.

G'AZALLAR

Qilmangiz

Do'stlar,	mensiz	dame	ohangi	ishrat	qilmangiz,
Siz ichib	sahbo,	meni	xunxori	hasrat	qilmangiz.

Gar	muyassar	bo'lsa	bir	mahbub	ila	bazmi	nishot,
Mensiziz	suhbat	tuzarga		maylu	rag'bat		qilmangiz.

Topsangiz	bazmi	visole,	anda	yod	etmay	meni,
Zor	ko'nglumni	asiri	dog'I	furqat		qilmangiz.

Men	kibi	yo'qdur	aroda,	mankubu	maxmuri	aysh,
Kimsaga	mendin	ziyoda	boda	shafqa		qilmangiz.

Ahli	donish	birla	har	dam	aylangiz	bazmi	kitob,
Jam'I	nodonlar		bila	izhori	ulfat		qilmangiz.

Do'st	uldurkim,	yomon	kun	yuz	evurmas	do'stidin,
Munis	ahvolin	ko'rub	tarki		muhabbat	qilmangiz.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 27 Iyul 2008, 16:07:52**

Jahon otin Uvaysiy

(1780 - 1845)

Atoqli shoira, o'zbek shoirlari murabbiysi Jahonotin Uvaysiy Marg'ilonda tug'ilgan. Otasi Siddiq bobo ikki tilda she'rlar yozgan. Onasi Chinnibibi otinoyi bo'lib, akasi Oxunjon hofiz sifatida mashhur edi. Uvaysiyning Hojixon ismli kosibga uzatishgan, biroq shaxsiy hayoti quvonchli kechmagan. U Nodira bilan hamdardlikda Qo'qonda xon saroyida yashay boshlaydi. 65 yoshligida Marg'ilonda vafot etadi.

Uvaysiyning 15.000 misraga yaqin she'riy asarlari mavjud. Uning bir devoni O'R FA ShIda saqlanadi (inv.№1837). Unga shoironing g'azal, muxammas, musaddas, murabba'lari va "Shahzoda Hasan" hamda "Voqeoti Muhammadalixon" dostonlari kiritilgan. Shoira devonining 3 nusxasi topilgan. "Shahzoda Hasan", "Shahzoda Husayn" kabi dostonlari mavjud, "Voqeoti Muhammadalixon" nomli tarixiy asari tugallanmagan.

Uvaysiy hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlar uning asarida, ayrim tazkiralarda yetib kelgan. "Majmuai shoiron" tazkirasida (1821) ham shoira ijodiga munosabat bildiriladi. Ijodini izchil ilmiy yo'nalishda o'rganish 30-yillarda boshlangan. Uvaysiy ijodi A.Qayumov, T.Jalolov, I.Haqqulov, E.Ibrohimova v.b. tomonidan o'rganilgan.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 27 Iyul 2008, 16:09:28**

Amiriy (Amir Umarxon)

(1787 - 1822)

Yirik o'zbek shoiri, adabiy maktab asoschisi, tarixnavis va davlat arbobi. Amirsaid Muhammad Umarxon Qo'qonda tug'ilgan, Qo'qon xoni Olimxonning ukasi. Davlat arbobi sifatida Marg'ilon hokimi (1807-1810), Qo'qon xoni (1810-22) bo'lgan. 1808 yilda Andijon hokimi Rahmonqulibiyning qizi Mohlaroyim (Nodira) ga uylangan. "Devon" tartib bergan, "Umarnoma" dostonining muallifi. Asarlari

turli bayozlarda ham e'lon qilingan, uning torshirig'i bilan "Muhabbatnoma" majmuasi tartib berilib, Usmonli xalifasi Maxmud II ga tortiq qilingan.

"Devon"ida Navoiy an'alarini davom ettirgan, she'riyatning 12 janrida qalam tebratgan. G'azallarida dunyoviy ishq tavsifi bilan bir qatorda so'fiyona talqindagi g'oyalar ham mavjud. "Devon"ning qo'lyozma va bosma nashrlari O'R FA ShIda 3642, 4419, 90, 9993, 5065, 7489 II, 9917, 6745 I, 6672, 1880, 177, 98 III, 9765, 44, 4727 va Adabiyot muzeyida 99, 153 raqamlari ostida saqlanadi.

O'zbek adabiyotshunosligida Amir Umarxon ijodi Fitrat, Vadud Mahmud, P.Qayyumiy, A.Qayumov, M.Qodirova, A.Madaminov, H.Boltaboev tomonidan o'rganilgan, asarlari e'lon etilgan. O'zMU da tadqiqotchilar Z.Qobilova, M.Yuldasheva shoir hayoti va ijodi yuzasidan ilmiy tadqiqot olib bormoqda.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 27 Iyul 2008, 16:11:27**

Nodira (Komila)

(1792 - 1842)

Taniqli shoira, davlat arbobi. Asl ismi Mohlaroyim, Andijon hokimi Rahmonqulibiy oilasida dunyoga keldi. 1808 yilda o'sha paytda Marg'ilon hokimi bo'lgan Amir Umarxonga turmushga chiqadi. 1810 yilda akasi Olimxon o'rniga taxtga chiqqan Umarxon bilan Qo'qonga keladi. 1822 yil Umarxonning fojeali vafotidan so'ng o'g'li Ma'dalixon bilan birga Qo'qon xonligini boshqaradi. Madrasa, masjid, karvonsaroylar qurdiradi. Ilm ahliga rahnamolik, faqirlarga homiylik qiladi. 1842 yil Buxoro xoni Amir Nasrulloh tomonidan qatl etiladi.

Nodiraning she'riy merosi bir nechta devonlarining qo'lyozmalari (inv. № 7768, 660, 2090) orqali yetib kelgan. O'zbekcha she'rlarida Komila va forsiyda Maknuna taxalluslari bilan ham asarlar yaratgan. Uning 10.000 misraga yaqin asari yetib kelgan. G'azal, muxammas, ruboiy, fard kabi ko'plab janrlardan faol foydalangan. She'rlarida Navoiy, Fuzuliy, Bedil an'alarini davom ettirgan. Nodira g'azallarida firoq, dard iztiroblari samimiy bayon qilingan.

Nodira hayoti va ijodini o'rganish o'z davridanoq boshlangan. Hakimxon To'raning "Muntaxabut-tavorix", Avazmuhammad Attorning "Tuhvatut-tavorix", Ishoqxon To'raning "Tarixi Farg'ona", Mushrifning "Ansobus-salotin va tavorixi xavoqin" kabi tarixiy asarlarda, Uvaysiyning "Voqeoti Muhammadalixon", Nodir-Uzlatning "Haft gulshan" nomli dostonlarida Nodiraning iqtidori, faoliyati borasida qimmatli ma'lumotlar bayon etilgan.

Ijodi A.Qayumov, T.Jalolov, X.Razzoqov, M.Qodirova kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Andijonda shoira nomiga shahar markazidagi shohko'chalardan biri, kinoteatr va boshqa madaniy muassasalar qo'yilgan.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 27 Iyul 2008, 16:13:14**

Muhammadsharif Gulxaniy

(18 - 19)

Taniqli o'zbek adibi, o'zbek adabiyotida satirik maktab yaratuvchilaridan biri. O'ratepada (ayrim manbalarda Namangan viloyatida) tug'ilgan, hayot yillari noma'lum. Turk va fors tillarida asarlar bitgan. "Zarbulmasal" asari Umarxonning torshirig'i bilan yozilgan. U haqda Fazliyning "Majmuai shoiron", Vozehning "Tuhfatul-ahbob", Avazmuhammad Attorning "Tarixi jahonnoma" asarlarida ma'lumot bor.

"Zarbulmasal"da "Kalila va Dimna" va sharq mumtoz nasri an'analari davom ettirilgan. Hajviy qissa janrida yaratilgan bu asarda ramziy-majoziy timsollar vositasi bilan zamonasining nosozliklari fosh etilgan. "Zarbulmasal" bir necha qo'lyozma va bosma nusxalari mavjud, ular O'R FA ShI da saqlanadi. Ayrim manbalarda devon tartib bergani aytilsa-da, biroq u topilmagan. Ayrim she'rlari fors tilidagi bayozlarda ham uchraydi.

Gulxaniy ijodi o'zbek olimlari A.Qayumov, R.Muqimov, F.Ishoqov, M. Qo'shjonov, M. Qo'shmoqov, A. Asrorov v.b. olimlar tomonidan o'rganilgan.

Nashr		qilingan	asarlari:
Gulxaniy.	Zarbulmasal	(nashrga tayyorl.	F.Ishoqov). -T: 1958;
O'zbek	adabiyoti.	4 jildlik	3-jild. -T: 1959.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 27 Iyul 2008, 16:14:30**

Muhammad Rizo Ogahiy

(1809 - 1874)

Ulug' o'zbek shoiri, tarixnavis, tarjima maktabining asoschisi va davlat arbobi Muhammad Rizo Ogahiy Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida Erniyozbek mirob oilasida (1809) tug'ildi. Uch yoshligida otasi o'lib, amakisi Munis tarbiyasida qoldi. 1829 yilda Munis vafotidan keyin Ogahiy bosh miroblik vazifasiga tayinlandi. 1857 yilda miroblikdan iste'fo beradi. Qolgan umrini ijodga bag'ishlaydi. 1874 yilda 65 yoshida vafot etadi.

Ogahiy ijodiy faoliyati davomida devon tuzdi (O'zFA ShI inv. № 938), 19 ta asarni o'zbek tiliga tarjima qildi (inv. № 1214; 809.), 5 ta tarixiy asar yozdi (inv. № 7474). U shoir sifatida Navoiy an'alarini davom ettirdi. "Ta'vizul-oshiqin" ("Oshiqlar tumori") nomli devon tuzgan. Unda 18.000 misra she'ri jamlangan, shundan 1.300 misrasi forsiy she'rlari. U 20 ga yaqin she'riy janrlarda asarlar yaratgan.

O'zbek mumtoz adabiyotida Ogahiy bilimdon siyosatchi, tarixchi sifatida ham yorqin iz qoldirgan. U "Riyo'zud-davla" (1844), "Zubdatut-tavorix" (1845-1846), "Jome'ul-voqeoti Sultoni" (1856), "Gulshani davlat" (1865), "Shohidi iqbol" (1873) kabi tarixiy asarlar yozdi. Bu asarlarda Xiva xonlari Olloqulixon (1825-1842), Rahimqulixon (1843-1846), Muhammad Aminxon II (1846-1855), Sayyid Muhammadxon (1856-1865), Muhammad Rahimxon II (1865-1872) davridagi voqealar bayon qilingan. Mirxond, Xondamirning tarixiy asarlarini tarjima qildi. Bu asarlardan N.Muravev, N.Veselovskiy, V.Bartold, R.Ivanov, S.Tolstov, Yahyo G'ulomovlar o'z ishlarida foydalanishgan.

Ogahiy tarjima maktabi yaratgan adib. Yigirmadan ortiq sharq mumtoz adabiyoti namunalari Ogahiy tomonidan tarjima qilindi. Ular Nizomiyni "Haft paykar" (nasr bilan), Sa'diyni "Guliston", Kaykovusning "Qobusnoma", Mirxondning "Ravzatus-safo", Muhammad Mahriy Astrabodiyning "Tarixi Jahonkushoyi Nodiriy", Zayniddin Vosifiyning "Badoe'ul-vaqoe'", Mahmud G'ijduvoniyni "Miftohut-tolibin", Muhammad Muqim Hirotiyni "Taboqoti Akbarshohiy", Muhammad Yusuf Munshiyni "Tazkirayi Muqimxoniy", Rizoqulixon Hidoyatning "Ravzatus-safoyi Nosiriy", Husayn Voiz Koshifiyni "Axloqi Muhsiniy", Muhammad Vorisning "Zubdatul-hikoyat", "Sharhi daloyilul-hayrot", Jomiyni "Yusuf va Zulayho", Badriddin Hiloliyni "Shoh va gado", Nizomiyni "Haft paykar" kabi badiiy va axloqiy-falsafiy asarlardir.

O'zbek adabiyotshunosligida Ogahiy ijodini ilmiy tadqiq etish, asarlarini chop etish borasida ancha ishlar amalga oshirilgan. Ular orasida G'.Karimov, S.Dolimov ishlari salmoqli. Shuningdek, Ogahiy ijodi bilan V.Abdullaev, R.Majidiy, A.Abdug'afurov, Q.Munirov, N.Komilov, A.Pirimqulov, M.Matyobubova, Q.Sultonova, T.Matyobubova, v.b. tadqiqot yaratganlar.

Nashr qilingan asarlari:
Ogahiy. Ta'vizul-oshiqin. –T.: 1960;
Ogahiy. Asarlar (nashrga tayyorl. G'.Karimov va S.Dolimov). Olti jildlik -T.: 1971;
Ogahiy. Ishq ahlining tumori (nashrga tayyorl. F.G'anixo'jaev v.b.) . – T.: 1999.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 27 Iyul 2008, 16:15:45**

Komil Xorazmiy

(1825 - 1899)

Komil 1825 yilda Xivada tavallud topgan. U Muhammad Rahimxon soniy (Feruz) zamonasida mirzaboshi, devonbegi lavozimlarida ishlagan.

Komil – lirik shoir. Uning lirikasida insoniy muhabbat va fazilatlar ulug'lanadi. Hajviy she'rlarida fuzalo va juhalo qiyoslanadi. “Komil”, “Ikki sho'x” va “Qasidai Navro'z” kabi ma'rifatparvarlik asarlari muallifi.

Komil – bastakor va musiqashunos sifatida “Murabbai Komil”, “Peshravi Feruz” va “Tanbur chizig'i (notasi)” kabi asarlarni yaratgan.

Tarjimonlik sohasida esa Barxurdor Turkman Mumtozning “Mahfiloro”, Safiyning “Latoyif ut-tavoyif”, Mirxondning “Ravzat us-safo” singari yirik asarlarini tarjima qilgan.

Manbalar:

Komil Xorazmiy, Tanlangan asarlar. Toshkent, O'zadabiynashr, 1961.
Komil. Devon. Toshkent, 1975.
Asrlar nidosi. Toshkent, 1982, 393-408 betlar.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 27 Iyul 2008, 16:16:40**

Muhyiddin Muhyi

(1835 - 1911)

Muhyi Qo'qon adabiy muhitiga mansub shoir bo'lib, ikki tilda ijod qilgan. She'rlari turli mavzularda. Asosan ishq, tarkidunyochilik va xilvatnashinlik kayfiyatida.

Muhyining g'azal-munajatlar shoirning dunyoqarashi in'ikosidir. ("O'tub umrim xato birlan kechurgaysan gunoh, yo rab", "Mani ishq majozig'a giriftor aylama, yo rab").

Manbalar

She'rlar. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 1992 yil 9 oktyabr.

Sarlavha: **Re: Abituriyentlarga yordam: adabiyotdan tayyorlov kurslari**
Jo'natildi: **Robiya dan 27 Iyul 2008, 16:18:18**

Feruz (Muhammad Rahimxon II)

(1844 - 1910)

Feruz shoh-shoir. Xiva xoni. Adabiyot va san'at rahnamosi, musiqashunos, mohir sozanda va bastakor, san'atkor ham talabchan muxlis bo'lgan.

Shoir she'riyatining bosh mavzui – ishq. Uning "Ul oy vasfini vird etsam zabonda", "Olsa jonim qoshu ko'zing, ikki lab", "Soldi olam ichra g'avg'o, ey malaksiymo, ko'zing", "Gulshan ichra sarv yoxud ul qadi mavzunmudur" kabi ishqiy g'azallari juda mashhur.

Nashr qilingan asarlari:
Feruz Muhammad Rahimxon. Ne bo'ldi, yorim kelmadi. Toshkent, 1991.
Feruz Muhammad Rahimxon. Ne bo'ldi, yorim kelmadi. Toshkent, 1994.
Feruz. Elga shohu ishqqa qul. Toshkent.

Muqimiy

(1850 - 1903)

Muqimiy milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri.

Muqimiy lirik shoir. Muhabbat mavzusi uning lirikasida asosiy oʻrin tutadi. “Oshiq boʻlibman”, “Ayrilmasun”, “Oʻzim har joydaman”, “Aqlu hush uchdi boshimdin...” kabi sheʼrlari bunga misol.

Shoir ijodida satira va hajv ham katta oʻrin egallaydi. “Tanobchilar”, “Toʻy”, “Saylov”, “Moskovchi boy taʼrifida”, “Hajvi Viktor boy”, “Voqeari Viktor” kabi asarlarida Muqimiy oʻz zamonasining ijtimoiy illatlarini keskin tanqid ostiga oladi.

Shuningdek, Muqimiy milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyotida maʼlum gʻoyaviy va badiiy xususiyatlarga ega boʻlgan “Sayohatnoma” janrini boshlab bergan.

Zavqiy

(1853 - 1921)

Zavqiy lirik shoir. Shoir ijodida muhabbat lirikasi asosiy oʻrin egallaydi. Zavqiyning “Kelmasa kelmasun netay?” radifli gʻazali oʻzbek mumtoz adabiyotining goʻzal anʼanalarini davom ettirib yozilgan asar hisoblanadi.

Shuningdek, Zavqiy Muqimiy boshchiligidagi satirik maktabning yetakchi namoyandalaridan biridir. Shoirning “Zamona kimniki?”, “Dar mazammati zamona”, “Boʻl”, “Muncha koʻp” kabi sheʼrlari ijtimoiy satiraning yuksak namunalari boʻlib, ularda oddiy xalqning kulfati va mashaqqatli hayoti, ayanchli ahvoli real suratlarda tasvirlanadi.

Zavqiyning “Voqeari qozi saylov”, “Qahatchilik” dostonlari ham muhim ijtimoiy hodisalarni aks ettiruvchi dostonlardir.

Manbalar:

Zavqiy. Tanlangan asarlar. T., 1958.

Furqat

(1859 - 1909)

Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat - milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri. U shoir va adib, adabiyotshunos va muarrix, elshunos va mutarjim sifatida o'zidan boy ma'naviy meros qoldirdi. Shuningdek, Furqat zamonasining mashhur xattotlaridan edi.

Furqat 1859 yili Xo'qand shahrida tug'ildi. Yoshligidanoq Muqimiy, Muhyi, Zavqiy, Nisbat, Muhayyir kabi shoirlar muhitida qizg'in ijodiy faoliyat bilan mashg'ul bo'ldi. Furqatning shoir sifatidagi kamoloti ayni shu davrda boshlangan.

Toshkentda ikki yilga yaqin istiqomat qilgan shoir 1891 yili chet ellarga chiqib ketishga majbur bo'ladi. Turkiya, Yunoniston, Bolgariya, Arab mamlakatlari va Hindistonda bo'lib, Xitoyning Shinjong viloyatiga qarashli Yorkent shahrida turg'un bo'lib qoladi. U 1909 yili 50 yoshida vafot etdi.

Shoir lirikasining mavzular olami juda rang-barang. Dunyoviy muhabbat, ijtimoiy-falsafiy o'ylar aks etgan, inson erki va g'urbat ohanglari ifodalangan, diniy ma'rifatparvarlikka alohida e'tibor qaratilgan asarlari bunga yorqin dalil.

Uning o'z boshidan kechirganlari haqidagi "Ahvolot" (ba'zi tadqiqotlarda "Sarguzashtnoma", "Furqatnoma"), xitoy tilidagi manbalar asosida yozilgan "Qavoidi Chin va umuroti siyosiy" kabi nasriy asarlari ham bor.

Manbalar:

Furqat. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1959.
Furqat. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1980.
Furqat. Asarlar majmuasi. Ikki jildlik (arab imlosida). Toshkent, 1990.
Sayohati Furqat. O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1990 yil 14 dekabr.
Furqat. Qavoidi Chin va umuroti siyosiy. Sharq yulduzi, 2001, Ikkinchi fasl.

Ishoqxon Ibrat

(1862 - 1937)

Ishoqxon Ibrat 19 asr ikkinchi yarmi va 20 asr boshlarida yashab ijod etgan ma'rifatparvar shoir, publitsist, tarixshunos, tilshunos, olim, sayyoh, ilk o'zbek matbaachilaridan.

“Usuli jadid” maktablari uchun yozilgan “San’ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy”, “Ilmi Ibrat” she’riy to’plami, tilshunoslikka oid “Lug’ati sitta al-sina”, “Jomi’ ul-xutut” kabilar, “Tarixi Farg’ona”, “Tarixi madaniyat”, “Mezon uz-zamon” kabi tarixiy asarlar adibning qalamiga mansub.

Ibrat ilk o’zbek matbaachilaridan biri sifatida “Matbaai Ishoqiya” va “Kutubxonai Ishoqiya”ni tashkil qilgan.

Manbalar:

Ishoqxon Ibrat. “Tarixi Farg’ona”. Toshkent, 1992.
Ibrat, Ajziy, So’fizoda. Tanlangan asarlar. T.: Ma’naviyat, 1999.
Ishoqxon Ibrat. Tarixi Farg’ona. Qo’lyozma, O’zMU prof. G’. Karimov fondida saqlanadi.
Ishoqxon Ibrat. Jome’ ul-xutut. Namangan, 1912.

Anbar otin

(1870 - vafot yili ma’lum emas)

Anbar Otin-XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida yashab ijod etgan shoir.

Anbar Otin - lirik shoir. Uning lirikasida sof sevgi tarannum etiladi. U ayol qalbini, his-tuyg’ularini o’ziga xos kuylovchi shoir.

Shoiraning devoni mavjud.

Shoir ijodida o’z davrining ijtimoiy-siyosiy, sotsial muammolari ko’tarib chiqilgan. Istiqbolni kuylovchi mavzular keng o’rin egallaydi. (“Qarolar falsafasi”, “Qo’shulub mulki Farg’ona...”, “Ey go’zal Farg’ona, o’zingni kel emdi shod qil”).

Ilmiy adabiyotlar:
Anbar Otin. She’rlar. Risola. Toshkent, 1970.
Husainova F. Demokrat shoir Anbar Otin. Toshkent, 1964.
Karimov G’. O’zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1975.
O’zbek adabiyoti tarixi, 5-jildlik, 5-jild. Toshkent, 1980.

Siddiqiy Ajziy

(1864 - 1927)

Siddiqiy Ajziy 1864 yilda Samarqandda tug'ilgan. Madrasa ta'limini olgan.

U 1890-yillarning oxirida Makkaga boradi. 1900 yilda Rusiyaning Jiddadagi elchixonasida tarjimonlik qilgan. Shoir 1901 yilda ona yurtiga qaytadi va yangi tipdagi maktab ochadi...

U keng ommani ma'rifatga boshlash, haq-huquqini anglatishni adabiyotning bosh mavzui deb bildi. Millatni o'z ahvolini anglashga, dunyo bilan barobar yashamoqqa chaqirdi.

Siddiqiy 1919 yilda Samarqand viloyati adliya bo'limi mudirining o'rinbosari, keyinroq esa bo'lim mudiri bo'lib ishladi.

S. Ajziyning 1903 yilda Halvoyida ochgan maktab binosi 1922 yilda yana asl kasbi muallimlikka qaytdi. 1927 yilda esa vafot etdi.

Shoir adabiy merosi professor B. Qosimov tomonidan to'plab, nashr qilingan. "Ayn ul-adab" ("Odob ko'zi", Samarqand, 1916, o'zbekcha), "Ganjinai hikmat" ("Hikmat xazinasini", Samarqand-Toshkent, 1914, tojikcha) she'riy to'plamlari, "Mir'oti ibrat", "Anjumani arvoh" kabi poemalari, publitsistik maqolalari, Gogol "Shinel"i tarjimasi, hikoyalari ijodining serqirraligidan dalolat beradi.

She'rlari Kavkazda "Mulla Nasriddin", "Dirilik" jurnallarida bosilgan.

Nashr qilingan adabiyotlar: Siddiqiy-Ajziy. Tanlangan asarlar. T., 1973. Ajziy. Mir'oti ibrat. To'plamda: Milliy uyg'onish. T., 1993, 96-107 betlar. Ibrat, Ajziy, So'fizoda. Tanlangan asarlar. T.: Ma'naviyat, 1999.

Karimbek Kamiy

(1865 - 1922)

Karimbek Sharifbek o'g'li Kamiy – Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti birinchi davriga mansub shoirlardan biri.

Kamiy 1865 yilda Toshkentning Sevizor dahasida tug'ildi. Dastlabki ta'limni Mozorxon mahallalik Mansurxon domladan oladi. Keyin "Beklar begi" madrasasida o'qidi. Oila qurmagan. 1922 yilda o'zi tug'ilgan hovlida vafot etgan.

Kamiydan bizga olti ming misraga yaqin she'riy hamda nasriy asarlar va o'zi tuzgan bir necha qo'lyozma bayozlar saqlanib qolgan.

Karimbek Kamiy. Dilni obod aylagil.
She'rlarining aksariyat qismi an'anaviy ishqiy mavzuda. Shunga qaramasdan,
ma'rifatparvarlik va ijtimoiy she'rlari ham borki, bular shoir ijodining bosh
yo'nalishlarini tashkil etadi.

Kamiy ijodini ilmiy jihatdan o'rganish G'. Karimov, A. Jamolov, M. Hamidova va
O. To'laboevlar tomonidan amalga oshirilgan.

Mahmudho'ja Behbudiy

(1875 - 1919)

Behbudiy Turkistonda jadidchilik harakatining rahnamosi. Yoshligida tog'asi
Muhammad Siddiq huzurida ta'lim olgan. Keyinchalik mirzalik vazifasida ishlab,
so'ngra muftiylik lavozimiga o'tadi.

Behbudiy Turkistonda jadid maktablarining tolmas targ'ibotchisi va
tashabbuskorlaridan biri. Turkiy va fors-tojik tilidagi "Risolai jug'rofiyai
umroniy", "Risolai asbobi savod", "Kitobat ul-atfol", "Tarixi islom" kabi maktab
kitoblari muallifi.

Behbudiy birinchi o'zbek dramaturgi va teatr arbobi. "Padarkush" p'esasini yozdi
va bu asar Samarqand (1914 15 yanvar), Toshkent (1914 27 fevral)da ("Turon"
truppasi) sahnalashtirildi.

Behbudiy publitsist sifatida 1901 yildan boshlab Turkiston va hatto undan
tashqaridagi ko'plab matbuot namunalarida 300 dan ortiq maqolalar e'lon qilgan.

1919 yilda Buxoro amiri va rus sovet chekasining xodimi yordamida Qarshida
qo'lga olinib, qatl etilgan. Qarshi shahri 1926-1937 yillar davomida Behbudiy nomi
bilan atalgan.

Nashr qilingan adabiyotlar:
Behbudiy. "Padarkush". "Sharq yulduzi" jurnali, 1989, 7-son.
Behbudiy. "Ehtiyoji millat". "Sovet O'zbekistoni" gazetasi, 1989.
Behbudiy. "Bayoni haqiqat". "Fan va turmush". 1992, 5-son.

Behbudiy. “Yoshlarga murojaat”, “Ikki emas, to’rt til lozim”. “Tafakkur” jurnali, 1994, 1-son.
Behbudiy. Tanlangan asarlar. T.: Ma’naviyat, 1997, 1999.(ikkinchi nashri)

Abdulla Avloniy

(1878 - 1934)

Abdulla Avloniy 1878 yil 12 iyulida Toshkentda Mergancha mahallasida tug’ildi.
Madrasa ta’limini oldi.

1904 yili Avloniy Mirobodda usuli jadid maktabi ochadi.

Abdulla Avloniy
1914-1915 yillarda advokat Ubaydulla Xo’jaev bilan “Sadoyi Turkiston”
gazetasida hamkorlik qiladi. Gazetadagi she’r va maqolalarning aksariyati Avloniy
qalamiga mansub.

U “Hijron” taxallusi bilan she’rlar yozdi. Maqolalarini esa “Mulla Abdulla”,
“Avloniy”, “Abdulla Avloniy” nomlari bilan bosdirdi. So’ngroq uning ko’p
ishlatgan laqablaridan biri “Indamas” bo’lgan edi.

1909 yili usuli jadid maktablari ta’minoti uchun “Jamiyati xayriya” ochdi.
Avloniy “Turon” jamiyati muassislaridan biri edi. Jamiyat qoshida “Turon” teatr
truppasi tuzildi. Birinchi bo’lib Behbudiyning “Radarkush”i sahnalashtirildi.

Avloniy truppa uchun “Advokatlik osonmi?”, “Pinak”, “Biz va Siz”, “Ikki sevgi”,
“Rortugaliya inqilobi” kabi dramalar yozdi.

Avloniy 1917 yil Fevral voqealaridan keyin “Yashasin xalq jumhuriyati!” shiori
ostida “Turon” gazetasini chiqardi.

1910-yillarda u “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Maktab gulistoni”,
“Turkiy guliston yohud axloq”, “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” kabi kitoblar
yozdi.

Nashr	qilingan	asarlari
Avloniy.	“Toshkent tonggi”.	T., 1978.
Avloniy.	O’son millat.	T., 1993.
Avloniy.	Turkiy guliston yohud axloq.	T., 1992.
Avloniy.	Afg’on sayohati. Kundaliklar. “Sharq yulduzi”,	1990, 7-son.
Milliy	uyg’onish.	T., 1993.
Avloniy,	Tanlangan asarlar, Ikki tomlik, “Ma’naviyat”.	T., 1998 y.

Muhammadsharif So'fizoda

(1880 - 1937)

Muhammadsharif So'fizoda 1880 yilda Chustda hunarmand oilasida tug'ildi.

So'fizoda adabiyot dargohiga 1890-yillarda kirib keldi. Uning “G'ubor dardu alam”, ”O'ray” kabi lirik g'azallari, “Dakaning”, “Bedanang” kabi hajviyalari, ma'rifat haqidagi “O'qing onalar”, “Gazeta to'g'risida”, “Vatan”, “Xonimlar isminda” kabi qator she'rlari uning demokratik adabiyot ostonasiga kirishida o'ziga xos yo'llanma bo'ldi. Shuningdek, 1893-1898 yillarda Qo'qonda yashab, Muqimiy to'garagida faol qatnashishi shoir dunyoqarashining shakllanishida, badiiy mahoratining o'sishida o'ziga xos maktab bo'ldi.

1913 yilning oxirlarida Chustda yangi usuldagi maktab ochdi.

1935 yilning 29 yanvarida So'fizodaning tug'ilganiga 55 yil to'lishi munosabati bilan yubiley o'tkazilgan va 200 dan ortiq she'ri nashr etish uchun to'plangan edi

Tavallo

(1883 - 1937)

To'lagan Xo'jamyorov Tavallo 1883 yili Ko'kcha dahasida dunyoga keldi. “Beklarbegi” madrasasida, rus-tuzem maktabida o'qidi. 1910-yillardan vaqtli matbuotda she'r va maqolalari bosila boshlagan. 1914 yili Toshkentda “Nashriyot” shirkatini tuzishda ishtirok etadi. 1915 yilda esa “Turon” jamiyatida faoliyat ko'rsatadi.

Uning yagona she'riy to'plami “Ravnaq-ul Islom” alohida holda 1916 yili nashr qilindi. Ushbu to'plam 1993 yili professor B. Qosimov tomonidan so'zboshi va izohlar bilan qayta nashr qilindi.

Tavalloning ijodkor sifatida shakllanishida Toshkent adabiy muhitining roli katta bo'ladi. Unga sayramlik shoir Yusuf Saryomiy ustozlik qildi. Taxallusni ham unga Yusuf Saryomiy bergan.

U 20-yillarda “Mushtum” hajviy jurnalining faollaridan edi. “Mag'zava” imzosi

bilan o'nlab hajviy she'rlari chop etilgan, ular yig'ilgan, o'rganilgan emas.

1937 yil 14 avgustda Tavallo aksilinqilobiy "Turon", "Sho'royi islom" "Ittihodi taraqqiy", "Milliy ittihad", "Milliy istiqlol" tashkilotlarining a'zosi, "Millionerning o'g'li", "she'rlarida millatchilik g'oyalarini ilgari surgan"likda ayblanib, qamoqqa olinadi va otib tashlanadi.

Sidqiy Xondayliqiy

(1884 - 1934)

Sidqiy Xondayliqiy 1884 yilda tug'ildi. 1903 yilda o'qishni davom ettirish niyatida Toshkentga keladi. Ayni paytda she'r mashq qila boshlaydi. Tarjima bilan shug'ullanadi.

Sidqiyning ilk she'rlari ishqiy she'rlar edi. Shoir "Shavkat" taxallusi bilan ikki to'plam ("Tuxfai Shavkat", T., 1913; "Savg'oti Shavkat", T., 1914) nashr ettirdi. Bir qator she'rlariga "Shevan" ("nola", "fig'on") taxallusini qo'ydi. Lekin so'ngroq barcha asarlarini Sidqiy taxallusi bilan chop etdi. Hatto eski g'azallarini ham tahrir qilib, "Sidqiy"ga o'zgartirgan, devonini nomini "Devoni Sidqiy" atagan edi.

Sidqiy 1934 yili vafot etdi.

Sidqiy serqirra, sermahsul ijodkor. Arab, fors tillarini yaxshi bilgan shoir tarjima bilan ham jiddiy shug'ullangan ("Ming bir kecha", Sa'diy Sheroziyning "Bo'ston"i).

Shoir poetik merosining salmoqli qismini hajviyot va ijtimoiy siyosiy she'rlar tashkil qiladi. Hajviy asarlarining aksariyati voqeiy va deyarli hammasi poraxo'r qozilar, ta'magir, tovlamachi amaldorlar, riyokor ruxoniylar haqida, ijtimoiy siyosiy she'rlari esa davrning muhim voqealariga bag'ishlangan. ("Muxoraba", "Rabo(t)chilar namoyishi", "Rabo(t)chilar kelishi", "Toza hurriyat" kitobi).

Sidqiy nasriy asarlar ham yozdi. "Tazkirai Imomi A'zam", "Sad irshodi mulla Sidqiy Xondayliqiy", "Mezoni shariat", "Zarbumasali Sidqiy" an'anaviy nasrda yozilgan. Shuningdek, u "Hikoyai latifa", "Bahrom va malikai Gulandom", "Karimo tarjimasi", "Ming bir kecha", "Ajoyib ul-maxluqot", "O'g'ri va qozi" kabi bir qator nasriy asarlarni tarjima qildi.

Mumtoz adabiyotimizda tarjimai hol harakteridagi asarlar yozish an'anasi qadimdan ma'lum. Sidqiy ham shu janrda qalam tebratib, 1924 yili "Holoti Sidqiy"ni yozdi va uni "Iktisob" asariga yetti bet hajmda ilova qildi.

Nashr qilingan adabiyotlar:
Sidqiy Xondayliqiy. Navbahor. G'azallar, doston, hikoyalar, qaydlar. T., 1984.
Sidqiy Xondayliqiy. Tanlangan asarlar (matn, so'zboshi, lug'at), 2-jild. T.:
Ma'naviyat, 1998.

Abdurauf Fitrat

(1886 - 1938)

Fitrat O'rta Osiyo jadidchilik harakatining mashhur vakillaridan, yangi o'zbek adabiyotining asoschilaridan, usuli jadid maktablarining nazariyotchisi va amaliyotchisi, dramaturg, nosir, shoir va olim. 1886 yili Buxoroda tug'ilgan. Dastlab eski maktabda, so'ng "Mir Arab" madrasasida o'qidi. U 18 yoshlariga qadar Buxoroda yashadi. So'ng haj qildi. Turkiya, Hindiston, Arabistonda bo'ldi. Shuningdek, u Markaziy Rusiyaning Moskva, Peterburg shaharlariga ham sayohat qiladi. 1909-1913 yillarda Istanbuldagi "Voizon" madrasasida o'qiydi va bu yerda "Buxoro ta'mimi (umumiy) maorif" jamiyatini tuzadi. 1913 yili Buxoroga qaytib keldi. Shahrisabz va Karkida yangi maktablar ochdi. Qisqa muddatda Buxoro jadidchilik harakatining etakchi vakillaridan biriga aylandi. 1917 yili Fevral voqealaridan so'ng siyosiy faoliyat bilan shug'ullandi. "Yosh buxorolilar" inqilobiy partiyasiga sarkotib bo'lib saylandi. Samarqandlik ilg'or yoshlarning "Hurriyat" (1917) gazetasida keskin maqolalar bilan chiqdi. Ko'p o'tmay, unga redaktorlik qildi. (1917 yil 27-sondan 1918 yil 87-sonigacha). Yangi Rusiya Muvaqqat hukumati bilan o'zaro tenglik aloqalarini yo'lga qo'yish ishlarida faol qatnashdi. Biroq, bir tomondan, amir va u suyangan mutaassib a'yonlar, ikkinchi tomondan, chor kalonial siyosatining bolsheviklar tomonidan o'zgarishsiz qolishi Yosh buxorolilarning mustaqillik va demokratiya haqidagi orzulari amalga oshishiga yo'l bermadi. Shu sababli "bolshevik balosi" bosh ko'targan 1917 yilning Oktyabrini "Yurt qayg'usi" deb baholadi. Shunga qaramay, u kelajakdan umid uzmad. 1917 yilgi Turkiston muxtoriyatini so'ngsiz mehr bilan qarshi oldi. U e'lon qilingan 27 noyabrni "Milliy laylatulqadrimiz" deb atadi. 1918 yil 19-20 fevralidan Turkiston muxtoriyati sovetlar tomonidan qonga botirildi va u "Qo'qon voqeasi" nomi bilan tarixga kirdi. Fitrat o'sha yili Toshkentga keldi. Dastlab Xadradagi maktabda, may-iyun oylaridan Turkiston musulmon dorulfununi qoshida tashkil topgan dorulmualliminda til va adabiyotdan dars berdi. 1919-20 yillarda Afg'onistonning Toshkentdagi elchixonasida tarjimonlik qildi. Fitratning Toshkentdagi eng yirik ishlaridan biri "Chig'atoy gurungi" jamiyatini tashkil etishi bo'ldi. Jamiyat o'zbek tili va adabiyotinigina emas, umuman o'zbek madaniyatining shakllanish va taraqqiyot tarixini yangi, zamonaviy ilm asosida o'rganishga asos soldi. Fitrat 1920 yil 9 aprelida "Tong" jurnalining 1-sonini bosmadan chiqardi. Jurnalda "Chig'atoy gurungi" a'zolarining deyarli barchasi ishtirok etdi. Afsuski, uning 3-soni chiqib, to'xtab qoldi.

1920 yili Fitrat Buxoroga keladi. 1921 yildan xalq maorifi noziri, yana bir yil o'tgach, Xorijiya noziri, xalq xo'jaligi yig'ilishining raisi, jumhuriyat MIK o'rinbosari. Xalq nozirlari sho'rosining muovini, Hukumat plan va smeta tashkiliy hay'atining raisi, BXShJ Mehnat kengashining Prezidium a'zosi vazifalarini olib boradi. Jumhuriyat ijtimoiy-madaniy hayotining hamma masalalarida faol ishtirok etadi. Uning tashabbusi bilan 1921 yili Buxoroda Sharq musiqa maktabi ochiladi. 1923-24 yillarda Fitrat Moskvadagi sobiq Sharq tillari (1921 yildan Sharqshunoslik ilmiy tadqiqot) institutida ishladi, ilm bilan shug'ullandi. Leningrad Davlat universitetining Sharq fakultetida Sharq xalqlari tili, adabiyoti, madaniyatidan ma'ruzalar o'qidi, professorlikka saylandi. Fitrat O'zbekistonga 1927 yili qaytib keldi. Samarqandda yangi tashkil topgan Oliy pedagogika instituti (hozirgi SamDU)da ish boshladi. U o'z hayoti davomida yuzlab jangovor maqolalar, o'nlab ijtimoiy-siyosiy risolalar yaratdi. Birgina Turkiston matbuoti emas, Afg'oniston, Hindiston, Turkiya, Kavkaz, Volgabo'yi matbuotida faol ishtirok etdi.

1930 yildan unga siyosiy ayb qo'yila boshlandi. 1937 yil 24 aprelda hibsga olindi va bir yarim yillik qiynoqlardan so'ng 1938 yil 4 oktyabrida otib o'ldirildi.

1909 yili "Munozara" (Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadida xususida qilgan munozarasi") asari Istanbulda chop etildi. 1911 yili "Sayha" she'riy to'plami, 1912 yili "Sayyoh hindi" ("Bayonoti sayyohi hindi") bosilib chiqdi. "Rahbari najot" (1915), "Oila" (1916), "Begijon" (1916), "Mavludi sharif" (1916), "Abo Muslim" kabi asarlari nashr etildi.

Fitrat usuli jadid maktablari uchun yangi darsliklar ham yozdi. "O'qu" (1917, Boku) kitobi, Shokirjon Rahimiy va Qayum Ramazon bilan hammualliflikda yozilgan "Ona tili" (1918) darsligi, "Cho'zg'ilar" ("Unlilar"), "Bitim yo'llari" (1919), "Bedil" (1923, 1924) "O'zbek tili qoidalari", Sarf (1-kitob), Nahv (2-kitob) (1925), Sarfi zaboni tojik (1925), "Adabiyot qoidalari" (1926) kabi darslik-qo'llanmalari shular jumlasidandir.

Fitrat o'zbek dramaturgi sifatida "O'g'izxon", "Temur sag'anasi" "Chin sevish" (1920), "Hind ixtilolchilari" (1923) "Abulfayzxon" (1924), "Shaytonning tangriga isyoni" (1924), "Arslon" (1926) kabi asarlarini yaratdi.

Ayni paytda, uning o'z ahamiyatini bugungi kungacha saqlab kelayotgan "Eng eski turkiy adabiyot namunalari" (matn, tadqiqot, izohlar, 1927), "O'zbek adabiyoti namunalari" (matn, tadqiqot, izohlar, 1929), "Sharq shaxmati" (1928), "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" (1927), "Fors shoiri Umar Hayyom" (1929) kabi ko'plab tadqiqotlari e'lon qilindi.

Adabiyot nazariyasiga oid "She'r va shoirliq" (1919), "Adabiyot qoidalari" (1926), "San'atning mansha'i" (1926), "Aruz haqida" (1936) asarlari bilan o'zbek adabiy-

estetik tafakkurini yangi bosqichga ko'tardi. Yusuf Xos Hojibdan Mashrabga qadar bo'lgan mumtoz adabiyot namoyandalari haqida chuqur nazariy maqolalar (30dan ortiq) yozdi.

Vatan va millat mustaqilligi, ilm-fan rivoji, ta'lim-tarbiya ravnaqi kabi masalalar Fitrat asarlarining leytmotivini belgilaydi.

Fitrat asarlari u hayotlik paytidayoq yuksak baho olgan, boshqa tillarga tarjima qilingan. Uni qayta "tanitish" 80-yillarning ikkinchi yarmida boshlandi. O'zMU professori B. Qosimov 1994 yili "Fitrat" monografiyasini e'lon qildi. H. Boltaboev "20 asr o'zbek adabiyotshunosligi va Fitratning ilmiy merosi" (T., 1996), I. G'aniev "Fitrat dramalari poetikasi" (T., 1998) mavzularida doktorlik dissertatsiyalarini himoya qildilar. Uning ijodiy merosi B. Ergashev, D. Toshqo'ziev kabi faylasuflar, huquqshunoslar tomonidan ham o'rganilmoqda.

Fitrat nomida Toshkent va Buxoroda ko'chalar, maktablar bor. Tug'ilgan shahrida yodgorlik muzeyi ochilgan, xiyobon barpo etilgan, 1996 yili tavalludining 110 yilligi mamlakat miqyosida nishonlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga ko'ra Navoiy mukofoti va Mustaqillik ordeni bilan taqdirlandi.

Nashr	qilingan	asarlari:
Fitrat. She'rlar.	"O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 1987 yil 11 dekabr.	
Fitrat. She'rlar.	"Sharq yulduzi", 1991,	6-son.
Fitrat. Hind ixtilolchilari.	"Sharq yulduzi", 1990,	4-son.
Fitrat. Turkistonda ruslar.	"Sharq yulduzi", 1992.	
Fitrat. O'zbek klassik musiqasi tarixi.	T.: "Fan", 1993.	
Fitrat. Tanlangan asarlar, Ikki jildlik.	T.: "Ma'naviyat", 2001.	
Fitrat. Chin sevisht.	T.: "Adabiyot va san'at", 1996.	
Fitrat. Najot yo'li.	T.: "Sharq", 2002.	

Hamza Hakimzoda Niyoziy

(1889 - 1929)

Hamza jadid adabiyoti namoyandasi, shoir, dramaturg, adib va muallim.

1889 yili Qo'qon shahrida tug'ildi. Eski maktabda, madrasada va ovrupocha maktabda ta'lim oldi.

Hamza usuli jadid maktablarining faol tashkilotchilaridan. U 1910 yili Toshkentda, 1911 yili Qo'qonda, 1914 yili Marg'ilonda, shu yili yana Qo'qonda shunday maktablar ochadi. Muallimlik, tashviqotchilik bilan shug'ullanadi.

10-yillar oxiridan gazeta va jurnallar chiqarishga kirishadi. "Kengash" (1917), "Hurriyat" (1917) jurnallarini ta'sis etadi, ularga muharrirlik qiladi.

1918 yili Hamza sayyor dramtruppa tuzadi. Bu truppa uchun o'zi dramalar yozadi. "Tarjimai hol"ida ta'kidlashicha, bu truppada o'zi rejissyorlik, artistlik, suflyorlik qilgan.

U Xitoy, Hindiston, Afg'oniston, Eron, Turkiya va Arab mamlakatlarida bo'lgan. Haj amallarini bajargan.

1920 yili Qo'qonga qaytib kelib, maorif sohasida xizmat qiladi. Shu yil oxirida Buxoroga boradi. Bir yilcha yashab, 1921 yil so'nggida Toshkentga va undan Xorazmga o'tadi va u erda profsoyuzning madaniy-maorif shu'basida ishlaydi. Xorazmdan Xo'jayliga borib, 1924 yil iyulgacha o'zi tashkil etgan internatda faoliyat ko'rsatadi. 1925 yili Farg'onaga borib, Shohimardonda kolxoz tuzish, maktablar ochish, xalqning savodini chiqarish ishlari bilan shug'ullanadi.

1928 yildan unga nisbatan ta'qib va tazyiq ko'rsatila boshlaydi. Moddiy va ma'naviy qiyinchilik, iztiroblarni boshdan kechiradi. 1929 yil 18 martda Hamza toshbo'ron qilinib, vahshiylarcha o'ldiriladi.

Shoirning "Gul" (1913-1916), "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi" (1915-1917) she'riy to'plamlaridagi "Yig'la Turkiston", "Yaxshi holin yo'qotgan oqibatsiz Turkiston", "Ko'zni oching, qardoshlar", "Darmon istariz" kabi she'rlarida milliy uyg'onish g'oyasi katta mahorat bilan ifodalangan.

Hamza dramaturg sifatida "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" (1916), "Tuhmatchilar jazosi" (1919), "Burungi qozilar yoki Maysaraning ishi" (1926), "Paranji sirlaridan bir lavha yoki Yallachilar ishi" (1927) kabi asarlari orqali o'zbek adabiyotini boyitdi. "Yangi saodat" milliy romani o'zbek nasrining ilk namunalaridan.

Ma'rifat, milliy istiqlol va ozodlik g'oyalari Hamza ijodining leytmotivini tashkil qiladi.

Hamza jahon adabiyoti va matbuotiga katta qiziqish bilan qaradi. Rossiya, Tatariston, Ozarbayjon, Turkiya va Arab mamlakatlari adabiyoti namunalarini mutolaa qildi. U yerlardagi maorif-o'qitish sohasidagi yangiliklarga qiziqdi. Ulardan o'z faoliyatida samarali foydalandi.

Hamza ijodi bilan O'zMU professori L. Qayumov ko'p yillardan beri shug'ullanib

keladi. Bundan tashqari, M. Rahmonov, Yu. Sultonov kabi olimlar ham tadqiqotlar yaratganlar.

Toshkent shahrining markaziy tumanlaridan biriga Hamza nomi berilgan.
Nashr qilingan asarlari:
Niyoziy H.H. To'la asarlar to'plami. Besh jildlik, T.: Fan, 1988-1990.

Abdulla Qodiriy

(1894 - 1938)

Abdulla Qodiriy o'zbek milliy romanchiligining asoschisi, publitsist, hajv ustasi,
tilshunos va tarjimon.

U 1894 yil 10 aprelda Toshkent shahrida tug'ildi. Avval musulmon maktabida (1904-1906), keyin rus-tuzem maktabida (1908-1912), Abulqosim shayx madrasasida (1916-1917) ta'lim oldi. Oilaviy sharoit taqozosi bilan bolalikdan mahalliy savdogarlarga kotiblik qildi (1907-1915). 1917 yil Oktyabr davlat to'ntarishidan so'ng Eski shahar oziqa qo'mitasining sarkotibi (1918), "Oziq ishlari" gazetasi muharriri (1919), Kasaba uyushmasi sarkotibi (1920) lavozimlarida ishladi. 1923 yili "Mushtum" jurnalini ta'sis etdi, bir necha yil jurnal tahririyatida xizmat qildi. Moskvadagi adabiyot kursida (1925-1926) o'qidi. 1919-1925 yillar oralig'ida matbuot nashrlarida 300 dan ortiq maqolalar e'lon qildi. Umrining oxirigacha tinimsiz ijod bilan shug'ullandi.

Abdulla Qodiriy 1937 yil 31 dekabr kuni hibsga olindi. 1938 yil 4 oktyabrda Cho'lpon, Fitrat kabi maslakdoshlari bilan birga qatl etildi.

1914-1915 yillarda Abdulla Qodiriyning "Ahvolimiz", "To'y", "Millatimga", "Fikr aylagil" kabi she'rlari, "Juvonboz", "Uloqda", "Jinlar bazmi" kabi hikoyalari, "Baxtsiz kuyov" dramasi bosilib chiqdi. O'zbek adabiyotidagi birinchi roman "O'tgan kunlar"ni yaratdi (1919-1920). Asar 1922 yili "Inqilob" jurnalida, 1924-1926 yillarda har bir bo'limi alohida-alohida kitob holida bosildi. 1918 yil fevralida ikkinchi yirik romani – "Mehrobdan chayon"ni yozib tugatdi. Roman 1929 yili Samarqandda bosilib chiqdi. 1934 yili adib "Obid ketmon" qissasini yozdi.

Abdulla Qodiriy tilshunos va tarjimon sifatida ham katta ishlar qildi. U tatar fizik olimi Abdulla Shinosiyning "Fizika" (1928), N.V. Gogolning "Uylanish" (1935), A.R. Chexovning "Olchazor" (1936) asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildi. Qozonda bosilgan "To'la ruscha-o'zbekcha lug'at"ni (1934) tuzishda ishtirok etdi.

Qodiriy 20-yillarning o'rtalarida yozgan "Kalvak Maxzumning xotira daftaridan", "Toshpo'lat tajang nima deydir?" hajviy asarlarida bid'at va xurofotni qoraladi. Ularda xalqning yashash tarzi va ruhiy olamini o'zgartirishga intilgan jadid adabiyoti maqsad va g'oyalari o'z ifodasini topgan.

Ma'rifatparvarlik, millat ozodligi va istiqlol g'oyalari Abdulla Qodiriy asarlarining leytmotivini tashkil qiladi.

Abdulla Qodiriy asarlari, ayniqsa, romanlari jahon miqyosida keng tarqaldi. Uning "O'tgan kunlar", "Mehrobdan chayon", "Obid ketmon" asarlari rus, ingliz, nemis, italyan, arab, ozarbayjon, tojik, qozoq, uyg'ur, tatar tillariga tarjima qilingan. Nemis adabiyotshunoslari N. Tun, I. Baldauf, amerikalik tadqiqotchilar E. Olvort, Xristofor Murfi, Eden Nabi kabi olimlar Abdulla Qodiriy ijodi bo'yicha jiddiy ishlar qilganlar.

O'zMU professorlari U. Normatov, M. Qo'shjonov, B. Karimovlar Qodiriy hayoti va ijodi bo'yicha samarali ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar.

1991 yili O'zbekiston mustaqillikka erishishi bilanoq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga ko'ra Abdulla Qodiriyga Navoiy nomidagi Davlat mukofoti berildi. 1994 yili adib "Mustaqillik" ordeni bilan taqdirlandi. Shu yili Abdulla Qodiriy nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etildi. Toshkent Madaniyat institutiga, Toshkentdagi madaniyat va istirohat bog'iga, katta ko'chalardan biriga, Xalq merosi nashriyotiga hamda ko'plab madaniyat muassasalariga Abdulla Qodiriy nomi berilgan.

Nashr qilingan asarlari:
Abdulla Qodiriy. To'la asarlar to'plami, 1-jild. She'rlar. Hikoya va ocherklar. Hajviylar. T.: Fan, 1995.
Abdulla Qodiriy. O'tgan kunlar. Mehrobdan chayon (romanlar). T., 1992.

Cho'lpon

(1897 - 1938)

Abdulhamid

O'zbek yangi she'riyatining asoschilaridan biri, dramaturg, nosir, publitsist va tarjimon.

Cho'lpon 1897 yili Andijonda tug'ilgan. Eski maktabda savod chiqargan. Keyin

rus-tuzem maktabida o'qigan. 1914 yili Toshkentga keladi va o'z faoliyatini "Sadoi Turkiston" gazetasi bilan bog'laydi. Uning asarlari Orenburg, Ufa, Qozon va Bog'chasaroyda chiqadigan gazeta va jurnallarda ham bosilib turgan. 1916-1917 yillarda Orenburgda yashaydi va u yerda boshqird hukumati mahkamasida kotib bo'lib ishlaydi. So'ng Toshkentga qaytadi. 1920 yilgacha TurkRosTAda xizmat qiladi. 1920 yili Bokuda bo'lgan Sharq xalqlari qurultoyida qatnashadi. O'sha yili Fitrat taklifi bilan Buxoroga boradi va o'zbek tilida chiqadigan "Buxoro axbori" gazetasiga rahbarlik qiladi. Bir yilcha ishlab Toshkentga qaytadi. Adabiyot va madaniyat ishlari bilan shug'ullanadi. 1924-1926 yillarda Cho'lpon Moskvada yashaydi. U yerda ochilgan O'zbek dramstudiyasiga rahbarlik qiladi.

Shundan keyin jadidlarga qarshi boshlangan kompaniya Cho'lponni ham chetlab o'tmadi. Ta'qib va tazyiqlarga qaramay, u qizg'in ijodiy faoliyat bilan shug'ullandi. 30-yillarning boshida yana Moskvaga ketadi va SSSR Markaziy Ijroiya Komitetida tarjimon bo'lib ishlaydi. Cho'lpon 1937 yil 14 iyulda qamoqqa olinadi va 1938 yil 4 oktyabrda otib o'ldiriladi.

Cho'lponning "O'zbek yosh shoirlari" (1923), "Go'zal yozg'ichlar" (1925), "Adabiyot parchalari" (1926) majmualarida chop etilgan she'rlari, o'z she'rlari asosida nashr qilingan "Uyg'onish" (1922), "Buloqlar" (1923), "Tong sirlari" (1926), "Soz" (1935) kabi to'plamlari yangi o'zbek she'iyati taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Uning "Kecha va kunduz" (1936) romani, "Do'xtur Muhammadyor" (1914), "Qor qo'ynida lola", "Novvoy qiz", "Oydin kechalarda" hikoyalari yangi davr o'zbek nasri rivojiga salmoqli hissa bo'lib qo'shildi.

Cho'lponning "Yorqinoy" (1920), "Xalil farang" (1921), "Cho'rining isyoni" (1926), "Yana uylanaman" (1926), "Mushtumzo'r" (1928), "O'rtoq Qarshiboev" (1928), "Hujum" (1928) kabi dramalari uning dramaturg sifatida ham samarali ijod qilganligini ko'rsatadi.

Milliy istiqlol va ozodlik g'oyalari Cho'lpon ijodining leytmotivini belgilaydi.

Cho'lpon Pushkinning "Dubrovskiy", "Boris Godunov" asarlarini, Gorkiyning "Ona" romani va "Egor Bulichev" pe'sasini, Lohutiyning "Evropa safari"ni, Gotsiyning "Malikai Turandot", Shekspirning "Hamlet" dramalarini o'zbek tiliga tarjima qilish orqali o'zbek va jahon adabiy aloqalari rivojiga munosib hissa qo'shdi.

Cho'lpon ijodi bilan O'zMU professorlari O. Sharofiddinov, U. Normatov, N. Karimov, D. Quronov, B. Do'stqoraevlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Cho'lponga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga ko'ra Navoiy nomidagi Davlat mukofoti berildi. Uning "Kecha va kunduz" romani asosida videofilm yaratilgan.

Nashr		qilingan		asarlari:
Cho'lpon.	Yana oldim	sozimni.	T.: Adabiyot va san'at.	1991.
Cho'lpon.	Adabiyot	nadir.	T.: Cho'lpon,	1994.
Abdulhamid	Cho'lpon.	Go'zal	Turkiston.	T.: Ma'naviyat, 1997.
Cho'lpon.	Asarlar.	Uch	jildlik.	T.: Xazina, 1997-1998.

G'afur G'ulom

(1903 - 1966)

G'afur **G'ulom**
 1903 yilning 10 mayida Toshkent shahrida tug'ilgan. "Shum bola" (1936) avtobiografik qissasida ijodkorning bolaligi, asr boshidagi Toshkent hayoti tiniq tasvirlangan.

"Dinamo" (1931), "Tirik qo'shiqlar" (1932) to'plamlarida shoir ruhidagi betakrorlik, milliy o'ziga xoslik aks etdi. Insonga xos mangu tuyg'ular "Qish va shoirlar" (1929), "Non" (1931), "Toshkent" (1933), "Qutbda saylov" (1937), "Men Yahudiy" (1941), "Qish" (1941), "Xotin" (1942), "Afsuski, afsusni qo'shib ko'mmadi" (1945) singari she'rlarda aks etdi.

"Bog'" (1934), "Sog'inish" (1942), "Kuz keldi" (1945), "Kuzgi ko'chatlar" (1948) singari she'rlarida obod bog', saxiy bog'bon, umiddagi kelajak gavdalanadi. G'afur G'ulomda yurt, xalq, kelajak oldidagi mas'ullik Ota timsolida aks etgan "Sen yetim emassan" (1942), "Sog'inish" (1942), "Biri biriga shogird, biri biriga ustod" (1950), "Sizga" (1947), "Bahor taronalari" (1948) singari she'rlarida yurt, xalq, kelajak mas'uliyati tasvirlanadi.

"Netay" (1930), "Yodgor" (1936), "Shum bola" (1936-1962) qissalari, "Hiylai shar'iy" (1930), "Mening o'g'rigina bolam" (1965) singari hikoyalarida qahramon xarakterining milliy betakrorligini aks ettirgan.

1943 yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasiga haqiqiy a'zo bo'ldi. Akademik sifatida u adabiyot tarixini, yozuvchilar ijodini ("Navoiy va zamonamiz" (1948), "Folklordan o'rganaylik" (1939), "Jaloliddin" dramasi haqida" (1945), "Muqimiy" (1941)) yoritib berdi.

G'afur G'ulom ijodi O'zbekiston yurtining betakror qiyofasini, o'zbek xalqining o'ta tabiiy xarakterini yuksak badiiylik bilan yoritadi.

Shoir G'afur G'ulom 1966 yilning 10 iyunida vafot etdi, Chig'atoy qabristoniga

dafn

etildi.

Asarlari:

G'afur G'ulom. Asarlar. O'n tomlik. T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1970-1978.

Oybek

(1905 - 1968)

Oybek

Oybek – 1905 yilda 10 yanvarda Toshkentning Govkush mahallasida tug'ilgan Muso Toshmuhammadning adabiy taxallusi. “Bolalik xotiralarim” (1963) asarida bolaligini: ota-onasi, qarindoshlari, 20 asr boshidagi Toshkent va uning atrofidagi qishloq, kentlarni, ilk sabog'i, saboqdoshlarini tasvirlaydi.

1922 yildan uning oxirigacha Oybek she'r, dostonlar yozdi. “Onamning mozorida” (1924), “Ovchiga” (1924), “Yoshlik xotiralaridan” (1925), “Gunafsha” (1927) singari she'rlarida yosh shoir ruhiyatining holatlari tasvirlanadi. “Fanga yurish” (1930), “Fikr” (1931), “Tansiq” (1935), “Dala yo'lida” (1935), “Qishloq qizi student” (1933), “Brigadir ayol” (1935) singari she'rlarida ijtimoiy hayot aks ettiriladi. Shoir “Dilbar – davr qizi” (1932), “O'ch” (1932), “Navoiy” (1947), “Qizlar” (1947), “Davrim jarohati” (1965) singari poemalar yozgan.

Oybek poemalarining qahramonlari “Qutlug' qon” (1940), “Navoiy” (1944), “Oltin vodiya shabadalar” (1949) singari romanlariga ham o'tgan. “Quyosh qoraymas” (1954), “Ulug' yo'l” (1963), “Nur qidirib” (1955), “Bola Alisher” (1967) – Oybekning muhim asarlaridan. U nosir sifatida xalqning boy, murakkab tarixini aks ettirdi.

Oybek 1943 yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasiga haqiqiy a'zo bo'ldi. Olim “Adabiyot qoidalari haqida” (1926), “Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li” (1936), “Tanqidchilikda savodsizlik va ur-yiqitchilikka qarshi o't ochaylik” (1939), “Muqimiy asarlarida sotsial tiplar” (1939) singari tadqiqotlarni, Navoiy haqidagi maqolalarni yozdi.

U “Evgeniy Onegin”, “Sosunlik Dovud” kabi asarlarni o'zbek tiliga tarjima qildi.

Oybek 1968 yilning 1 iyulida vafot etgan, Chig'atoy qabristoniga dafn etilgan.

Asarlari:

Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. Toshkent, “Fan”, 1990-1995.

Abdulla Qahhor

(1907 - 1968)

Talantli o'zbek yozuvchisi. 1907 yil 17 sentyabrda Qo'qonda tug'ildi. Oldin eski maktabda, "Istiqbol" maktab-internatida, so'ngra Qo'qon pedtexnikumida o'qidi. 1925 yilda Toshkentga kelib, turli tahririyatlarda mehnat qildi. 1926-1930 yillarda O'rta Osiyo davlat universitetining pedagogika fakultetida tahsil oldi. Umri mobaynida turli ijodiy muassasalarda ishladi.

A. Qahhor o'rinli so'z qo'llash mahoratini puxta egallagan adibdir. Ijodida voqelikni realistik talqin etish ustuvorlik qiladi. Adib serqirra ijodkor sifatida adabiyotning deyarli barcha tur va janrlarida qalam tebratgan. "Olam yasharadi" nomli birinchi hikoyalar to'plami 1932 yilda bosilgan.

"Sarob" (1934), "Qo'shchinor chiroqlari" (1951) nomli romanlari, "Sinchalak" (1958), "O'tmishdan ertaklar" (1965) kabi qissalari, "Boshsiz odam", "Anor", "Bemor", "O'g'ri", "Dahshat", "Millatchilar", "San'atkor", "Adabiyot muallimi", "O'jar", "Asror bobo" kabi o'nlab hikoyalar yozgan.

"Shohi so'zana" (1949), "Og'riq tishlar" (1954), "Tobutdan tovush" (1962), "Ayajonlarim" (1966) nomli komediyalar muallifi. Feletonlar, adabiy-tanqidiy maqolalar ham yozgan.

Adib asarlarida ruhiy-psixologik tasvir, realistik talqin hamda hajviy yo'nalish ustivorlik qiladi.

Pushkin, Gogol, L. N. Tolstoy, A. P. Chexov asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. 1968 yilning 25 mayida vafot etgan.

Nashr etilgan asarlar.
Abdulla Qahhor. Asarlar (5 tomlik). –T. : G'. G'ulom nomidagi nashriyot, 1987-1989.

Mirkarim Osim

(1907 - 1985)

Toshkentda ziyoli oilasida tug'ildi. "Shamsulurfon" maktabida, Narimonov nomli texnikumda (1924) o'qidi. San'at, adabiyot, milliy tarixga qiziqdi. Maktabda dars berdi, tadqiqot institutida ilmiy xodim bo'ldi, matbuot tahririyatlarida ishladi.

40-yillarning oxirida qatag'onga uchradi, 50-yillarda ozodikka chiqdi. Tarixiy mavzularda hikoyalar, qissalar yozdi. Asosiy asarlari: "O'tror", "To'maris", "Temur Malik", "Aleksandr va Spitamen", "Astrobod", "Ulug'bek va Navoiy", "Zulmat ichra nur", "Aljabrning tug'ilishi", "Singan setor", "Mohlar oyim va Xonposhsha", "Karvon qo'ng'irog'i", "Elchilar", "Ibn Sino qissasi". Barcha asarlarida xalq tarixi, nurli siymolar xarakteri yorqin tasvirlanadi. 1985 yil fevralida vafot etdi.

Maqsud Shayxzoda
(1908 - 1967)

Taniqli shoir va dramaturg. U aslida ozarbayjon millatiga mansub bo'lib, 1908 yilda Oqtosh shahrida vrach oilasida tug'ilgan. O'rta ma'lumotni Oqtoshda olgan 1921-1925 yillarda Boku dorumualliminida o'qigan. Keyin Dog'istonning Darband, Bo'ynoq shaharlarida muallimlik qilgan. Shu davrda millatchi sifatida sudlanib, Toshkentga surgun qilinadi. Turli tahririyatlarda xizmat qiladi. 1938 yildan to umrining oxirigacha Nizomiy nomidagi pedagogika institutida ishladi. 50-yillarning boshida sho'rolarga qarshi faoliyatda ayblanib, 25 yilga qamaldi. Shaxsga sig'inish fosh etilgach, 1956 yilda qamoqdan chiqarildi.

1967 yilda vafot etgan.

1932 yilda "O'n she'r" nomli birinchi she'rlar to'plami chiqqan. She'rlari falsafiy umumlashmalarga boyligi, mumtoz poetika ta'sirining kuchliligi bilan ajralib turadi. "Toshkentnoma" (1958) dostoni poytaxt haqida yozilgan badiiy faxriyadir.

Hamid Olimjon
(1909 - 1944)

Iste'dodli shoir. Lirik she'rlari bilan 20 asr o'zbek adabiyotiga munosib hissa qo'shgan. 1909 yilning 12 dekabrda Jizzaxda tug'ilgan. Boshlang'ich ta'limdan so'ng 20-yillarning oxirida tahsilni Samarqanddagi pedakademiya davom ettirgan. "Ko'klam" nomli birinchi she'riy to'plami 1928 yilda bosilib chiqqan. She'rlarida lirik pafos yetakchilik qiladi. 30-yillarda shodlik va baxt kuychisi sifatida tanildi.

"Holbuki, tun", "Ofeliyaning o'limi", "Qamal qilingan shahar tepasidagi oy", "Ishim bordir o'shal ohuda" singari go'zal she'rlari mashhur. "Oygul bilan Baxtiyor" (1937), "Semurg" (1939), "Zaynab va Omon" (1938) kabi dostonlar va "Muqanna" (1942), "Jinoyat" (1944) singari dramalar yozgan. Rus shoir va

yozuvchilarining ayrim asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Nashr etilgan asarlari.
Mukammal asarlar to'plami (5 jildlik). Toshkent, "Fan", 1975-1984.

Mirtemir
(1910 - 1978)

O'zbek she'riyati taraqqiyotida o'ziga xos o'rin tutgan shoir Mirtemir Tursunov 1910 yilning 10 mayida Turkiston shahri yaqinidagi Iqon qishlog'ida tug'ildi. O'n bir yoshida qishlog'idan Toshkentga keldi va Almaiy nomidagi maktabda tahsil ko'rdi. 1925 yilda o'zbek erlar bilim yurtiga kirib, uni 1929 yilda tugatdi. 1929 yilda Samarqanddagi pedakademiya o'qishga kirdi. 30-yillar boshida Mirtemir sud qilinish, qamoq muddatini mashhur Belomorkanal qurilishida o'tadi. Shoir ozod etilgach, turli o'quv muassasalarida o'qituvchi, teatrlarda emakdosh, radio va nashriyot tahririyatlarida muharrir bo'lib ishladi. 1978 yil 23 yanvar kuni vafot etdi.

Mirtemir she'riyatga butun hayotini baxshida etgan samimiy ijodkor edi. Shuning uchun ham rost so'z, chin tuyg'u qatag'on qilingan zamonda ham ko'ngli buyurganini she'rga solishning uddasidan chiqdi. U milliy she'riyatini dala-dashtning tarovati, chorvador va dehqon o'zbekning serjilo tili bilan boyitdi. Shoirning she'riyati so'zlarning musiqiyliigi, ifodaning jimjimasiga emas, balki tuyg'uning samimiyatiyu tasvirning tabiiyligiga asoslandi. Shu bois Mirtemirning she'rlari bugungi kunda ham ohorini yo'qotmagan. Quyidagi misralar fikrimizni dalillaydi:

Yaltirar	suyri	tepa,	yaltirar	qir	uzunchoq,
Kelinlar	taqinchog'i,		uzuk	ko'zlarimi	yo?
Chor	atrof	sabzalarda	jimir-jimir		ko'zmunchoq,
Bo'y-bo'y		dilrabolarning	suzuk	ko'zlarimi	yo?
Yo'q	bu	giryon	ko'zlarning	yarqiroq	zamzamasi,
Kechasi	tag'in	onam	yig'labdi-da		chamasi.

Mirtemirning "Shu'lalar qo'ynida" (1928), "Zafar" (1929), "Qaynashlar" (1930), "Kommuna" (1931), "Tong" (1932), "Kipriklarim", "Yodgorlik" (1978) va boshqa she'riy to'plamlarida intim va ijtimoiy lirikaning sara namunalari o'rin olgan. Shoir qalamiga mansub "Dilkusho", "Suv qizi", "Oysanamning to'yida", "Surat" (1957) dostonlari va "Qoraqalroq daftari" she'riy turkumi Mirtemir tasvir imkoniyatlari nechog'lik keng ekanini ko'rsatadi.

Mirtemirning "Betobligimda", "Bitta o'zim bilaman", "Toshbu", "Bulut", "Onaginam", "Shudring", "Barqut", "Yali-yali", "Ratti", "Armon", "Chirildoq",

“Sutdek oydin”, “Men kelgum”, “Hayda”, “Ona yurtim”, “Ona tilim”, “Ko’klamda” singari yuzlab she’rlarida inson ruhiyatining nozik va so’z bilan ifodalash qiyin manzaralari mahorat bilan chizilgan. Ularda olam va odamga xos jihatlar intim jihatlar ingichka aks ettirilgan.

Asarlari.

4 jildlik. Toshkent, G’. G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980-1983.

Izzat Sulton
(1910 - 2001)

Adabiyotshunos, tanqidchi, dramaturg Izzat Otaxonovich Sultonov 1910 yilda O’sh shahrida tug’ildi. 14 yoshida Toshkentga kelgan o’spirin “Narimonov” nomli maktabda o’qidi, ta’lim-tarbiya texnikumini bitirdi (1929), maktabda o’qituvchi bo’ldi (1930). 1930 yilda SAGUning ijtimoiy fakultetiga o’qishga kirdi. “Batrak” gazetasida mas’ul kotib bo’ldi (1931). 1932 yilda o’zining ilk adabiy-tanqidiy maqolasini “Qizil O’zbekiston” gazetasida chop ettirdi. Aspiranturadagi o’qishni (1934-1937) jurnalistlik, tanqidchilik faoliyati bilan qo’shib olib bordi: “Kambag’al dehqon” gazetasi tahririyatida ishladi. 1937 yildan Izzat Sultonovning qizg’in ijtimoiy faoliyati boshlandi: Til va adabiyot institutining direktor o’rinbosari (1937-1942), O’zbekiston respublikasi Xalq komissarlari soyuzi qoshidagi radioeshittirish Davlat qo’mitasi raisi muovini (1942-1943), Toshkent badiiy filmlar studiyasi direktori (1943-1945), O’zbekiston Ministrlar Soveti raisining madaniyat ishlari bo’yicha o’rinbosari (1945-1948), O’zbekiston FAning Til va adabiyot instituti direktori (1948-1950), MGUning SSSR xalqlari adabiyoti kafedrasida o’qituvchisi (1950-1953), O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi kotibi (1956-1963).

Izzat Sulton hech qachon ilmiy va ijodiy faoliyatga befarq bo’lmadi. Ustozi Fitrat ta’sirida adabiyot nazariyasi bo’yicha mutaxassis bo’ldi: A. Sa’diy va Fitratdan keyin “Adabiyot nazariyasi” (1939) maktab darsligini yaratdi. “Burgutning parvozi” (1940) dramasini yozdi. 1980 yilda oliy o’quv yurtlari uchun “Adabiyot nazariyasi” darsligini yaratdi.

Izzat Sulton 1947 yilda filologiya fanlari nomzodi, 1954 yilda filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini oldi. “Navoiyning qalb daftari” (1969) – I. Sultonov ilmiy ijodining cho’qqisi sanaladi. Bu asar 1979, 1985 yillarda rus tilida, A.Zirin tarjimasida chop etilgan. Olimning mumtoz falsafa va adabiyot sohasidagi bilimdonligi “Bahovuddin Naqshband abadiyati” (1994) monografiyasida yaqqol ko’rinadi.

Izzat Sultonov sal kam 40 yil davomida O’zbekiston FAning Til va adabiyot institutida sektor boshlig’I, maslahatchi sifatida faoliyat ko’rsatdi, Ixtisoslashgan

Ilmiy Kengash raisi bo'ldi. U "O'zbek sovet adabiyoti tarixi ocherklari" ikki jildligi (1961-1962), "Adabiyot nazariyasi" ikki jildligi (1978-1979), "O'zbek sovet tanqidchiligi tarixi" ikki jildligi (1987)ning mualliflaridan biri, muharriri bo'ldi.

Izzat Sultonov – dramaturg: "Alisher Navoiy (Uyg'un bilan hammuallif, 1942), "Imon" (1960), "Noma'lum kishi" (1963), "Bilmayin bosdim tikanni", "Istehkom", "Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar"i singari dramalar", "Fidoi", "Dahoning yoshligi", "Senga intilaman" kinosenariylar, "Shoir qalbi" librettosi muallifi.

Izzat Sultonov "O'zbekistonning san'at arbobi" (1964), O'zbekiston FANing muxbir a'zosi (1966), haqiqiy a'zosi (1995), Beruniy nomidagi Davlat mukofoti laureatidir (1970). Izzat Sulton 2001 yil 29 iyulda vafot etdi, Chig'atoy qabristoniga dafn qilingan.

Asarlari:

Izzat Sulton. Asarlar. 4 tomlik. Toshkent, Adabiyot va san'at nashriyoti, 1971-1974.

Izzat Sulton. Navoiyning qalb daftari. Toshkent, Adabiyot va san'at nashriyoti

Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. Toshkent, "O'qituvchi", 1980.

Usmon Nosir
(1912 - 1944)

20 asr o'zbek she'riyatiga chaqmoqdek kirib kelgan va yashindek qisqa ijodiy umr kechirgan talantli shoir Usmon Nosir 1912 yilning 13 noyabrida Namanganda tug'ildi. Otasidan etim qolgan Usmon Nosir Qo'qondagi bolalar uyida tarbiyalanadi. Iste'dodli o'spirin u yerda rus va jahon adabiyotining sara namunalari bilan tanishadi. Internatni bitirgach, 1931 yildan Samarqanddagi O'zbekiston davlat universiteti(O'zDU)ning filologiya fakultetida o'qidi.

Bolaligidan she'rlar yoza boshlagan Usmon Nosir badiiy ijod bilan bor-yo'g'i o'n besh yilgina, ya'ni qamoqqa olinguncha astoydil shug'ullandi. Shu fursatda o'zining qanchalik nodir iste'dodiga ega ekanligini yaqqol ko'rsatdi. Yosh shoirning "Quyosh bilan suhbat" (1932), "Safarbar satrlar" (1932), "Traktorobod" (1934), "Yurak" (1935), "Mehrim" (1935) kabi she'riy to'plamlari hamda "Norbo'ta" (1932) va "Naxshon" (1935) dostonlari bosildi. Usmon Nosir 1937 yilning 14 iyulida "xalq dushmani" sifatida qamoqqa olindi va Toshkent, Magadan, Kemerovo turmalarida yotdi. Qamoqda inson bolasi chidashi mumkin bo'lmaydigan qiynoqlarga duchor bo'lgan shoir 1944 yilda Kemerovoda halok bo'ldi.

Usmon Nosir o'zbek she'riyatiga yangi ohang, yangi ruh, yangi obrazlar olib kirdi. U she'rlarida alangali tuyg'ularini jilovlamas, dilida kechayotgan tug'yonlarni susaytirmas, inson ruhiy dunyosini po'rtanalar ichida ko'rsatardi. Shoirning:

Tingla,	erkam,	o'rtog'imsan,
Ko'nglimni		ochay.
Qonim	she'r	bo'lib
Men	qayta	oqsin-da,
		ichay.

singari misralari bunga misoldir. O'zbek she'riyatida tuyg'ularni bor bo'yicha, dolg'ali ko'rsatish an'anasi yo'q edi. Milliy she'riyatimiz odob, andisha qoliplaridan chetga chiqmaslikka urinardi. Usmon Nosir ana shu qolirlarni buzishga jur'at qilgan birinchi shoir bo'ldi. Shoirning o'z tuyg'ularini:

Sevgi!	Sening	shirin	tilingdan
Kim	o'pmagan,	kim	tishlamagan?
Darding	yoyday	tilib	ko'ksidan,
Kim	qalbidan	qonlar	to'kmagan?

tarzida tasvirlashi miqyosi, ko'lami va ta'sirchanligiga ko'ra mislsiz poetik hodisa edi. Shoirning: "Ilhomimning vaqti yo'q selday keladi, Jalloddek rahm etmay dilni tiladi, Ayondir bir kuni aylaydi xarob" shaklidagi iqrori, ayni vaqtda, ulkan badiiy kashfiyot hamdir.

Usmon Nosir she'riyatiga xos eng rangin xususiyatlar uning "Yurak", "Nil va Rim", "Monolog", "Nasimaga deganim", "Yana she'rimga", "Begona", "Yoshlik" sigari o'nlab bitiklarida yorqin namoyon bo'lgan.

Zulfiya
(1915 - 1996)

Zulfiya

O'zbek shoirasi. 1915 yilning 1 martida Toshkentda tug'ilgan. O'rta maktabdan so'ng pedagogika institutida va aspiranturada ta'lim olgan. 1938-1948 yillarda Bolalar nashriyotida muharrir, keyinchalik O'zdavnashrda bo'lim boshlig'i, 1950 yildan 1980 yilga qadar "Saodat" jurnalida ishlagan. 1996 yilda vafot etgan.

1932 yilda "Hayot varaqlari" nomli birinchi she'riy to'plami bosilgan. So'ngra uning "Yuragimga yaqin kishilar", "Yurak hamisha yo'lda", "Kamalak" singari ko'plab she'riy to'plamlari va turkumlari nashr etiladi.

Xalq orasida "Oydinda", "Sensiz", "Yurak", "Falak", "Bahor keldi seni so'roqlab", "O'g'irlamang qalamim bir kun", "Bo'm-bo'sh qolibdi bir varaq qog'oz" kabi she'rlari, "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush", "Mushoira" kabi she'rlari mashhur.

“Uni Farhod der edilar”, “Quyoshli qalam”, “Xotiram siniqlari” kabi lirik va lironovik dostonlar muallifi. 1935 yilda shoir Hamid Olimjon bilan turmush qurgan va uning bevaqt vafotidan soʻng koʻplab mahzun sheʼrlar yaratgan. Pushkin, Lermontov, Nekrasov, L. Ukrainka, V. Inber va boshqa koʻplab shoirlarning asarlaridan namunalarni oʻzbek tiliga tarjima qilgan.

Shoira adabiy-ijtimoiy faoliyati uchun koʻpgina davlat mukofotlari bilan taqdirlangan.

Nashr qilingan asarlari.
Tanlangan asarlar (3 jildlik). Toshkent. Gʻ. Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1983-1986.

Asqad Muxtor
(1920 - 1996)

Shoir va yozuvchi. 1920 yilning 23 dekabrda Fargʻona shahrida tugʻilgan. Bolalar uyida tarbiyalangan. 1936 yilda maktabni bitirgan. Toshkentda jurnalistika kursida oʻqigan. Soʻng 1938 yilda Samarqanddagi OʻzDU filologiya fakultetiga oʻqishga kiradi. 1943-1945 yillarda Andijon pedagogika institutida oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasida mudir boʻlib ishlagan.

Soʻngra u “Yosh leninchi”, “Qizil Oʻzbekiston” gazetalari, “Sharq yulduzi”, “Guliston” jurnallarida ishladi. Oʻzbekistondagi birinchi haftalik gazeta - “Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati”ning tashkilotchilaridan biri. Yozuvchilar uyushmasida kotiblik qildi.

1996 yilning 17 aprelida vafot etdi.

“Poʻlat quyuvchi” (1947), “Hamshaharlarim” (1949), “Rahmat, mehribonlarim” (1954), “Chin yurakdan” (1956), “99 miniatyura” (1962), “Karvon qoʻngʻirogʻi” (1964), “Sheʼrlar” (1966), “Quyosh belanchagi” (1971), “Sizga aytar soʻzim” (1978) singari sheʼriy kitoblar yozdi. Oʻzbek sheʼriyatiga chuqur tafakkur va murakkab tuygʻular tasvirini olib kirdi. Prozaik sifatida “Daryolar tutashgan joyda” (1950), “Qoraqalpogʻ qissasi” (1958), “Buxoroning jin koʻchalari” (1980), “Jar yoqasidagi chaqmoq” (1982), “Kumush tola” (1987) qissalari, “Opa-singillar” (1955), “Tugʻilish” (1960), “Davr mening taqdirimda” (1964), “Chinor” (1969), “Amu” (1984) romanlarini yozdi. Bu asarlarida inson maʼnaviyatining qadri, odamning bosh fazilati har qanday holatda ham insoniylik ekanligini samimiy tasvirladi.

Sofokl, Tagor, Pushkin, Lermontov, Blok, Mayakovskiy singari adiblarning asarlarini oʻzbek tiliga tarjima qilgan.

Nashr qilingan asarlari.
Tanlangan asarlar (to'rt tomlik). Toshkent: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va
san'at nashriyoti, 1980-1983.

Said Ahmad

Mashhur o'zbek adibi Said Ahmad (Saidahmad Husanxo'jaev) 1920 yilning 10
iyunida Toshkent shahrining "Samarqand darvoza" mahallasida tug'ilgan.

Uning bolaligi Abdulla Qodiriy, Elbek, Oybek, G'afur G'ulom singari adiblar
davrasida o'tdi. Tabiatan qiziquvchan, tinib-tinchimas Said Ahmad adabiyotga
kirib kelguncha juda ko'p sohalarda o'zini sinab ko'rdi: agitplakatlar yozdi, artist
bo'lishga urinib ko'rdi, doktorlik maktabida o'qidi, qurilish texnikumida tahsil
oldi, rassomlik maktabiga qatnadi, mashhur fotochi Rensonga shogird tushdi,
gazetalarga xabarlar yozdi.

U Nizomiy nomidagi pedinstitutda bir muddat o'qigach, 1941 yilda "Mushtum"
jurnalida ishladi. 1942-1943 yillarda respublika radiosida, 1943-1947 yillarda
"Qizil O'zbekiston" gazetasida, 1948-1950 yillarda "Sharq yulduzi" jurnalida
mehnat qildi. 50-yillar boshida millatchi sifatida bir necha yil qamalib ham chiqdi.
Milliy istiqlol yo'lidagi xizmatlari uchun Said Ahmad 1999 yilda O'zbekiston
Qahramoni unvoniga sazovor bo'lgan.

Said Ahmad hikoyanavis sifatida tanilgan. Uning "Cho'l burguti", "Lochin",
"Bo'ston", "To'yboshi", "Jimjitlik", "Turnalar", "Hayqiriq", "Alla",
"Muhabbatning tug'ilishi", "Qorako'z Majnun" singari o'nlab hikoyalarida
sadoqat, mehr, odamgarchilik, ishonch, e'tiqod singari ma'naviy qadriyatlar
ta'sirchan aks ettirilgan. Adib hikoyalarida inson ruhiyati tovlanishlarini
ko'rsatishga katta e'tibor berganligi uchun ham bitganlari zavq bilan o'qiladi va u
prozaning shoiri hisoblanadi. Yozuvchi hajviy hikoyalar yaratish bo'yicha Qahhor
an'alarini davom ettirgan ijodkordir. Uning "Sobiq", "Qoplun", "O'rik domla",
"Mening do'stim Babbaev", "Muzey", "Bo'ri ovi", "Xandonpista" kabi ko'plab
hajviyalarida inson tabiatidagi qusurlar badiiy tadqiq etiladi. Said Ahmad hajviy
so'z jilolarini nozik payqaydi va undan mohirona foydalanadi.

Said Ahmad nasrning deyarli barcha janrlarida qalam tebratadi. Uning qishloq
mavzusidagi "Qarddon dalalar" (1949), "Hukm" (1958) qissalari, chalkash insoniy
taqdirlar mahorat bilan aks ettirilgan "Qirq besh kun" (1974) "Hijron kunlari"
(1964), "Ufq bo'sag'asida" (1969) romanlaridan iborat "Ufq" trilogiyasi, inson
qismati turg'unlik davri qabohatlari fonida tasvirlangan "Jimjitlik" (1988) romani,
Bolalar hayoti ifodalangan "Sherzod va Gulshod" (1945), dunyoning etti burchiga
yoyilgan "Kelinlar qo'zg'oloni" (1976), yolg'iz mo'ysafid ruhiy iztiroblari aks

ettirilgan “Kuyov” (1986) singari sahna asarlari adibning katta ijodiy imkoniyatlaridan dalolatdir.

Shukrullo

Shukrullo (Shukrullo Yusupov) 1921 yil 2 sentyabrda Toshkentning Olmazor mahallasida ziyoli oilada tug'ildi. Otasi – Yusufho'ja Mahmudho'ja o'g'li emchi bo'lgan. Onasi – Zaynabxon ham ilmi ayol bo'lgan.

Mahalladagi “Shayx Sa'diy” maktabini tugatib, 3-son pedbilim yurtida o'qiydi. O'qishni tugatgach (1938), Qoraqalpog'istonda o'qituvchilik qiladi. 1938 yilda Toshkent pedinstitutiga kiradi, o'qishni 1944 yilda tamomlab, shu yil SAGUning chet el adabiyoti mutaxassisligi bo'yicha aspiranturasiga kiradi. 1946 yilda Yozuvchilar uyushmasiga qabul qilinadi va shu yerda ishlay boshlaydi. U ilm yo'lini emas, badiiy ijod yo'lini tanlaydi. 16 yoshidan she'r yozishni mashq qilgan bo'lsa-da, ilk to'plami 1949 yilda bosildi.

1958 yilda bir jildlik, 1973 yilda 2 jildlik, 1981 yilda 3 jildlik asarlari bosildi. 1997 yilda “O'g'rini qaroqchi urdi” dramalar to'plami chop etildi. 1991 yilda rus tilida (Moskvada) “Krik dushi” p'esalar to'plami bosildi.

Shukrullo nasrda ham barakali ijod qildi. 1977 yilda “Javohirlar sandig'I” badii-kitobi, 1991 yilda “Kafansiz ko'milganlar”, 1999 yilda “Tirik ruhlar”, 2002 yilda “Og'ir kunlar sevinchi” qissa va romanlari nashr etildi. Uning asarlari rus, nemis, qozoq, turk, ozarbayjon va boshqa tillarga tarjima qilingan.

Shukrullo “Xatarli yo'l”, “Tabassu o'g'rilari”, “Unsiz faryod”, “To'ydan keyin tomosha”, “Janjal”, “O'g'rini qaroqchi urdi” singari she'riy, nasriy dramalar, “Asr boshi”, “Ko'ngil chirog'I”, “Rossiya” kabi dostonlar muallifi. Shukrulloga “O'zbekiston xalq shoiri” unvoni, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti berilgan.

Mirmuhsin

Mirmuhsin (Mirsaidov) 1921 yil 3 mayda Toshkentning Kesakqo'rg'on mahallasida kulol oilasida tug'ildi. Eski shahardagi 1-maktabni, Toshkent pedagogika institutining Til va adabiyot fakultetini tugatgan. U O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida, “Qizil O'zbekiston” gazetasi tahririyatida ishlagan,

uzoq muddat “Sharq Yulduzi”, “Mushtum” va “Guliston” jurnallarining bosh muharriri bo’lgan.

Shoir Mirmuhsin ilk to’plamlari “Er yurak”, “Vatan”ni 1942 yilda chop ettirgan. U ko’plab she’rlar, “Usta G’iyos”, “Do’lan” (1947), “Yashil qishloq” (1948), “Qadrdonlar” (1954), “Shiroq” (1967), “Nevara” singari dostonlar, “Adib va Ziyoda” (1957) she’riy roman muallifi.

O’zbek adabiyotida Mirmuhsin adib sifatida o’ziga xos o’ringa ega. Uning “Dorbozlar” (1956), “Jamila” (1957), “Hikoyalar” (1959), “Qizil durralar” (1961), “Sozanda” (1963) singari hikoya va qissalar to’plamlari bor. “Arab hikoyalari”, “Iskandariya ko’rfazi”, “Mo’tilal”, “G’urbatdagi odam”, “Chodrali ayol” hikoya va qissalarida Sharq xalqlari hayotini tasvirlaydi.

Mirmuhsin roman janrida barakali ijod qilgan. Uning “Chiniqish” (1964), “Dagrez o’g’li” (1973), “Umid” (1974), “Me’mor” (1974), “Chotqol yo’lbarsi” (1977), “Ildizlar va yaproqlar” (1981), “Temur Malik” (1986), “Ilon o’chi” (1995), “Turon malikasi” (1998) romanlari bir necha bor ko’p tirajlarda chop etilgan. Uning romanlari rus va boshqa tillarga tarjima qilingan. Yozuvchiga “Umid” va “Me’mor” romani katta obro’ keltirdi. “Me’mor” romanida hayot o’ta tiniq, xarakterlar mukammal tasvirlangan. Mirmuhsin – romannavisning iste’dod va izlanishlari shu romanlarda ko’zga aniq tashlanadi.

Mirmuhsin O’zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti laureati (1974), “O’zbekiston xalq yozuvchisi” (1981).

Uning uch jildlik (1971-1973), to’rt jildlik (1981-1984) asarlari to’plami chop etilgan.

Asarlari.

Mirmuhsin. Me’mor. T.: “Sharq” — 2001.
Mirmuhsin. Temur Malik. T.: Adabiyot va san’at — 1986.

Odil Yoqubov

Odil Yoqubov 1926 yili Qozog’istonning Turkiston viloyatida ziyoli oilasida tug’ilgan. Ikkinchi jahon urushi boshlangach, urushda qatnashish uchun yoshini katta ko’rsatib, Yaponiya frontiga jo’nagan. 1945 yildan 1950 yilgacha haqiqiy harbiy xizmatda bo’ldi. 1951-1956 yillar mobaynida O’rta Osiyo Davlat universiteti (hozirgi Milliy universitet)da ta’lim olgan. “Literaturnaya gazeta”ning O’zbekiston bo’yicha muxbiri, O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, “O’zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi bosh muharriri va boshqa mas’ul vazifalarda ishlagan.

O. Yoqubovning “Tengdoshlar” nomli birinchi qissasi 1951 yilda bosilib chiqqan. Keyinchalik yozuvchi “Muqaddas”, “Tilla uzuk”, “Bir feleton qissasi”, “Larza”, “Qanot juft bo’ladi”, “Matluba”, “Izlayman”, “Billur qandillar” kabi pishiq qissalar e’lon qildi.

O. Yoqubovning “Er boshiga ish tushsa...”, “Ulug’bek xazinasini”, “Diyonat”, “Ko’hna dunyo”, “Oq qushlar, oppoq qushlar”, “Adolat manzili” asarlari o’zbek adabiyotida psixologik roman maydonga kelishiga zamin bo’ldi. O. Yoqubov qalamiga mansub “Chin muhabbat”, “Olma gullaganda”, “Yurak yonmog’i kerak”, “Aytsam tilim kuyadi, aytnasam dilim”, “Fotih Muzaffar yohud bir parivash asiri”, “Bir koshona sirlari” kabi dramalar o’zbek teatrchiligi tarixida muhim ahamiyat kasb etadi.

Asarlari.

O. Yoqubov. Saylanma (3 tomlik). Toshkent. G’. G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1985-1987.

O. Yoqubov. Diyonat. Toshkent. G’. G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1978.

Pirimqul Qodirov

Pirimqul Qodirov 1928 yil 25 oktyabrda Turkiston tizma tog’i etagidagi Kengqo’l qishlog’ida tug’ildi. 1951 yildan O’rta Osiyo Davlat universiteti (hozirgi O’zMU) sharqshunoslik fakultetini va 1954 yili Moskvadagi Adabiyot institutining aspiranturasini bitirgan. Filologiya fanlari nomzodi.

Birinchi kitobi – “Studentlar” 1950 yilda chop etilgan. Yangi avlod o’zbek ziyolilarining shakllanishi “Uch ildiz” romanida (1958) tasvirlangan. Roman 1959 yilda Moskvada rus tilida chop etildi.

Yozuvchi tug’ilgan tog’li qishloq hayoti “Qora ko’zlar” (1966) romanida aks ettirilgan. P. Qodirov “Qadrim” (1963), “Erk” (1969), “Meros” (1975) qissalari, “Olmos kamar” (1977) romani muallifi.

So’ng o’ttiz yil davomida xalqning tarixiy xotirasini uyg’otadigan “Yulduzli tunlar” (1978), “Avlodlar dovoni” (1988), “Ona lochin vidosi” (2001) nomli tarixiy romanlarni chop ettirdi. Bobur haqidagi roman o’zbek tilida 6 marta, rus tilida 5 marta katta tirajda chop etildi. U hind, urdu, bengal, turk, qozoq, uyg’ur, turkman tillariga o’girilgan.

Olim P. Qodirov “Til va dil” (1973), “Xalq tili va realistik proza” (1974) singari ilmiy, “O’ylar” (1971), “Qalb gavhari” (2001) badii kitoblar muallifi.

Ibrohim G'ofurov

Yozuvchi tarjimon, tanqidchi Ibrohim G'ofurov 1937 yil 27 dekabrda Toshkentda hunarmand oilasida tug'ildi. O'rta maktabni tugatgach, 1956-1961 yillarda SAGU (hozirgi O'zMU) ning filologiya fakultetida o'qidi. 1961-1982 yillarda Davlat badiiy adabiyot nashriyotida kichik muharrir, tahririyat mudiri, bosh muharrir o'rinbosari lavozimlarida ishladi.

Mumtoz adabiyot, folklor, adabiy tanqid, badiiy tarjima, ko'p tomlik asarlarning nashr etilishida munosib hissasini qo'shdi. 1982-1995 yillarda “O'zbekiston adabiyot va san'ati” gazetasida bosh muharrir o'rinbosari bo'lib ishladi.

1995 yilda “Milliy tiklanish” demokratik partiyasini tashkil etish tashabbuskori bo'ldi. U mazkur partiyaning raisi (1996 yildan), “Milliy tiklanish” gazetasining bosh muharriri.

I.G'afurov “Go'zallikning olmos qirralari” (1964) “Unitilmagan bog'” (1965), “Joziba” (1970), “Yonar so'z” (1973), “Yam-yashil daraxt” (1976), “Yurak - alanga” (1980). “Lirikaning yuragi” (1982), “She'riyat - izlanish demak” (1984), “O'ttiz yil izhori” (1987), “Til erkinligi” (1998) singari adabiy tanqidiy, badii kitoblar muallifi. U “Darvoza”, “Humo qushim”, “Qaldirg'ochim” singari she'riy nasrlar yohud mansuralari bilan e'tibor qozondi.

Ibrohim G'afurov jahon adabiyotining “Jinoyat va Jazo”, “Telba”, “Qimorboz” (Doatovskiy), “Azizim” (Mopassan), “Alvido, qurol”, “Chol va Dengiz” (E.Xeminguey), “Qiyomat”, “Chingizxonning oq buluti” (Chingiz oq buluti), “Yong'in” (V.Rasputin) singari asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

I. G'ofurov filologiya fanlari nomzodi (1973), O'zbekiston yoshlari mukofoti (1989) laureati, “Do'stlik” ordeni sohibi (1995). 1996 yildan u I va II chaqiriq O'zbekiston Oliy Majlisi deputati. Parlamentda “Milliy tiklanish” eraksiyasi rahbari, 2000 yildan Oliy Majlis matbuot va axborot qo'mitasi raisi o'rinbosari.

Asarlari

Yurak-alanga. T: Adabiyot va san'at. 1979.
She'riyat- izlanish demak. T: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1984.
O'ttiz yil izhori. T: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.

Omon Muxtor (Omonov Muxtor Sulaymonovich) 1941 yil 16 iyulda Buxoro shahrida tug'ilgan. 1958 yil maktabni, 1964 yil Toshkent Davlat Universiteti jurnalistika bo'limini tugatgan. Bolalar gazetasi, O'zbekiston radiosi, Kino qo'mitasida ishlagan. Adabiyot nashriyotida muharrirlik qilgan. 1983 yildan "Sharq yulduzi" jurnalida ishlab keladi. Hozirgi kunda jurnalning Bosh muharriri.

O. Muxtorning "Yog'du" (1979), "Marvarid" (1985), "Shiddat" (1990) va boshqa she'r to'plamlari, tarjima kitoblari bosilgan. Bundan tashqari kattalar va bolalarga mo'ljallangan yangi ertaklar, xayoliy manzaralardan iborat bir necha kitoblari ham nashr etilgan. Adib qator hikoyalar va qissalar kitoblari muallifi, "Nigoh" (1968), "Qushlar va tushlar" (1971), "Shaharlik kelinchak" (1973), "Vazifa" (1988), "O'lmagan jon" (1995) singarilar shular jumlasidan. Uning qahramonlari oddiy kasb-hunar kishilari. She'rlarida ham, hikoya va qissalarida ham yozuvchi birovga ergashmaydi, o'zi topgan aniq fikr bilan jonli manzara chizishga urinadi. Ayniy, Fitrat, G'afur G'ulom kabi ustozlardan saboq olgani sezilib turadi.

O. Muxtor dastlab "Yillar shamoli" (1976) va "Egilgan bosh" (1989) degan ikki roman e'lon qildi. Bu romanlar keyinchalik "Buxorolik bir yigit" (1998) va "O'lmagan jon" (1995) kitoblarida qayta nashr etildi. Yozuvchining shundan so'ng "To'rt tomon qibla" trilogiyasi ("Ming bir qiyofa", "Ko'zgu oldidagi odam", "Tepalikdagi xaroba" romanlari) (2000) bosildi. U yana "Ffu", "Ayollar mamlakati va saltanati" (1997), "Aflotun" (1998), "Maydon" ("Sharq yulduzi" jurnali 2001 yil 1-son) romanlarini yozdi.

Dastlabki ikki romani ma'lum darajada an'anaviy uslubda bo'lsa, keyingi romanlar o'z shakli va yo'nalishi bilan butunlay yangichadir. Ular asosan, o'zbek xalq ertaklari, qissalari, dostonlari va afsonalariga suyangan holda, bu kungi inson hayotini aks ettirish bilan birga, uning xayol olamiga, ruhiyatiga sayohatni eslatadi. Adib ijodiga xos bo'lib kelgan falsafaga moyillik bu romanlarda bo'rtib ko'rinadi. Inson qismati ham, uning ruh olami ham naqadar murakkab ekanligini aks ettiradi.

Asarlari:

Omon Muxtor. Ming bir qiyofa. Roman. Toshkent, "Sharq", 1994.
Omon Muxtor. Ko'zgu oldidagi odam. Qissa va roman. Toshkent, Adabiyot va san'at, 1996.
Omon Muxtor. Ayollar mamlakati va saltanati. Romanlar. Toshkent, "Sharq", 1997.

Halima Hudoyberdieva

Shoira Halima Hudoyberdieva 1947 yil 17 mayda Boyovutdagi "Taraqqiyot"

jamoa xo'jaligida tug'ilgan. Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O'zMU)ning jurnalistika fakultetini tugatgan (1972). Mehnat faoliyatini "Saodat" jurnalida bo'lim boshlig'iligidan boshlagan (1972). Talabalik yillarida "Ilk muhabbat" (1968) she'riy to'plami chop etildi. Shoiraning "Oq olmalar" (1973), "Chaman" (1974) to'plamlari izma-iz bosildi. Halima birdan o'ziga xos shoira sifatida tanildi. 1975-1977 yillarda Moskvadagi Adabiyot institutining Oliy Adabiyot kursida o'qidi. Shu yillarda shoiraning "Beliye yabloki" (Sovetskiy pisatel, 1977), "Suyanch tog'larim" (1976), "Bobo quyosh" (1977) to'plamlari bosildi.

H. Hudoyberdieva "Yosh gvardiya" nashriyotida bo'lim boshlig'i (1978-1982), "Saodat" jurnalida muharrir o'rinbosari, 1984-1994 yillarda "Saodat"ning bosh muharriri, 1991-1994 yillarda O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlar qo'mitasi raisi bo'ldi. Shoira she'rlarida oddiy dehqonlar, ona-yurt harorat bilan kuylandi. Mustaqillik yillarida Halima Hudoyberdieva xalq tarixi, mashhur ajdodlar haqida yozdi. "Muqaddas ayol" (1987), "Bu kunlarga yetganlar bor" (1993), "To'marisning aytgani" (1996), "Saylanma" (2000) shoiraning muhim asarlaridir.

H. Hudoyberdieva "O'zbekiston xalq shoiri" (1992), Hamza nomidagi "Hurmat belgisi" ordeni sohibasi.

Asarlari.

Bu kunlarga yetganlar bor. Toshkent, Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993.
To'marisning aytgani. Toshkent, "Sharq", 1996.
Saylanma. Toshkent, "Sharq", 2000.

Ozod Sharafiddinov

Adabiyotshunos, adabiy tanqidchi O.Sharafiddinov 1929 yil 1 martda Qo'qon yaqinidagi Oxunqaynar qishlog'ida tug'ildi. Toshkentdagi 14-o'rta maktabni, O'rta Osiyo Davlat universiteti (hozirgi O'zMU) filologiya fakultetini tugatdi (1951). Moskvada aspiranturani tugatdi, fan nomzodi ilmiy darajasini oldi (1955). Ozod Sharafiddinov poeziya muammolari bilan shug'ullandi, o'zbek she'riyati va uning holati haqida adabiy-tanqidiy maqolalar yozdi. O'sha davrdagi ilmiy-ijodiy, adabiy-tanqidiy izlanishlari "Zamon. Qalb. Poeziya" (1962) asarida o'z aksini topgan. XX asrning 60-80 yillarida u Cho'lpon hayoti va ijodini targ'ib qilishga intildi. O. Sharafiddinov o'zbek adabiyotining Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Shayxzoda, Mirtemir, Zulfiya singari namoyandalari haqida adabiy portretlar yaratdi: "Iste'dod jilolari" (1976), "Adabiy etyudlar" (1968), "Abdulla Qahhor" (1988), "Birinchi mo'jiza" (1979). Olim ijodida o'zga adabiyotlar namoyandalari ijodi haqida yaratilgan "Yalovbardorlar" (1974) adabiy-tanqidiy ocherklar kitobi muhim o'rin egallaydi. O. Sharafiddinov XX asrning 60-yillaridan XIX asrgacha bo'lgan o'zbek adabiy jarayonidagi holatlarni "Talant – xalq mulki" (1979), "Adabiyot – hayot darsligi" (1981), "Go'zallik izlab" (1985), "Haqiqatga sadoqat" (1988), "Sardaftar sahifalari" (1999), "Prezident" (2003)

singari

asarlarida

aks

ettirdi.

Mustaqillik yillarida O. Sharafiddinov ham adabiy tanqidchi, ham tarjimon, ham jamoat arbobi sifatida ulkan ishlarni amalga oshirdi. “Cho’lpon” (1991), “Cho’lponni anglash” (1994) kitoblari, “E’tiqodimni nega o’zgartirdim” (1997) asarlarida munaqqidning estetik prinsiplari aks etgan. Keyingi yillarda O. Sharafiddinov o’zbek adiblari, madaniyat-san’at arboblari, olimlar haqida o’nlab maqolalar yozdi. U jahon adabiyotining ko’plab namoyandalari asarlarini o’zbek tiliga tarjima qildi. [“Ko’lmak suvda quyosh parchasi” (fransuza Sagan), “Qadimgi xitoy nasri namunalari”, “Monumental targ’ibot” (Vl. Boynovich), “Al-ximik” (Paulo Koel’o) singarilar]

O. Sharafiddinov XX asrning 90-yillari o’rtalarigacha O’zbekiston Milliy universitetida professor bo’ldi. 1995-1997 yillarda “Tafakkur” jurnali bosh muharrir o’rinbosari vazifasini bajardi. U 1997 yildan beri “Jahon adabiyoti” jurnalining bosh muharriri. O. Sharafiddinov Beruniy nomidagi Davlat Mukofoti laureati (1970), “Buyuk xizmatlari uchun” (1999), “Mehnat shuhrati” (1997) ordenlari sohibi. 2002 yil 23 avgustda O. Sharafiddinovga “O’zbekiston qahramoni” unvoni berildi.

Erkin Vohidov

Taniqli o’zbek shoiri va jamoat arbobi. 1936 yilning 28 dekabrda Oltiariq tumanida o’qituvchi oilasida tug’ilgan. To’qqiz yoshida otasidan, bir yildan so’ng onasidan ajralgan. Toshkentlik tog’asi Karimboy Sohboev qo’lida tarbiyalangan. ToshDU (hozirgi O’zMU)ning o’zbek filologiyasi fakultetida (1955-1960) tahsil olgan. So’ng turli nashriyot va gazeta-jurnallarda ishladi. Respublikamiz yoshlarining birinchi jurnali “Yoshlik”ning asoschisi (1982).

U I va II chaqiriq O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati. Hozir qo’mita raisi vazifasida ishlamoqda. Keyingi yillarda O’zbekiston Oliy majlisining qo’mita raisi vazifasida ishlamoqda. Uning birinchi kitobi “Tong nafasi” 1961 yilda chop etildi. Shundan so’ng uning “Qo’shiqlarim sizga” (1962), “Yurak va aql” (1963), “Mening yulduzim” (1964), “Nido” (1964), “Lirika” (1965), “Palatkada yozilgan doston” (1966), “Yoshlik devoni”(1969), “Charog’bon” (1970), “Quyosh maskani” (1972), “Tirik sayyoralar” (1978), “Sharqiy qirg’oq” (1981), “Kelajakka maktub” (1983), “Muhabbat” (1984), “Hozirgi yoshlar” (1986), “Iztirob” (1991), “Yaxshidir achchiq haqiqat” (1992) kabi she’riy to’plamlari nashr qilindi. Shoir inson ruhiyatining nozik va ilg’ash mushkul manzaralarini ta’sirchan aks ettiradi. Odamni komil ko’rmoq istagi uning she’rlari asosini tashkil qiladi.

“Nido” (1964), “Palatkada yozilgan doston” (1966), “Charog’bon” (1970), “Ruhlar isyoni” (1980), “Ko’hinur” (1982) kabi dostonlar yozgan.

“Oltin devor”, “Istambul fojeasi”, “Ikkinchi tumor” kabi dramalar muallifi. S. Esenin, A. Tvardovskiy, M. Iqbol, G. Emin, R. Hamzatov she’rlarini, Gyotening “Faust” asarini o’zbek tiliga tarjima qilgan. 1999 yilda O’zbekiston Qahramoni unvoniga sazovor bo’ldi.

Abdulla Oripov

Atoqli o’zbek shoiri va jamoat arbobi. U hozirgi o’zbek she’riyatida inson qalbidagi murakkablik va ziddiyatlarni teran, haqqoniy o’ziga xos betakror kuylagan ulkan ijodkordir. Abdulla Oripov hozirgi o’zbek she’riyatiga yangicha badiiy tafakkur yo’sinlarini olib kirdi. U tub mohiyati bilan Yassaviy, Navoiy, Bobur, Cho’lpon, G’. G’ulom singari ijodkorlar badiiy an’alarining davomchisidir. Shoirning butkul ijodi milliylik ruhi bilan sug’orilgan.

Abdulla Oripovning birinchi she’riy to’plami “Mitti yulduz” 1965 yilda chop etildi. Keyinchalik shoirning “Ko’zlarim yo’ligda” (1966), “Onajon” (1969), “Chashma”, “Ruhim” (1971), “O’zbekiston” (1972), “Hayrat” (1974), “Yurtim shamoli” (1976), “Yillar armoni” (1984), “Ishonch ko’priklari” (1989), “Munojot” (1992), “Haj daftari” (1995), “Saylanma” (1996), “Asarlar” (4 tomlik – 2001) singari she’riy kitoblari nashr qilindi.

Abdulla Oripov she’rlarida falsafiy teranlik jo’shqin lirizm va insoniy samimiyat bilan uyg’unlashib ketgan.

Uning “Bahor”, “Birinchi muhabbatim”, “Kuz”, “Saraton”, “O’zbekiston”, “Munojotni tinglab”, “Otello”, “Sarob”, “Dengizga”, “Malomat toshlari”, “Olomonga”, “Yuzma-yuz”, “Genetika”, “Chuvaladi o’ylarim sensiz” va boshqa qator she’rlarida mana shu xususiyat yaqqol seziladi.

Bu asarlar o’zbek milliy she’riyatining mumtoz namunalari bo’lib, yuksak badiiyligi, mantiqan kuchliligi, jo’shqinligi, yoqimlilik va lirik tuyg’ularga boyligi bilan ajralib turadi.

Mustaqillikka erishgan O’zbekiston Respublikasining madhiyasi Abdulla Oripov so’zi bilan aytiladi.

Millat ma’naviyati va estetik tafakkurini rivojlantirishdagi xizmatlari uchun shoir Abdulla Oripov ijodkorlar orasida birinchi bo’lib, 1998 yilda “O’zbekiston Qahramoni” degan yuksak unvonga sazovor bo’ldi.

U I va II chaqiriq O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati.

O'tkir

Hoshimov

Taniqli o'zbek yozuvchisi va jamoat arbobi. 1941 yili 4 avgustda Toshkentda Do'mbirobod mahallasida tug'ilgan. Toshkent Davlat universiteti filologiya fakultetida o'qigan. Turli tahririyat va nashriyotlarda ishlagan. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qo'mita raisi.

“Cho'l havosi” nomli birinchi qissasi 1963 yilda bosilib chiqqan. Talabchan adib Abdulla Qahhorning e'tiboriga sazovor bo'lgan. “Urushning so'nggi qurboni”, “Yanga”, “Muhabbat”, “Dehqonning bir kuni”, “Umr savdosi”, “Quyosh tarozusi”, “Oq bulut, oppoq bulut” singari o'nlab hikoyalari, “Shamol esaveradi” (1968), “Bahor qaytmaydi” (1970), “Qalbingga quloq sol” (1973), “Dunyoning ishlari” (1982), “Ikki karra ikki-besh” (1987) qissalari, “Nur borki, soya bor” (1976), “Ikki eshik orasi” (1985), “Tushda kechgan umrlar” (1993) kabi romanlar yozgan. Adib asarlarida zamonaviy o'zbek xalqining ma'naviy dunyosi, milliy ruhi, urf-odatlarini tasvirlangan.

“To'ylar muborak”, “Sizdan ugina, bizdan bugina”, “Vijdon dorisi”, “Inson sadoqati”, “Qatag'on” singari pesalar muallifi. U E. Xemenguey, K. Simonov, A. Kuprin va boshqa adiblarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Nashr

etilgan

asarlari:

Hoshimov O'. Bahor sog'inchi –T. Adabiyot va san'at nashriyoti. 2001.
Hoshimov O'. Hadikli tushlar. –T. Adabiyot va san'at nashriyoti. 2002.
Hoshimov O'. Saylanma (2 jildlik). T.: “Sharq”, 1993.
Hoshimov O'. Bahor qaytmaydi. Toshkent. G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993.
Xashimov U. Voyti i viyti... Roman. –Moskva. (per s uzb.). 1988.
Xashimov u. Den motilka. Povest i razzkazi. (Per. s uzb.) –T. Izd “Molodaya gvardiya”. 1970.

Muhammad Ali

Muhammad Ali (Muhammad Ali Ahmedov) 1942 yil 13 martda Andijonning Bo'z tumanida tug'lgan. U shoir, yozuvchi, olim va jamoat arbobi. Bekobodagi o'rta maktabni (1959), Moskvadagi Gorkiy nomidagi adabiyot institutini (1996) tamomlagan. Qisqa muddat Andijon va Farg'ona viloyatlari maktablarida o'qituvchilik qilgan. Adabiyot va san'at nashriyotida muharrir, bo'lim mudiri, professor (1993-1994), Halqaro oltin me'ros hayriya jamg'armasi boshqaruvi raisi (1992-2002) bo'lib faoliyat ko'rsatgan. 2003 yildan u halqaro Amir Temur hayriya jamg'armasi boshqaruvi raisi.

Muhammad Ali 1992-2002 yillar davomida AQSHning Washington Universitetida O'zbek tili va adabiyotidan saboq bergan.

Muhammad Ali nazmda, nasrda, publisistikada ko'plab asarlar ijod etgan. So'nggi 35 yil davomida 20 ta she'riy to'plami o'zbek, rus, qoraqalpoq tillarida chop etildi. Uning besh dostoni "Boqiy dunyo"(1979) she'riy romani ijodida muhim o'rin egallaydi. Muhammad Ali o'zbek xalqining XIII-XIV asrlardagi hayotini "Sarbadorlar"(1989) roman-dialogiyasida aks ettirdi. Bir necha yildan beri u Amir Temur xarakteri, u barpo etgan saltanat haqida asarlar yaratishni rejalashtirmoqda. 2003 yilda "Ulug' saltanat" romanining birinchi kitobi chop etildi.

"O'z-o'zingni anglab yet" (1988), "Haqiqatdan chekinma, tarix!" (1990), "Qafasdagi bulbullar" (1996), "Men ko'rgan Amerika" (2000) singari kitoblari Muhammad Ali publisistikasi haqida tasavvur hosil qiladi. Muhammad Ali tarjimonligi oziga xos. U qadimgi hind eposi "Ramayana"ni (1978), qoraqalpoq eposlari "Shahriyor", "Mastonposhsho"ni (1985), R Byorns, Galakjion Tabidze asarlarini ozbek tiliga tarjima qilgan.

Muhammad Ali Ozbekiston Yoshlar ittifoqi mukofoti (1976), Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat mukofoti (1984), Xalqaro Yassaviy mukofoti (1994) laureanti, Ozbekiston Xalq yozuvchi(1992), "Mehnat shuhrati " ordeni sohibi (1999).

Asarlari

Saylanma. T: Adabiyot va sanat nashriyoti. 1997.
Sarbadorlar. Roman. T: Adabiyot va sanat nashriyoti, 1989.
Ulug saltanat. Roman T: "Sharq" NMK- 2003.

Tohir Malik

Tohir Malik Abdumalik o'g'li Habilovning adabiy taxallusi, Toshkentda tug'ilgan, Toshkent Davlat Universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy Universiteti)ning jurnalistika fakulteti kechki bo'limida o'qidi, kunduzi qurilishda ishladi. 1966 yildan beri O'zbekiston radiosida, gazeta va jurnallar tahririyatida, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasida, nashriyotlarda ishladi. Hozir "Sharq" NMAK Bosh tahririyatida muharrir.

Hozirgacha yozuvchining 20dan ortiq qissasi chop etildi. 1971 yilda chop etilgan "Hikmat afandining o'limi" dan keyin "Falak" (1976), "Somon yo'li elchilari" (1976) tahayyul, ilmiy-tahayyul qissalari bosildi. "Chorrahada qolgan odamlar"

qissasida tahayyul va detektiv xususiyatlari seziladi. “Alvido bolalik” (1989), “Qaldirg’och” (1987) qissalarida muhim mavzu ishlanadi. Mutaqillik yillarida T.Malik “So’nggi o’q” (1990), 4 qismdan iborat “Shaytanat” (1994-2001), “Odam ovi” (2001), “Charxralak”, “Murdalar garirmaydilar” (1999) qissalarini chop ettirdi. Yozuvchi 20 asrdagi hayotni, kishilar taqdirini goh tahayyul, goh izchil xolis, goh detektiv yo’sinda tasvirlaydi. U qissa janri imkoniyatlarini uzluksiz boyitib bormoqda. 2002 yilda yozuvchining “Mehmon tuyg’ular” o’ylari, “Jinoyatning uzun yo’li” risolasi chop etildi. Tohir Malikka “O’zbekiston xalq yozuvchisi” unvoni berilgan (2000). Mustaqillik yillarida eng ko’p adadda kitob chop ettirgan Tohir Malikdir.

Asarlari:

Tohir Malik “Falak” Ilmiy-fantastik qissa. T.: “Yosh gvardiya”, 1976, 4,75 b.t.
Tohir Malik “So’nggi o’q” qissa, hikoya. T.: “Yosh gvardiya”, 1990 13,04 b.t.
“Shaytanat” 4 qism, T.: “Sharq”, 1994-2001.

Tog’ay Murod

Tog’ay Murod – Tog’aymurod Mengnorovning taxallusi. U 1948 yili Surxondaryoning Denov tumanidagi Xo’jasoat qishlog’ida tug’ilgan. Qishlog’idagi 43-maktabni bitirgach (1966), Toshkent Dablat universiteti (hozirgi O’zMU)ning jurnalistika fakultetida o’qigan (1966-1972). U respublika radiosida muharrir (1972-1976), “O’zbekiston fizkulturachsi” gazetasida tarjmon (1976-1978), “Fan va turmush” jurnalida bo’lim muharriri (1982-1984) bo’lgan. 1985-1987 yillarda Moskvadagi Adabiyot institutida o’qigan.

1976 yilda bosilgan “Yulduzlar mangu yonadi” nomli ilk qissasi bilan yaxshi yozuvchi sifatida tanildi. 1979 yilda “Ot kishnagan oqshom”, 1980 yilda “Oydinda yurgan odamlar” qissalari chop etildi. Keyingi qissasi uchun yozuvchi Oybek nomidagi mukofot bilan taqdirlandi.

1985 yilda yozuvchining “Momo yer qo’shig’i” qissasi, 1993 yilda “Yoshlik” jurnalida “Otamdan qolgan dalalar” romani chop etildi. Tog’ay Murod o’zbek adabiyotiga betakror xarakterlarni, avval uchramagan uslubni olib kirdi. 1994 yilda “O’zbekiston Xalq Yozuvchisi” unvoni berildi. 2001 yilda yozuvchining “Bu dunyoda o’lib bo’lmaydi” romani bosildi.

Asarlari:

Tog’ay Murod. Ot kishnagan oqshom. Qissalar. T.: “Sharq”, 1994.
Tog’ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. Roman. T.: “Sharq”, 1994.
Tog’ay Murod. Bu dunyoda o’lib bo’lmaydi. Roman, hikoyalar, maqolalar. T.: “Sharq”, 2001.

Sharof

Boshbekov

Samarqand viloyati Bulung'ur tumanidagi G'ubir qishlog'ida 1951 yil 4 yanvarda tug'ildi. 1974 yili San'at institutining musiqali aktyorlik bo'limini tugatdi. Toshkentdagi "Muqimiy" musiqali teatrida, Gulistondagi teatrdagi aktyor sifatida faoliyat ko'rsatdi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida (1983-1985) O'zbekiston Milliy teatrida (1986-1987) adabiy xodim bo'ldi.

Uning "Taqdir eshigi", "Eski shahar Gavroshlari", "Temir xotin" kabi asarlari teatrlar repertuarlaridan munosib o'rin egallagan. Inchunin, "Temir xotin" komediyasi sobiq ittifoq respublikalarining barchasida sahnalashtirilgan.

U kino sohasida ham ijod qildi. Uning stsenariylari asosida "Yuzsiz", "Tilla bola", "Temir xotin", "Ma'ruf va Sharif", "Masxaraboz" kabi filmlar suratga olingan. Ayniqsa, "Charxpalak" teleseriali mashhur bo'ldi.

Sh. Boshbekov dramaturgiyasining kuchi (sehri) asar syujetida emas, g'aroyib xarakterlar va tilidadir.

"Temir xotin" asari uchun dramaturg O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. O'zbek kino san'ati rivojiga qo'shgan hissasi uchun "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" unvoniga loyiq ko'rildi (1999 yil). 2001 yilda "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirlandi.

Asari:

Boshbekov Sh. "Eshik qoqqan kim bo'ldi". T.: Adabiyot va san'at, 1989.

Muhammad Yusuf
(1954 - 2001)

1954 yil 26 aprelda Andijonning Marhamat tumanida tug'ildi. Toshkentdagi rus tili va adabiyoti institutini tamomladi (1978). Respublika kitobsevarlar jamiyatida (1978-1980), "Toshkent oqshomi" gazetasida (1980-1986), Adabiyot va san'at nashriyatida, "O'zbekiston ovozi" gazetasida (1986-1993) ishladi.

Umrining oxirgi 4-5 yilida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining kotibi bo'ldi. U "Tanish teraklar" (1985), "Bulbulga bir gapim bor" (1987), "Iltijo" (1988), "Uyqudagi qiz" (1989), "Halima enam allalari" (1989), "Ishq kemasi" (1990), "Ko'nglimdagi yor" (1991), "Bevafo ko'p ekan" (1991), "Erka kiyik" (1992), "Yolg'onchi yor" (1994), "Osmonimga olib ketaman" (1998) to'plamlarining muallifi. 1998 yilda unga "O'zbekiston xalq shoiri" unvoni berildi. U II chaqiriq

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga deputat qilib saylandi. 2001 yilda "Saylanma" asarlari chop etildi. M. Yusuf she'ning qo'shiqqa aylanishi, yuksak parvoz qilishini ko'rsata oldi. Shoir she'rlaridagi har bir so'zda qanoat, parvozga shaylik bor.

Ulug'vor muhabbat, o'talmagan burch, qadrlanmagan sevgi armoni, Yurtga o'g'illik sadoqati – shoir she'rlari asosini belgilaydi.

M. Yusuf 2001 yil 29 iyulda vafot etdi, tug'ilgan qishlog'idagi qabristonga dafn etildi.

Hayriddin Sultonov

Toshkent viloyati Qibray tumanidagi Tuzel qishlog'ida 1956 yil 18 yanvarda tug'ilgan. 1973 yilda Parkentdagi maktabni tugatgach, ToshDU (hozirgi O'zMU)ning jurnalistika fakultetiga o'qishga kirdi (1972). U "Guliston" (1974-1980), "Yoshlik" (1982-1985) jurnallarida, Adabiyot va san'at nashriyotida (1980-1982, 1985-1993) faoliyat ko'rsatdi.

1993 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonida mas'ul vazifada ishlab keladi. Uning "Quyosh barchaga barobar" (1980), "Bir oqshom ertagi" (1985), "Onamning yurti" (1987), "Umr esa o'tmoqda" (1988), "Boburning tushlari" (1993) nasriy to'plamlari kitobxonlarga ma'qul bo'lgan. Uning "Saodat sohili" (1981) qissasi, "Boburiynoma" – yangi o'zbek nasridagi o'ziga xos ma'rifiy roman. Uni badiiylikka o'ralgan qiyosiy-ilmiy tahliliy asar deyish joiz.

Bobur 15 asrda yurtlardan yurtlarga qurol, askarlar bilan o'tgan. Xayriddin Sultonov 20 asrda Bobur yurgan yo'llardan yurdi. Kitobxon beixtiyor besh asr davomida odamlar tabiatida, ruhiyatida ro'y bergan o'zgarishlarni qiyoslay boshlaydi. "Boburiynoma"ning qimmatli tomonlaridan biri inson tabiatidagi azaliy xususiyatlarning, insonlararo munosabatlarning kam o'zgarishidir.

X. Sultonov "Changak", "Moziydan bir sahifa", "Mehrobdan chayon", "Yozning yodgori", "Tushlarimda ko'raman seni" stsenariylar muallifi. U Abdulla Qodiriy ijodi, asarlari haqida bir qancha badialar yaratgan.

Asarlari:

Sultonov Xayriddin. Bir oqshom ertagi. T.: Adabiyot va san'at, 1983.

Sultonov Xayriddin. Boburning tushlari. T.: Adabiyot va san'at, 1993.

Sultonov Xayriddin. Boburiynoma. Ma'rifiy roman. T.: "Sharq", 1997.